

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“Himoyaga ruxsat etildi”
Magistratura bo'limi boshlig'i,
dotsent _____ G'.A.Doliev
“ ____ ” _____ 2019 yil

5A120101-Adabiyotshunoslik(ingliz adabiyoti)mutaxassislik magistranti
Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi

“ALISHER NAVOIY G'AZALLARINING ILMIY IZOHINI YARATISH
MASALALARI
(“G'AROYIB US-SIG'AR” DEVONI ASOSIDA)
mavzusidagi

MAGISTRLIK DISSERTATSIYA
ISHI

Ingliz tili va adabiyoti kafedra mudiri _____ B. Soliyev
MDI rahbari: _____ p.f.n. I.Jo'rayeva

NAMANGAN-2019

**ALISHER NAVOIY G'AZALLARINING INGLIZ VA O'ZBEK
TILLARIDAGI ILMIY IZOHINI YARATISH MASALALARI.**

(G'AROYIB US-SIG'AR DEVONI ASOSIDA)

REJA:

KIRISH.....	3-6
I-BOB. ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODI.....	7-40
1.1. Navoiyning ilmiy adabiy merosi.....	7-24
1.2. Navoiy va turkiy adabiyot.....	25-33
1.3. Navoiy ijodini horijda o'rganish.....	34-39
I-bob bo'yicha xulosalar	39-40
II-BOB. NAVOIY G'AZALLARI VA ULARNI TARJIMA QILISH VA SHARXLASH MUAMMOLARI.....	41-71
2.1. Navoiy g'azallarini sharxlash tarixidan.....	41-50
2.2. Navoiy g'azallarining ingliz iliga tarjima qilish muammolari...	51-65
2.3. Denis Deli Navoiy g'azallari tarjimoni.....	66-70
II-bob bo'yicha xulosalar	70-71
III-BOB. ALISHER NAVOIY G'AZALLARINING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI SHARX VA IZOHLARINI YARATISH	72-
3.1. "G'aroyib us-sig'ar" devoni talqini.....	72-75
3.2. Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" asarini o'zbek tilida sharx va tarjimalarini yaratish muammolari.....	76-85
3.3. Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" asarini ingliz tilida sharx va tarjimalarini yaratish muammolari.....	
III-bob bo'yicha xulosalar	
X U L O S A.....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va dolzarbligi:

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalar birdek rivojlantirilib, chel el investitsiyalarini jalb qilish ishlari ketmoqda. Ayniqsa turizmni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Shu o'rinda savol tug'iladi. Yurtimizni butun dunyoga qanday tanitish mumkin. Ko'pchilik horijliklar Samarqand, Buxoro kabi muqaddas qadamjolarga tashrif buyurishgan bo'lsalarda ularning ko'pchiligi bu shaharlarning O'zbekistonga tegishli ekanidan habardor emaslar. Demak eng samarali yo'llar bu Sport va san'atdir. Bundan tashqari esa adabiyot. Nodir durdonalarimizni jahon tillariga chiroyli tarjima qilib , ularni bu boy merosimizdan habardor qilishimiz kerak. Buning ustiga o'sib kelayotgan kelajak avlodimizga ular kimlarning nasli ekanini anglashiga undashimiz kerak. Bu yo'lda birinchi yo'l durdona asarlardan iborat bo'lgan adabiyotimizni yaqindan tanishlariga turtki bo'lishimiz kerak. Bugun Navoiyni butun dunyo tan olmoqda. Ul zotning asarlarini o'zimizning yoshlarga ham tushuntirish, ularning qiziqishlarini orttirish kerak. Aks holda kelajagimiz egalari o'z adabiyotidan, o'zining bobolari ijodidan behabar bo'lib qolishlari mumkin.

Mamlakatimizda Yosh avlodni yetuk va malakali kadrlar qilib tayyorlash maqsadida "Talim to'g'risidagi " qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi " doirasida ko'plab ishlar bajarilmoqda. Bugungi kunda jahon andozalariga mos va xos bo'lgan o'z talim tizimimizni yaratib yoshlarimizni butun dunyo yoshlari bilan bellasha oladigan mutaxassis qilib tayyorlash pirovard maqsadimizdir. O'zbek adabiyoti deganda ko'z o'ngimizga birinchi galda so'z mulking sultoni Hazrat Alisher Navoiy gavdalanadi. Pridentimiz Shavkat Miromonovich aytganlaridek buyuk allomalarimizning boy merosini butun dunyoga yetkazib berish hozirgi kundagi asosiy burchimiz va vazifamizdir. Buyuk mutaffakirimiz tomonidan yozilgan g'azallarni birinchi galda o'zbek tilidagi sharxlarini yaratish masalasi turibdi. Chunki ushbu asarlar yaratilgan davr tili hozir ancha eskirgan, garchi o'zbek tilida bo'lsa ham hozirgi so'zlashuv tilidan ancha uzoq. Shuning

uchun ham ularning asarlarini o'zbek tilidagi sharxlarini yaratish pirovard maqsadimizdir. Ushbu sharxlar orqali har qanday kitobxon ularning mag'zini tushunishi mumkin. Va mana shu sharxlarni tarjima qilib uni butun dunyo kitobxonlari e'tiboriga havola qilish muhim masalalardan biridir.

Ishning maqsadi va vazifalari:

“Sharq she'riyati ma'nosining serqirraligi, obrazlilikining kuchlilik, badiiy san'atlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu jihatlar mazkur namunalarni horijiy tillarga tarjima qilishda talay muammo va murakkabliklarini tug'diradi”¹. Asosiy maqsad birinchi galda o'zbek mumtoz she'riyatini yanada chuqquroq o'rganib, uni bugungi globallashuv davrida yashayotgan yoshlarimizga tushuntirishdir. Eng taqsiqga sazovor jihati shundaki, bundan 550 yildan ortiqroq vaqtlar avval yozilgan baytlarning ma'nolari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi, aksincha bugungi hayotga ham mos kelishidir. Bu hazrat Navoiyning nechog'lik buyuk shaxs ekanliklari, fikrlashlari juda keng bo'lganliklarini ko'rsatadi.

Ishning vazifalari:

- Navoiyning ilmiy va badiiy asarlarini o'rganish.
- G'azallariga bitilgan sharxlar bilan tanishish
- Navoiyning jahon adabiyotidagi tutgan o'rnini tahlil qilish
- Navoiy g'azallarining o'zbek va ingliz tillarida sharx va tarjimalarini o'rganish
- Navoiy g'azallari va ularni tarjima qilish va sharxlash muammolarini o'rganish
- Alisher Navoiy g'azallarining ingliz va o'zbek tillaridagi sharx va izohlarini yaratish.

¹ Abdullajonov A. Navoiy badiyatini nemischa tarjimalarida qayta yaratish va tadbiq etish. N.D.A.Toshkent. 1998 yil 5-bet

Tadqiqotning obyekti:

Alisher Navoiy g'azallari, ularga yozilgan o'zbek va ingliz tillaridagi sharxlar va izohlar.

Tadqiqotning predmeti:

Navoiy g'azallarining sharxini yaratish masalalari, ularni ingliz tiliga tarjima qilish.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi:

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi “G’aroyib us-sig’ar” dostoni bugungi kungacha Navoiyning boshqa dostonlari singari faqatgina o'zbek va qardosh tillarda tahlil qilingan edi. Ishning asosiy yangiliklaridan biri birinchi marta mana shu “G’aroyib us-sig’ar” dostonining nasriy bayon, izoh va sharxlari hamda lug’atlari ingliz tilida tarjimalari amalga oshirilganini izohlab berish, bundan tashqari keng jamoatchilikka inglizcha tarjimalar va o'zbekcha nasriy bayonlar o'rtasidagi mutanosiblik va bir biriga nomutanosib jarayonlarni ko'rsatib berish va tarjimada vujudga keladigan muammolarni, hamda ilmiy izohli sharxlarni, hamda nasriy bayon yaratishdagi sharxlarni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:

Asosiy masalalar hazratning g'azallarining taglama tarjimalarini yaratib, ularni so'zma so'z she'riy tarjimadan ko'ra tushunarliroq va soddaroq bo'lishini tekshirish va isbotlash, shuningdek g'azallarni kengroq tushunish uchun ularga berilgan izohlarni ham tarjimasini yaratish.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharxi(taxlili):

Ushbu tadqiqot ishining amaliy qismida Boqijon To'xliyevning “G’aroyib us-sig’ar” dostonidagi g'azallarga berilgan sharx va izohlar II-kitobdan, Longman, Macmillian English Dictionary kitoblaridan, nazariy

qismda esa internet saytlari bilan bir qatorda Maqsud Shayxzoda, Natan Mallayev va boshqalar tomonidan yozilgan kitoblardan foydalanildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi:

Tadqiqot ishida qiyosiy tipologik metoddan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:

Nazariy ahamiyati duch kelingan muammolar, yutuq va kamchiliklar yuzasidan fikr va mulohazalar yuritish, amaliyotda esa qilingan tarjimalarni kitobxonlar e'tiboriga havola qilish, bevosita ushbu tarjimalarning o'zidan baxramand bo'lish.

Ish tuzilmasining tavsifi:

Dissertatsiya ishi Kirish, Asosiy qism, Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Asosiy qismda uchta bob bo'lib, har bir bob uch qismdan iborat.

I-BOB. ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODI

1.1.Navoiyning ilmiy adabiy merosi

Nafaqat o'zbek balki butun Osiyoda uyg'onish davri asoschisi, o'zbek adabiyotining yorqin namoyondasi va turkiy adabiyot asoschisi mir Alisher Navoiy jahonning eng mashhur adabiyotshunoslari qatoridan muhim o'rin egallaydi.

Alisher Navoiy dastlab adabiyotga shoir sifatida kirib kelgan va adabiyotda she'riyat qasrini qurdi, g'azal mulkining sultoniga aylandi, keyinchalik qator dostonlar yaratdi, adabiyotshunos, tilshunos, davlat va jamoat arbobi sifatida dunyoga tanildi. Alisher Navoiy o'z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli ko'rish ruhi bilan qalam tebratdi. U mehnatkash, pok, halol, o'z aql-farosati, yaxshi odamlar qalbidagi zakovat va saxovat, samimiyat, sevgi-sadoqat, fidoyilik, inson baxti, xalqlarni, mamlakatlarni do'stlikka, hamkorlikka, ezgulikka chaqirish, insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini ulug'ladi. Alisher Navoiyning yaratgan asarlarida millat taqdiri, birligi, el-yurt qayg'usi, yurtni obodonlashtirish, ilm, san'at va adabiyotni rivojlantirishni, Vatanga muhabbat, mehnatga sadoqat, axloqiy yuksaklikka intilish, go'zallik va muhabbat, mehr va muruvvat, shaxs erkinligi, ijtimoiy adolat uchun kurash g'oyalari bilan yo'g'rilgan.

Haqiqatan ham Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining asoschisidir. U XV asr o'zbek mumtoz adabiyoti va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan ulug' siymodir.

2019 yil 9 fevralda Alisher Navoiy tavalludiga 578 yil to'ldi. O'zbek xalqi, Navoiyshunoslar va adabiyot ahli bu sanani nishonlaydilar, chunki uning yaratgan durdonalari umumbashariyligi va hamma davrlar uchun hozirjavoblighi bilan barchani maftun etib kelgan, uning asarlari jahon tillariga va qardosh xalqlar tillariga tarjima qilingan. Bu sana munosabati bilan kutubxonalarda shoir hayoti va ijodiga bag'ishlangan adabiy-badiiy tadbirlar, navoiyxonlik kunlari,

davra suhbatlari, navoiyshunoslar, adabiyotshunoslar, yozuvchilar va shoirlar bilan uchrashuvlar tashkil etish ko`zda tutilgan.

“Buyuk gumanist shoirimiz faoliyati va ijodiga teran nazar tashlasak, uning dahosi ijtimoiy hayotning, mafkura va madaniyatning barcha sohalarini qamrab olganidan hayratga tushamiz.”

“ Barcha olijanob ishlarimizda Navoiy g`oyalari, Navoiy ibрати, Navoiy ruhi bizga hamisha hamroh bo`lsin!”²

I.Karimov

Sharq adabiyotini, umuman, Sharq ma'naviyati va madaniyatini ulug' mutafakkir hamda buyuk shoir Mir Alisher Navoiysiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ushbu zot haqida gap ketganda, avvalo, Yurtboshimiz Islom Karimovning mumtoz shoir bobomizning behisob go'zal insoniy fazilatlarini mujassam etgan holda aytgan mashhur ta'rifini eslash o'rinlidir: “Agar bu ulug' zotni avliyo desak, avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak shoirlarning sultonidir”³.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov: "Insonni olam gultoji deb ulug'lagan hazrat Navoiyning butun hayoti, butun ijodi zahirida ezgulik, adolat, nafosat kabi yuksak tuyg'ular dunyoni obod va munavvar qiladi, bashariyatni ma'naviy halokatdan qutqaradi, degan qat'iy ishonch mujassam" ⁴ deb bejiz aytmaganlar. Haqiqatan ham Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining asoschisidir. U XV asr o'zbek mumtoz adabiyoti va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan ulug' siymodir.

Atoqli rus sharqshunosi, akademik Nikolay Konrad Navoiy haqida fikr yuritib, shunday deydi: “Biz bu shoirni nafaqat o'rganamiz, balki uning asarlarini qo'limizdan qo'ymasdan o'qiymiz. Nafaqat o'qiymiz, ayni paytda

² 2012 yil 9 fevralda Alisher Navoiy tavalludiga 571 yilligidaga maruzasidan.

³ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat, 2008

⁴ 2012 yil 9 fevralda Alisher Navoiy tavalludiga 571 yilligidaga maruzasidan

uning benazir ijodi haqida o'ylab, mushohada yuritamiz. Uning buyuk bir Uyg'onish davridan boshqa bir uyg'onish davriga yetib kelgani yanada ulkan tarixiy ma'no va ahamiyatga egadir".⁵

O'zbek adabiyotining asoschisi, shoir, olim, ma'rifatparvar, faylasuf, musiqashunos, davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Hirot shahrida tavallud topgan. Uning otasi G'iyosiddin Muhammad zamonasining bilimdon kishilaridan va Temuriylar xonadoniga yaqin shaxslardan bo'lgan. Alisher Navoiyning ota tomondan bobosi Amir Temurning Umar Shayx ismli o'g'li bilan ko'kaldosh (emikdosh) bo'lib, keyinchalik Umar Shayx va Shohruxning xizmatida bo'lgan. Otasi G'iyosiddin Bahodir esa Abulqosim Boburning yaqinlaridan, mamlakatni idora etishda ishtirok etgan. Onasi (ismi noma'lum) Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi. Alisher Navoiyning bolaligi Shohrux hukmronligining so'nggi yillariga to'g'ri kelgan. U temuriyzodalar, xususan bo'lajak podshoh Husayn Boyqaro bilan birga tarbiyalangan. 4 yoshida maktabga borib, tez savod chiqarib, turkiy va forsiy tildagi she'rlarni o'qib, yod ola boshlagan. O'zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilni ham mukammal egallagan. 1447 yil 12 martda mamlakat podshohi Shohrux vafot etgach, taxtga da'vogarlar orasida o'zaro kurash boshlanadi. Urush-janjallar ko'p kishilarni Xurosondan turli tomonga ko'chib ketishga majbur etdi. Alisher Navoiylar oilasi o'z tinchligini ko'zlab, Iroqqa ko'chishdi (1449). Taf shahrida Alisher mashhur «Zafarnoma» tarixiy asari muallifi, shoir Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Bu uchrashuv bolada yorqin taassurot qoldiradi. G'iyosiddin Bahodir oilasi Hirotga, qariyb ikki yil muddat o'tgach, qaytadi. Abulqosim Bobur G'iyosiddin Bahodirni Sabzavor shahriga hokim qilib tayinladi. Alisher Navoiy Hirotga qolib o'qishni davom ettirdi. Alisher Navoiy she'riyatga g'oyat qiziqdi, Sharq adabiyotini qunt bilan o'rgandi. Oila muhiti bolaligidayoq unda adabiyotga zo'r havas tug'dirgan edi. Tog'alari Mirsaid — Kobuliy, Muhammad Ali — G'aribiy yetuk shoir edilar. Alisher

⁵ . M. Shayxzoda. Asarlar. IV tom. – Toshkent, 1972.43-bet.

Navoiylar uyida shoirlar tez-tez to'planishib, mushoira qilishar, adabiyot va san'at haqida suhbatlashar edilar.⁶

Alisher Navoiy 10—12 yoshlaridan she'r yoza boshlagan. Tarixchi Xondamirning yozishicha, yosh Alisher Navoiyning iste'dodidan mamnun bo'lgan mavlono Lutfiy, uning:

Orazin yopqoch, ko'zumdan sochilur har lahza yosh,

Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh

matla'li g'azalini tinglab: «Agar muyassar bo'lsa edi, o'zimning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu g'azalga almashtirardim...» degan.⁷ Alisher Navoiy 15 yoshida shoir sifatida keng tanilgan. She'rlarini turkiy (Navoiy taxallusi bilan) va forsiy (Foniy taxallusi bilan) tillarida yozgan. Alisher Navoiy 13—14 yoshlarida otasi hayotdan ko'z yumadi. Uni Abulqosim Bobur o'z tarbiyasiga oladi, katta badiiy iste'dodi uchun g'oyat e'zozlaydi. 1456 yil oktabrda mamlakat poytaxti Hirot dan Mashhadga ko'chiriladi, Abulqosim yosh Alisherni ham, o'z xizmatida bo'lgan Husayn Boyqaroni ham Mashhadga olib ketadi. 1457 yilning bahorida to'satdan Abulqosim Bobur ham vafot etdi. Alisher Navoiy uchun bu, otasi vafotidan keyingi, ikkinchi og'ir judolik bo'ldi. U Mashhad madrasalaridan birida o'qishini davom ettiradi. Do'sti Husayn Boyqaro esa Marv va Chorjo'y tomonlarga omad qidirib ketadi. Xurosonni temuriylarning yana bir vakili, Movarounnahr hukmdori Sulton Abu Said egalladi va poytaxtini Samarqanddan Hirotga ko'chiradi. Husayn Boyqaroning taxtni egallash yo'lidagi birinchi raqibi — Abu Said edi. Alisher Navoiy oilasining xohish-rag'batini Husayn tomonida bo'lib, bu avvalo ularning oilaviy yaqinliklari bilan izohlanardi; bundan yangi hukmdor ham yaxshi xabardor edi. O'rtadagi bu vaziyat Alisher Navoiy hayotini murakkablashtirgan. Alisher

⁶ <http://tafakkur.net/alisher-navoiy.haqida>

⁷ Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo'chqorov. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T., 2006, 124-bet. Ikkinchi nashri "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bilan hamkorlikda. T., 2010, 90-bet.

Navoiy Mashhadda oddiy bir mullavachcha sifatida yashadi. Shoirning bu davrdagi ijodida o'z yurtini sog'inib yozgan g'azallari talaygina. Orada, xususan, yoz fasllarida Hirotga borib-kelib ham turgan. 1463 yilda esa u uzil-kesil Hirotga qaytdi. Biroq bu yerda ahvol o'zgargan, shahar xarobaga aylangan edi. Xuroson poytaxtida Sulton Abu Said o'z tartibini o'rnatgan, muhim vazifalarga u bilan Movarounnahrda kelgan kishilar tayinlangan, Alisher Navoiyga yaqin kishilar quvg'in qilingan, Husayn Boyqaro bilan birga ketgan tog'alari — Mirsaid va Muhammad Ali urushda halok bo'lgan, yashash uchun biron joy topish muammo edi. Alisher Navoiyning o'sha kunlardagi ahvoli uning keyinchalik ustoz Sayyid Hasan Ardasheriga Samarqanddan yozgan maktubidagi she'riy satrlarda nihoyatda ta'sirli va haqqoniy ifodalab berilgan. Bu vaqtda mamlakatda taniqli shoir bo'lib qolgan Alisher Navoiyni Abu Said ta'qib qilib, Hirotidan chiqarib yuboradi. Shoir Samarqandga ketishga majbur bo'ladi. Alisher Navoiy Samarqandda 1465 yildan 1469 yilning bahorigacha yashadi, Fazlulloh Abu Lays madrasasida o'qib, turli fanlarga oid bilimlarini yanada chuqurlashtirdi. Samarqandning ko'zga ko'ringan shoirlari — Shayxim Suhayliy, Mirzobek, Mavlono Xovariy, Mir Qarshiy, Harimi Qalandar, muammogo'y Uloyi Shoshiy, olim Mavlono Muhammad Olim va boshqa bilan hamsuhbat bo'ldi va do'stlashdi.⁸ Samarqand shahri hokimi Ahmad Hojibek asli hirotlik bo'lib, Vafoiy taxallusi bilan she'rlar yozardi, u Alisher Navoiyga alohida hurmat va e'tibor bilan qaradi. Uning yordamida Alisher Navoiy davlat ishlari bilan ham shug'ullana boshladi. U davlat ishlarini boshqarishda dastlabki tajribani shu yerda orttirdi va bu unga keyinchalik asqotdi. Alisher Navoiyning Samarqanddagi siyosiy va davlat faoliyati yuqori baholanib, unga «Chig'atoy amiri» unvoni berilgan.⁹

1469 yil boshlarida Sulton Abu Sayd Qorabog'da o'z askarlari tomonidan o'ldiriladi. Ko'pdan buyon shunday vaziyatni kutib yurgan Husayn Boyqaro

⁸ M. Shayxzoda. Asarlar. IV tom. – Toshkent, 1972. 119-bet.

⁹ Alisher Navoiy tavalludining 573 yilligiga bag'ishlangan uslubiy qo'llanmadan

zudlik bilan kelib, Hirot taxtini egallaydi. Alisher Navoiy ham Hirotga yetib keladi. 1469 yil 14 aprel kuni, ramazon hayiti munosabati bilan uyushtirilgan qabul marosimida Alisher Navoiy o'zining Husayn Boyqaroga yangi yozgan «Hiloliya» qasidasini taqdim etadi. Podshoh Alisher Navoiyni muhrdorlik mansabiga tayinlaydi.¹⁰

Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning eng xavfli siyosiy raqibi — Yodgor Muhammad Mirzoni tunda qo'lga olishda shaxsiy jasorat ko'rsatadi. Yangi hukumatning ortiqcha soliqlaridan norozi bo'lib, qo'zg'olon ko'targan xalq ommasini tinchitishda adolat va mardonavorlik bilan ish tutadi. Shu voqealardan so'ng ma'lum vaqt o'tgach, Husayn Boyqaro hukumatidagi muxrdorlik vazifasiga Alisher Navoiyning roziligi bilan uning samarqandlik do'sti, shoir Shayxim Suhayliy tayinlanadi. Alisher Navoiyning maqsadi saroyda maslahatchi bo'lib qolish, ko'proq ijodiy ish bilan shug'ullanish edi. Biroq Husayn Boyqaro 1472 yilning fevral oyida uni o'z saroyining bosh vaziri qilib tayinlaydi va unga «Amiri kabir» unvonini beradi. Alisher Navoiy yangi lavozimda avvalo butun kuchini mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o'rnatishga qaratdi. Vaqf ishlarini tartibga solishga kirishdi. Shaharlarda savdo-sotiqni, hunarmandchilikni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. Alisher Navoiy sa'yi harakati bilan qishloqlarda dehqonchilik madaniyati o'sib boradi. Shaharlar, xususan Hirot kun sayin obod bo'la boshlaydi.

Botir Valixo'jaev «Alisher Navoiyning Samarqanddagi qadamjolari» maqolasida Xoja Fazlulloh Abullays xaqida quyidagi ma'lumotlarni beradi: «Zamonasining Abu Xanifasi (fiqh olimi), obni Hojibi (arab tilshunosi), Abu Ali ibn Sinosi deb e'tirof etilgan Xoja Fazlulloh Abullays haqida hozircha ma'lum bo'lgan ma'lumotlar shular. Alisher Navoiy ana shu alloma qoshida ikki yil huquqshunoslik arab tili va adabiyoti, she'rshunoslikdan saboq oldi.,»¹¹

¹⁰ <http://fikir.uz/blog/ziyo/navoiy-va-boburning-mangu-meroslari.html>

¹¹ «Muloqot», 1991, 2- son.

Buyuk insonparvar Alisher Navoiy o'rta asrdagi Uyg'onish davrining boshqa ulug' zotlari singari butun hayoti bilan haqiqiy inson qanday bo'lishi lozimligini ko'rsatdi. U o'z davridagi nohaqlikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi, amaldorlarning o'z vazifalarini suiiste'mol qilishlarini va ta'magirliklarini fosh etdi, ojiz, muhtoj kishilarni o'z himoyasiga oldi. Sulton Husayn Boyqaro podshohlik qilgan, Alisher Navoiy hukumatda bosh vazir vazifasini egallagan mahallarda hech bir mamlakatga qarshi bosqinchilik urushi olib borilmadi. Bosh vazir Alisher Navoiy madaniyat va san'atning chinakam homiysi sifatida taniladi. Uning faoliyatida ijtimoiy-siyosiy masalalarni to'g'ri hal etishga intilish, jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarga, barcha qavmlarga bir xil munosabatda bo'lish, hech qaysi birini kamsitmaslik, hammaning manfaatiga barobar xizmat qiladigan jamoat binolarini qurishga alohida e'tibor berish oldingi o'ringa chiqib boshladi. Xondamirning qayd qilishicha, 80-yillar davomida Alisher Navoiy o'z mablag'lari hisobidan Hirotida va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha Madrasa, 40 ta rabot, 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'priq, 20 ga yaqin hovuz qurgan yoki ta'mirlattingan. Ular orasida Hirotidagi «Ixlosiya», «Nizomiya» madrasalari, «Xalosiya» xonaqohi, «Shifo'iya» tibgohi, Qur'on tilovat qiluvchilarga mo'ljallangan «Dorul-huffoz» binosi, Mar-vdagi «Xusraviya» madrasasi, Mashhaddagi «Dorul-huffoz» xayriya binosi va boshqa noyob me'morlik yodgorliklari bor.¹²

Hirotida, umuman Xuroson mulkida ma'naviy hayotning baquvvat ustunlaridan Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiy o'rtasidagi ijodiy hamkorlik — ustoz-shogirdlik ko'p masalalarda hamfikrlilikka olib keldi. Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi dastlabki yirik asarlaridan «Hiloliya» qasidasi Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan bo'lsa, forsiy tildagi birinchi yirik asari «Tuhfat ul-afkor» (1476) qasidasi Jomiyga bag'ishlangan edi.

1470-yillarning oxirlarida Alisher Navoiy o'zining o'zbek tilida yozgan she'rlaridan iborat ilk devoni — «Badoe' ul-bidoya» («Badiiylik ibtidosi»)ni

¹² <http://tafakkur.net/alisher-navoiy.haqida>

tuzdi. Mazkur devonda 777 g'azal, 85 ruboiy, 52 muammo, 46 qit'a, 53 fard, 10 tuyuq, 10 lug'z, 3 mustazod, 5 muxammas, 3 tar-je'band, 2 musaddas bo'lib, bunday mukammal devonni tuzish Navoiygacha kamdan-kam o'zbek shoiriga nasib bo'lgan. Alisher Navoiy «Badoe' ul-bidoya» tuzilgandan keyingi davrda yozilgan o'zbekcha she'rlari asosida 1480 yillarning oxirida «Navodir un-nihoya» («Behad nodirliklar») devonini tuzdi. 1481 — 82 yillarda Alisher Navoiy «Chixl hadis» («Qirq hadis» yoki «Arbain») asarini yozadi.¹³ Bunda Muhammad payg'ambar(sav) ning qirq hadisi to'rtlik bilan she'riy ifodalab berilgan.

Alisher Navoiy mansub adabiy hayotda she'riy janrlardan g'azal, qasida, ayniqsa muammo yozishga qiziqish kuchli edi. Alisher Navoiy forsiy devoniga 373 muammo kiritgan. Shunday adabiy mayllar tufayli 1485 yil muammo yozish qoidalari haqida maxsus «Mufradot» asarini yaratdi.

Alisher Navoiyda o'zbek tilida «Xamsa» — besh doston yaratish maqsadi yoshligidan bo'lgan. Bu maqsadini 1483—85 yillarda amalga oshirdi. Asar o'zbek adabiyoti shuhratini olamga yoyib, jahon adabiyotining durdonalaridan biriga aylandi.«Xamsa»dan keyin Navoiy yana bir qancha asarlar yaratdi. 1485 yil o'zining mashhur «Nazm ul-javohir» asarini yozdi, bunda birinchi xalifalardan bo'lmish Hazrat Alining 266 ta hikmatli gapi ruboyi tarona (to'rt misrasi ham qofiyalangan) shaklida bayon etilgan. O'sha davr kitobxonlari, shu jumladan, tarixchi Xondamir bu asarni g'oyat yuksak baholagan. Alisher Navoiyning insonparvarlik faoliyati, ilg'or qarashlari, uning obro'-e'tibori xalq orasida tobora ortib borishi o'z manfaatlarini ko'zlagan saroy a'yonlari orasida norozilik tug'dirdi. Ular shoir bilan podsho orasiga nifoq solishga urindilar. Natijada 1487 yilda Husayn Boyqaro Alisher Navoiyni vazifasidan bo'shatadi, bosh vazir vazifasini Muhammad Majdiddin egallaydi. Navoiy esa Astrobodga hokim qilib tayinlanadi. Navoiy hokimlik qilgan 2 yil

¹³ <http://tafakkur.net/alisher-navoiy.haqida>

davomida Astrobod shahri va viloyati obodonlashib, qo'shni davlatlar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatiladi, savdo ishlari yo'lga qo'yiladi.¹⁴ Alisher Navoiy Astrobodda ham ko'p yangi she'rlar yozgan, Hirotidagi yor-do'stlariga maktublar yo'llab turgan. Uning Astroboddan Husayn Boyqaroning katta o'g'li Badiuzzamonga yozgan maktubini davlatni boshqarish haqidagi risola, deyish mumkin.

Alisher Navoiy doim Husayn Boyqaroni adolatli va ma'rifatli hukmdor qiyofasida ko'rish orzusi bilan yashadi. Astroboddan Husayn Boyqaroga va boshqa amaldorlarga yozgan maktublarida ularni insof va adolatga chaqirar, davlat idora usulida mustahkam tartib o'rnatish va ayrim islohotlar o'tkazishga undar edi. Lekin Alisher Navoiyning istaklari to'la amalga oshishi qiyin edi. Astrabodda Navoiy bilan Husayn Boyqaro munosabatlariga putur yetkazuvchi gaplar yuzaga kelgach, podshoh Alisher Navoiyning Hirotga qaytishiga ruxsat beradi. Husayn Boyqaro Navoiyga bir nechta yuksak lavozimlarni taklif qiladi. Alisher Navoiy rozi bo'lmagach, unga «Muqarrabi hazrati sultoni» («Sulton hazratlarining eng yaqin kishisi») degan rasmiy unvon beriladi.¹⁵ Bu bilan u davlatning hamma ishlariga aralasha olar va podshoh bilan ko'rishish imkoniga ham ega bo'lar edi. Binobarin, saroy amaldorlari, shu jumladan, Muhammad Majdiddin ham har bir muhim masalani ko'p vaqt u bilan kelishishga majbur edi. Lekin Alisher Navoiy bilan Majdiddin o'rtasidagi nodo'stona munosabatdan ko'pchilik xabardor edi. Navoiyning Balxda hokim bo'lib turgan ukasi Darveshali Majdiddindan ranjib, bosh hukumatga qarshi isyon ko'targani ham ma'lum. Bu isyon Navoiyning aralashuvi bilan tinchitilgan. Aynan shu voqea 1490 yildan Majdiddinning siyosat maydonidan ketishiga asosiy sabab bo'lgan.

Alisher Navoiy hamisha ko'proq ijodiy va ilmiy ishlar bilan shug'ullanish, bu boradagi rejalarini amalga oshirish xayoli bilan yashardi.

¹⁴ <http://tafakkur.net/alisher-navoiy.haqida>

¹⁵ Hayitmetov A. Navoiy dahosi. Toshkent. 1970, 62-bet

Hayot esa uning rejalariga o'z tuzatishlarini kiritar edi. 1488 yil Sayyid Hasan Ardasher, 1492 yil Jomiy, 1493 yil olim va shoir Pahlavon Muhammad birin- ketin hayotdan ko'z yumdilar. Navoiy o'zi uchun qadrdon bo'lgan bu insonlar xotirasini abadiylashtirish, ularga o'z hurmatini izhor etish uchun «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Xamsat ul-mutahayyirin». («Besh hayrat»), «Holoti Pahlavon Muhammad» nomli risolalarini yozdi. Astrobodda yoza boshlagan «Tarixi muluki Ajam» («Ajam podshohlari tarixi») asarini tugalladi (1489). 1490 yil u o'ziga zamondosh shoirlar haqida Jomiyning «Bahoriston», Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro» asarlari shaklida «Majolis un-nafois» («Nafislar majmuasi») tazkirasini tuzishga kirishib, 1492 yilda tugalladi. Shu vaqtning o'zida Alisher Navoiy o'zbek tilida she'riyat nazariyasi, aniq-roq'i, aruz vazni qoidalari haqida «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o'lchovi») ilmiy qo'llanmasini yaratdi. 1494 yilda turkiy tildagi maktublarini to'plab «Munshaot» («Maktublar») majmuasini tuzdi. 1495 yil Jomiyning «Nafahot ul- uns» asarini «Nasoyim ul-muhabbat» («Muhabbat shabadalari») nomi bilan tarjima qilib¹⁶, uni qayta ishlab, turkiy mashoyixlar haqidagi yangi ma'-lumotlar bilan boyitdi. Shu boisdan «Nasoyim ul-muhabbat»ga Alisher Navoiy ning mustaqil asari sifatida qarash mumkin.

Alisher Navoiy 1491—92 yillardan boshlab turkiy tilda yozilgan hamma she'rlaridan yangi, yig'ma devon tuzishga kirishdi va bu ish 1498—99 yilda nihoyasiga yetdi. Devonning umumiy nomi «Xazoyin ul-maoniy» («Ma'nolar xazinasini») bo'lib, 4 qismdan iborat bo'lganligi uchun «Chor devon» deb ham atalgan. Devon shoirning butun hayoti davomida yozilgan she'rlarini qamrab olgan, ularda Alisher Navoiyning barcha davrlaridagi kayfiyati, dunyoqarashi, orzu-umidlari ifodalab berilgan. Taxminan shu yillarda Alisher Navoiy forsiy she'rlaridan tashkil topgan «Devoni Foni» («Foni devoni»)ni, forsiy tildagi 2 qasidalar majmualarini tuzib, forsiy she'riyat taraqqiyotiga ham o'zining munosib hissasini qo'shdi. Xurosonda forsiyzabon xalqlar ko'pchilikni tashkil

¹⁶ Xurshid Davron. Navoiynoma. XIII. Chor devon. Nasoyim ul-muhabbat

etganligi inobatga olinsa, Alisher Navoiyning bu tilda ham samarali ijod qilgani mamlakat ma'naviy ehtiyojini yaxshi his etganligini bildiradi.

1490 yillarning o'rtalariga kelib mamlakatda ijtimoiy-siyosiy tanglik kuchaya boshlaydi. Temuriylar xonadonida hukmdor o'g'illari o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyatlar esa bu tanglikni yanada kuchaytiradi. Har bir shahzodaning o'z tarafdorlari bo'lib, ularni murosaga keltirish ko'p vaqt Alisher Navoiy zimmasiga tushar edi. Bosh vazir Nizomulmulk esa 1496—97 yillarda bu oilaviy mojarolarda bir tomonlama harakat qilib, Muzaffar Mirzonkt onasi — Xadicha begimga yon bosadi. Shu asosda Husayn Boyqaro bilan Astrobodda hokimlik qilayotgan Badiuzzamon o'rtasida harbiy to'qnashuv yuz berdi. Saroydagi fitna, jumladan, Nizomulmulkning qabihligi natijasida Badiuzzamonning o'g'li, Husayn Boyqaroning eng sevimli nabirasi, Navoiyning esa ixlos qo'ygan shogirdi Mo'min Mirzo fojiali o'ldiriladi.¹⁷ Bular hammasi Alisher Navoiy hayoti va kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Alisher Navoiyning she'riy dahosi 15-asr oxirlariga kelib yana jo'sh urdi. U 2 yil mobaynida 2 ta yirik asar — «Lison ut-tayr» («Qushlar tili») dostonini va «Muhokamat ul-lug'atayn» («Ikki til muhokamasi») nomli ilmiy asarini yaratdi. Alisher Navoiyning so'nggi buyuk asarlaridan yana biri nasriy pandnoma yo'sinida yozilgan «Mahbubul-qulub» («Qalblar sevgani»)dir. U Sharq adabiyoti tarixida Shayx Sa'diyning «Guliston», Kaykovusning «Qobusnoma», Nizomiy Aruzi Samarqandiyning «Chor maqola» kabi asarlari qatorida turadi. Bu asarida Alisher Navoiy o'zining hayot yo'lini, boshidan kechirgan turmush mashaqqatlarini yorqin tasvirlab bergan.

1500 yilning dekabrda Husayn Boyqaro isyon ko'targan o'g'li — Muhammad Husayn bilan sulh tuzib, Hirotga qaytar ekan, Alisher Navoiyni ham uni kutib olishi lozimligiga ishorat qiladi. Orada 2—3 kunlik yo'l bor edi. Alisher Navoiy o'zining so'nggi she'rini Poyob rabotida yozgan va undan nusxa ko'chirtirib, kelayotgan Husayn Boyqaroga yuborgan. Uchinchi kuni Alisher

¹⁷ Azizxo'jaev A.A. Davlatchilik va ma'naviyat. -T.: «Sharq», 1997.

Navoiy hukmdor istiqboliga yaqinlashayotganida o'zini yomon his etgan, u bilan ko'rishayotganda hushidan ketib, qaytib o'ziga kelmagan va hayotdan ko'z yumgan.

Alisher Navoiyning muhabbat va bu bilan bog'liq tug'yonlari, xususan g'azallari uning yigitlik davrida yozilgan. Bunga uning «Ilk devoni»ga kiritilgan, xalq orasida «Qaro ko'zum», «Kelmadi» («Munojot») nomlari bilan mashhur bo'lgan va kuylanadigan g'azallari yaxshi misol bo'la oladi.¹⁸ Bu kabi she'rlarida shoir pok va yuksak ishqiy kechinmalarni baland ehtiros va falsafiylik bilan ifodalab bera olgan. Uning «Topmadim» radifli g'azali ham shu davrda, aniqrog'i, Mashhaddan Hirotga qaytib, shaxsiy turmushini izga solish taraddudida yurganda, lekin uning moddiy jihatdan nochor ahvoldaligi tufayli oila qurishi qiyinlashgan, Sulton Abu Sayd esa uni ta'qib qilgan paytda yozilgan bo'lib, uning har bayti yurakni tirnaydi. Alisher Navoiyning ishqiy she'rlarini faqat bir subyektga qaratilgan, deyish qiyin. U hayotga keng nigoh bilan qarab, barcha go'zalliklarni nazokatli tuyg'ularni qadrlagan, noyob so'z va iboralar bilan qalbdan ifodalay bilgan. Lekin hayot qiyinchiliklari va ziddiyatlari orqasida o'z orzu-umidlariga yetisha olmagan shoir o'zining insoniy norozilik tuyg'ularini olovli she'riy satrlarda bayon etadi. Alisher Navoiyning ishqiy mavzuda yozgan she'rlarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, ulardagi ko'p g'oya va timsollar, tasviriy detallar an'anaviy xarakterga ega. Shu bilan birga ishq va ishqiy obrazlar talqinida ham boshqa mumtoz ijodkorlar kabi Alisher Navoiy ramziylikka ko'p o'rin beradi. «Yor» — bu dunyo go'zaligina emas, uningcha, bu — butun borliqni yaratgan va hamma narsani harakatga keltirib turgan Alloh hamdir. Shoir o'zining tasavvufiy she'rlarida yorning qoshi, ko'zi, zulfi, sochi (va h.k.) deganda Allohning kuch-qudrati, mehri, oliy darajadagi go'zalliklarini ko'zda tutadi. Alisher Navoiyning barcha lirik janrlarga oid she'rlari yuksak mahorat bilan yozilgan bo'lib, inson manfaatlariga, uning e'tiqodini mustahkamlashga, ruhini sog'lomlashtirishga

¹⁸ www.fikr.uz

xizmat qiladi. Uning falsafiy, axloqiy mazmundagi hayot nafasi ufurib turgan har bir she'ri bu janrning o'lmas namunalaridir.

«Lison ut-tayr» — Alisher Navoiyning so'nggi dostoni «Xamsa»dan 14 yil keyin — 1498—99 yilda yaratilgan. Bu asarini shoir «Foniy» taxallusi bilan yozgan. Chunki bu davrda uning hayoti keksalikka yuz o'giran, aniqrog'i, bu dunyosidan ko'proq u dunyosini o'ylay boshlagan edi. Mazkur asar bolaligida sevib o'qigani — Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» («Qushlar tili») dostoniga javob tarzida, shoirning o'z ta'biri bilan aytganda, «tarjima rasmi bila» yuzaga keltirgan she'riy mo'jizasi edi. «Lison ut-tayr» aruzning ramali musaddasi maqsur (foilotun — foilotun — foilon) vaznida yozilgan bo'lib, 3598 baytdan iborat. Dostondagi bosh g'oya, bosh muammo tasavvufdagi imon, e'tiqod va ma'naviyat masalalaridir. Alisher Navoiyning niyati oddiy insonlarga insoniylikning ilohiy mohiyatini tushuntirib berish, ularni og'ir sinovlardan o'tkazib, komil inson darajasida ko'rish. Shoir asarda qushlar timsolida tasavvuf yo'liga kirgan va Allohni ko'rishga, unga yetishishga astoydil kirishgan xudojo'y insonlarni tasvirlashga intilgan. Hudhud degan qush nomidan so'ylangan yuzlarcha hikoyalar tasavvufiy mazmunda bo'lib, ular hammasi hayotiy, biri biridan qiziqarli. Qushlarning rang-barang timsollari orqali Alisher Navoiy o'zining tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq g'oyalarini, Allohning hamma narsaning tashqarisida emas, balki ichida, o'zida ekanini ko'rsatish va isbotlashga harakat qiladi. Insonning ulug'vorligini majoziy uslub bilan, ta'sirli qilib, real ijtimoiy, axloqiy hodisalar ila bog'lab tasvirlagan. Tasavvufning vaxdat ul-vujud nazariyasi ham shu tarzda o'zining badiiy in'ikosini topgan.¹⁹ Bu bilan Navoiy tasavvuf g'oyalarini keng kitobxonlar ommasiga badiiy kurkam va jonli yetkazishda oliy darajada san'atkorlik ko'rsatgan .

Alisher Navoiy butun hayoti davomida o'zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilda ham ijod qilib, barakali meros yaratdi. Uning bu tildagi she'rlari 1490-yillarning o'rtalarida, Eron olimi Yusuf Sheroziy taxminicha, 1495—1500 yillar

¹⁹ O'zbek adabiyoti tarixi. 2-jild. 44-bet

orasida muallif tomonidan devon holiga keltirilgan va «Devoni Foni»²⁰ nomi bilan mashhur. Mazkur devoni 1963 yilda Tehronda, 1965 yilda Toshkentda, 1993 yilda Dushanbada nashr etilgan. O'zbek olimi Sulaymonov tavsifi bo'yicha, «Devoni Foni»da, «Debocha»dan tashqari, 7 qasida, 554 g'azal²¹, 1 musaddas, 1 marsiya, 72 qita, 73 ruboiy, 16 tarix, 373 muammo, 9 lug'z bor. «Devoni Foni»dagi g'azallarning aksariyati mashhur fors shoirlari she'rlariga tatabbulardan iborat. Jumladan Jomiyning 52, Hofiz Sheroziyning 237, Xisrav Dehlaviyning 33, Sa'diy Sheroziyning 25, Mavlono Kotibiyning 5, Shohiy Sabzavoriyning 5, Kamol Xo'jandiyning 4 va boshqa g'azaliga tatabbu bog'langan. Alisher Navoiy fors tilida yozgan original g'azallariga «Muxtara», «Ixtiro» deb sarlavha qo'ygan bo'lib, ularning soni 50 dan ortiq.

Alisher Navoiy o'zining forsiy qasidalaridan alohida to'plamlar ham tuzgan bo'lib, ularning biri «Sittai zaruriya» («Olti zarurat»), ikkinchisi «Fusuli arbaa» («To'rt fasl») deb ataladi.²² «Sittai zaruriya» to'plamiga 6 qasida kiritilgan bo'lib, ularni Xisrav Dehlaviy, Jomiy, Anvari, Haqoniy, Solmon Sovajiy va boshqa qasidanavislar ta'sirida yaratgan. U davrlarda shoirning she'riy mahorati ko'p vaqt qasida yozish bilan belgilanganini hisobga olsak, Alisher Navoiyning ham qasidanavislik salohiyati yuqori bo'lgan. Alisher Navoiyning «Fusuli arbaa» to'plamiga 4 qasidasi kiritilgan bo'lib, ulardan «Bahor» 57 baytdan, «Saraton» 71 baytdan, «Xazon» 33 baytdan, «Day» 70 baytdan iborat. Ularda yilning 4 fasli — bahor, yoz, kuz va qish, bu fasllardan har birining o'ziga xos go'zalligi zavq bilan tasvirlangan va to'rttalovi ham zamon podshohi — Sulton Husayn Boyqaroni podshoh va shaxs, yaxshi do'st va yaxshi inson sifatida vasf etishga bag'ishlangan. Umuman, Alisher Navoiy o'zining forsiy tildagi asarlari bilan zamondoshlarining, birinchi navbatda, Jomiyning yuqori tahsiniga sazovor bo'lgan va fors-tojik adabiyoti, xususan she'riyati rivojiga munosib hissasini qo'sha olgan.

²⁰ O'zbek adabiyoti. 8-sinf (1997, A.Kattabekov, V.Rahmonov)35-bet

²¹ Adabiyot. 8-sinf. 1-qism.S.Olim. S.Ahmedov. Toshkent-2014

²² Natan Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. I-jild.381-bet.

Alisher Navoiyning katta adabiy va tarixiy ahamiyatga ega «Munshaot» asari uning turkiy tilda o'z zamondoshlari — podshohlar va shahzodalar, ilm va adabiyot axllari bilan olib borgan yozishmalari majmuidan iborat.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi Allohga imon keltirgan, Qur'oni karimdagi har bir oyatni muqaddas deb bilgan, naqshbandiya tariqatini qabul qilgan adib va mutafakkirning hayoti va ijodidir. Uning ijodi mohiyatini anglab yetmoq uchun din tarixini yaxshi bilgan, Qur'oni karimni o'qib, ma'nosini anglab yetgan kishi bo'lish kerak.²³ Sho'ro tuzumida esa diniy ilmlarni targ'ib qilish ta'qiqlandi. Shu bois, garchi navoiyshunos olimlar shoir ijodini targ'ib qilish bo'yicha ancha ishlar qilgan bo'lsalar ham, Alisher Navoiy ijodi ko'pchilik kitobxonlar uchun tushunarsiz bo'lib qoldi.

Nashr qilingan asarlari

Alisher Navoiy. Asarlar. 1-4 jildlar, -T.: 1963—1968;
Alisher Navoiy. Xazoyinul-maoniy. -T.: 1959-60;
Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami (20 jildlik), 1-6 jildlar. -T.: 1987—1992;
Alisher Navoiy. Asarlar. 6-10 jildlar, -T.: 1963—1968.
Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami (20 jildlik), 7-12 jildlar, Toshkent, 1991—1996;
Alisher Navoiy. Xamsa (Nashrga tayyorl. R.Shamsiev). -T.: 1960;
Alisher Navoiy. Farhod va Shirin (nashrga tayyorl., nasriy bayon muallifi G'afur G'ulom). — T.: 1956;
Alisher Navoiy. Hayratul-abror. Ilmiy-tanqidiy tekst (nashr. P.Shamsiev). -T.: 1970;

²³ www.ziyouz.com/index

Alisher Navoiy. Lisonut-tayr (nasriy bayon muallifi: Sh.Sharirov). — T.: 1984;
 Alisher Navoiy. Lisonut-tayr. — T.: 1991;
 Alisher Navoiy. Nasoyimul-muhabbat. MAT. 17-jild. -T.: Fan, 2001;
 Alisher Navoiy. Munojot (nashrga tayyorl. S.G'anieva). — T.: Sharq, 1991;
 Alisher Navoiy. Mahbubul-qulub. Asarlar. O'n besh tomlik. T.13. — T.;1967;
 Alisher Navoiy. Xamsatul-mutahayyirin. Asarlar. O'n besh tomlik. T.14. —
 T.;1967;
 Alisher Navoiy. Holoti Sayyid Hasan Ardasher. Asarlar. O'n besh tomlik. T.14.
 — T.;1967;
 Alisher Navoiy. Holoti Pahlavon Muhammad. Asarlar. O'n besh tomlik. T.14.
 — T.;1967;
 Alisher Navoiy. Munshaot. Asarlar. O'n besh tomlik. T.13. — T.:1967
 Alisher Navoiy. Majolisun-nafois. Asarlar. O'n besh tomlik. T.12. -T.: 1966;
 Alisher Navoiy. Muhokamatul-lug'atayn. Asarlar. O'n besh tomlik. T.14. —
 T.:1967;
 Alisher Navoiy. Mezonul-avzon. Asarlar. O'n besh tomlik T.14. — T.:1967;
 Alisher Navoiy. Tarixi muluki Ajam. Asarlar. O'n besh tomlik. T.14. —
 T.:1967;
 Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. Asarlar. O'n besh tomlik. T.15. —
 T.:1968;
 Alisher Navoiy. Vaqfiya. Asarlar. O'n besh tomlik. T.13. -T.: 1967;
 Alisher Navoiy. Devoni Foni. Asarlar. O'n besh tomlik. T.5. 1-2 kitob. —
 T.:1966;
 Alisher Navoiy. Mufradot. Asarlar. O'n besh tomlik. T.15.- T.:1968;²⁴

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, mustaqillik bizga barcha qadriyatlarimiz
 qatori Alisher Navoiy merosini o'rganishning keng ufqlarini ochdi. Endilikda
 uning ijodini aslicha, mohiyatini tushunib o'rganish imkoniyati yuzaga keldi.
 1991 yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi tantanali nishonlandi.
 Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti tasis etildi.

²⁴ www.saviya.uz

Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i barpo etildi va bu bog' o'rtasida shoirning salobatli haykali qad ko'tardi. Shoirning 20 jildli mukammal asarlar to'plami nashr etila boshlandi (2000 yilga qadar 16 jildi chop etildi). Mamlakatimizda Alisher Navoiy xotirasi yuksak darajada e'zozlanadi. Bir viloyat, shahar, oliy o'quv yurti (Samarqand davlat universiteti), Toshkentdagi Davlat kutubxonasi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti, Adabiyot muzeyi, Toshkentdagi Katta akademik opera va balet teatri, San'at saroyi, Toshkentdagi metro bekati, o'nlab ko'chalar va jamoa xo'jaliklari uning nomi bilan atalgan. Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlab haykaltaroshlar, rassomlar va bastakorlar asarlar yaratishgan. Har yili Alisher Navoiy tug'ilgan kun — 9 fevralda ilmiy-an'naviy konferensiya o'tkazilib, Alisher Navoiy merosini o'rganish sohasida qilingan yillik ishlarga yakun yasaladi.

1.2. Navoiy va turkiy adabiyot

Alisher Navoiy — butun turkiy olam, jahon adabiyotida betakror siymo. Uning merosi, shoirning o'z tabiri bilan aytganda musannafoti, fikr-qarashlari barcha kishilar uchun aziz va mo'tabar. Navoiy merosi, ayniqsa, biz uchun qimmatli.

O'tmishdagi buyuk siymolarning taqdirida ajib bir o'xshashlik bor: Dante hayotligida yetisha olmagan shuhratga vafotidan keyin muyassar bo'lish umidida edi. Balzak "Buyuk kishilarning yolg'izligi" haqida nadomat chekib dunyodan o'tdi. Pushkin va Lermontovlarni go'rga tiqmaguncha rus podshohlarining ko'ngli o'rniga tushmadi. Muqimiyning joniga hech kim qasd etmagan bo'lsa ham, beqadrlik alami, xuddi Dantesning o'qidek, shoirning qalbidan qon tirqiratgan edi. Buyuklar orasida Alisher Navoiy omadliroq chiqdi: zamonasi uning qudratli talantini va ulug' xizmatlarini tan oldi. Alisher Navoiy hayotligidayoq xalq ichida, aziz va hukmronlar orasida baobro' bo'ldi. Aqlli, tadbirkor va salohiyatli Husayn Boyqaro unga o'z devonidan eng mo'tabar joy ko'rsatdi, bolalikda u bilan boshlangan do'stlik ipini to umrining oxirigacha uzmaslikka tirishdi.²⁵

Alisher Navoiy o'zbek madaniyati, adabiyoti, tili, ijtimoiy fikri tarixida benihoya katta o'rin tutadi. Uning ijodi turkiy xalqlarning vatanparvarlik harakati kuchaygan bir sharoitda kamol topdi. Navoiy o'zbek adabiyotini namuna adabiyot — klassik adabiyot darajasiga ko'tardi. Uning nomi Sharqning Firdavsiy, Nizomiy, Jomiy kabi ulug' adiblari qatorida turadi. San'atkor o'zbek adabiyotini mana shu daholar yaratgan buyuk adabiyot darajasiga olib chiqdi.²⁶

G'azal mulkining sultonini asosli ravishda turkiy til asoschisi deyishimiz mumkin. U bu tilda ijod qilishni boshlab bergan. Alisher Navoiy davrida turkiy

²⁵ Izzat Sulton. Ikki Maqola. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2009 yil 11-soni

²⁶ Iristoy Qo'chqortoyev. So'z ummonidagi gavharlar. Maqola. 13.05.2018.

shoirlarning ko'pchiligi fors tilida ijod qilar edi. Bu shoirlar o'z ona tilidan ko'ra fors tilida ijod qilishni afzal ko'rishining sababini Navoiy ishonarli dalillar bilan ko'rsatib berdi. Bu sabablardan biri fors tilida yozish odat, an'anaga aylanganligi bo'lsa, ikkinchisi — fors tilining yengilligi, deb xulosa chiqaradi shoir. Fors tilining yengilligi deyilganda uning sayqallanganligi ko'zda tutiladi. Bu til qarshisida ishlov berilmagan, she'rxonlik oqshomlarida qo'llanmaydigan, to'g'rirog'i, juda kam qo'llaniladigan, kundalik so'zlashuv ehtiyojlariga xizmat qiladigan turkiy til shoirlarning ko'ziga, hech shubhasiz, og'ir, she'riyatdek nozik san'atga yaroqsizga o'xshab ko'rinar edi²⁷.

«Muhokamat-ul-lug'atayn» asarida o'zi to'g'risida gapirib, Alisher Navoiy she'r yozishni fors tilida boshlaganini aytadi. Lekin tushunish yoshiga yetib, turkiy til haqida fikr yuritish ehtiyoji tug'ilgach, uning ko'z o'ngida zebu ziynatlari son-sanoqsiz o'n sakkiz ming olamdan ortiq olam namoyon bo'lgani, fazilat va yetuklikda chek-chegarasi bo'lmagan to'qqiz falakdan ortiq falak ko'rgani, dur va gullari yulduzlardan ravshanroq xazina va gulshan uchratgani, ammo bu olamga hech kimning qadami yetmagani va qo'li tegmagani haqida yozadi.

Alisher Navoiy turkiy adabiy tilni (eski o'zbek adabiy tilini) taraqqiy ettirish, uni ko'pchilikka manzur qilish, bu tilni she'riyat dunyosiga tan oldirish qanchalik qiyin va mashaqqatli ish ekanini yaxshi tushundi. Buning uchun o'sha davrda Movarounnahr va Xurosonda hukmron bo'lgan fors tilidagi adabiyotga mazmun va badiiy qiymat tomonlaridan teng adabiyot yaratish zarur edi. Navoiy bu ulug' vazifani to'la-to'kis amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi.

Shuni aytish kerakki, turkiy va forsiy tillarning o'zaro munosabati haqida Navoiy o'zining qator asarlarida fikr yuritdi. Masalan, «Hayrat-ul-abror» dostonida shoir fors eli o'z ona tillarida yozilgan asarlarni o'qishdan xursandligi, turkiylar ham ana shunday boylikdan bahramand bo'lishga loyiq ekanligi, «Layli va Majnun» asarining oxirida bu rivoyatni turkcha hikoya qilganligi,

²⁷ Iristoy Qo'chqortoyev. So'z ummonidagi gavharlar. Maqola. 13.05.2018.

turkiylar orasida xushta'b, sof idrokli odamlar ko'p ekanligi haqida yozadi. «Muhokamat-ul-lug'atayn» asarida turkiy va forsiyning ifoda qudrati bir-biriga qiyoslanadi, Bunday dalillarga qarab Alisher Navoiyni butun umri davomida qiziqtirgan, o'ylashga majbur qilgan lisoniy muammo — turkiy va forsiy tillarning bir-biriga munosabati, turkiy tilning ifoda qudrati forsiy tilning ta'sirchanligidan kam emasligini isbotlashga intilishdan iborat bo'lgan ekan, degan xayolga borish mumkin. Alisher Navoiy asarlari tili bilan, Navoiyning lisoniy qarashlari bilan shug'ullangan olimlarning ko'pchiligi haqiqatan ham shu yo'sinda fikr yuritib, masalani ikki til bahsi bilan cheklashga harakat qildilar. Holbuki, Navoiy davrida Movarounnahr va Xurosondagi lisoniy muammolar doirasi ikki til bahsiga nisbatan beqiyos darajada keng va chuqur edi.

Alisher Navoiy asarlari tilining o'ziga xos qiyofasi va tarixdagi o'rni to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, o'sha davrda hukm surgan til vaziyati va uning Navoiy tiliga ta'siri ham tazyiqi masalasini chetlab o'tib bo'lmaydi. Navoiy zamonida Movarounnahr va Xurosonda bu hodisa g'oyat murakkab bo'lganligini ko'rsatuvchi dalillar ko'p. Ularni Navoiy asarlarida ham uchratamiz. «Muhokamat-ul-lug'atayn»da o'sha davrda keng tarqalgan to'rt til to'g'risida fikr yuritiladi.²⁸ Bulardan birinchisi arab tili bo'lib, shoirning ta'kidlashicha, fasohat oyini (ravonlik, go'zallik tarzi) va balog'at tazyini (yetuklik ziynatlari)da buyuk va hayratomuzdir. Shu bilan bir qatorda, Qur'oni karimning, payg'ambar hadislarining, buyuk avliyo va mashoyixlar o'git-nasihatlarining mana shu tilda yozilganligi ham muhim qadriyat sifatida ayricha ta'kidlanadi.

Bu tilni mana shunday yuksak baholagan va qadrlagan Navoiy o'z asarlarida arabcha so'z va iboralarni ko'plab ishlatavergan va buni tabiiy hol deb bilgan. O'z asarlariga nom qo'yishda ham an'anaga muvofiq arabcha so'z va ifodalardan foydalangan. Bundan anglashiladiki, ijod jarayonida Navoiy hal qilgan lisoniy muammolardan biri — boshqa tillardan so'z olish muammosi —

²⁸ Iristoy Qo'chqortoyev. So'z ummonidagi gavharlar. Maqola. 13.05.2018.

birinchi navbatda arab tiliga aloqador bo'lgan. Bunda, hech shubhasiz, shoirning Qur'on tilini mukammal bilganligi (uning arabcha lug'at tuzganligi ma'lum) katta o'rin tutgan.

«Muhokamat-ul-lug'atayn»da zikr etilgan tillardan uchasi turkiy, forsiy va hindiy til bo'lib, bular ham asl va mo'tabar tillar sifatida tavsiflanadi.

Navoiy zamonida Movarounnahr va Xurosonda forsiyning mavqei baland bo'lgani, turkiyda ijod qilgan adiblar undan andoza olgani uchun, bu tildan turkiyga so'z o'zlashtirishga hech kim monelik qilmagan. Hozirgi tilimiz bilan eski o'zbek adabiy tili orasidagi farqlar ko'p jihatdan Navoiy davrida, undan oldin va undan keyingi asrlarda arab va fors tillaridan olingan so'z va iboralar haddan tashqari ko'payib ketganligi bilan izohlanadi. O'z vaqtida Abulg'ozil Bahodirxon ham bunga e'tibor qilgan edi. «Bizdin burun turkiy tarix aytqanlar, — deb yozgan edi u, — arabiy lafzlarini qo'shub tururlar va forsiyni ham qo'shub tururlar... o'zlarining hunarlarin va ustodliqlarini xalqg'a ma'lum qilmoq uchun. Biz munlarning hech qaysisini qilmaduq aning uchunkim, bu kitobni o'qug'uvchi va tinglag'uchi albatta turk bo'lg'usi turur, bas, turklarga turkona aytmak kerak, to ularning barchasi fahm qilg'aylar bizning aytqan so'zimizni».²⁹

Arab va fors tillaridan olingan so'zlarning ko'payib ketganligiga, ularga taqlidan tuzilgan jumla va iboralarga qarab, hozirgi o'zbek tili eski o'zbek adabiy tilining tadrijiy davomi emas, deb isbotlashga urinishlar bo'ldi. Bunday talqin tarafdorlari hozir ham bor.

Alisher Navoiyning bevosita ishtiroki va madadi bilan klassik til darajasiga ko'tarilgan turkiy adabiy til qator manbalarda chig'atoy tili, O'rta Osiyo turkiysi kabi nomlar bilan atalgani ma'lum. Chingizxonning ikkinchi o'g'lining ismi bo'lgan Chig'atoy istilohi chig'atoyilar sulolasi (1242— 1370) davrida Movarounnahrda yashagan turkiy va turkiylashgan qabila va elatlar

²⁹ Alisher Navoiy. Muhokamatul-lug'atayn. Asarlar. O'n besh tomlik. T.14. — T.:1967

hamda ularning tili, temuriylar davrida yuqori nuqtaga ko'tarilgan turkiy adabiy til va turkiy adabiyot ifodasi sifatida qo'llanadi. Butun bir xalqning ma'naviy xazinasini yakka shaxs nomi bilan atash mumkin emas. Xorijiy turkiyshunoslikda (ba'zan o'zimizda ham) qo'llanib kelayotgan chig'atoy istilohi anglatadigan til bilan bugungi tilimiz ayni bir tilning turli bosqichlarimi yoki boshqa-boshqa narsalarimi — mana shu masala ustida fikr yuritish muhimroqdir.

Temuriylar sulolasining so'nggi yirik vakillaridan bo'lmish Husayn Boyqaro vafotidan keyin Shayboniyxon boshchiligidagi ko'chmanchi o'zbeklar Movarounnahrni, Xurosonni, so'ngra Xorazmni zabt etib, temuriylar hokimiyatiga barham berdi. Olimlarning ta'kidlashicha, yuz bergan tarixiy voqeaning nozik nuqtasi shundaki, nomlari aytilgan joylarda siyosiy hokimiyat, to'g'rirog'i, hokim sulola o'zgardi-yu, lekin madaniy muhit, til, adabiyot, san'at jiddiy o'zgarishga uchramadi.³⁰ Hokimiyat tepasiga kelgan shayboniylar, ko'chmanchi o'zbeklar temuriylar davrida yuksak taraqqiy etgan, chig'atoy nomi bilan atab kelingan lisoniy, adabiy, madaniy an'analarning bevosita vorislari sifatida maydonga chiqdilar. Yangi siyosiy muhit ta'sirida chig'atoy istilohi o'rniga asta-sekin o'zbek istilohi qo'llana boshladi.

Demak, chig'atoy va o'zbek istilohlari bildiradigan lisoniy, adabiy va madaniy an'analari biri ikkinchisini hech qachon rad etgan emas, ular bir yo'nalishdagi, bir ko'rinishdagi an'analarning turlicha nomlaridir. Bu mulohazalar qadimgi tilimizni eski o'zbek adabiy tili degan nom bilan atash har jihatdan to'g'ri va asosli ekanligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tili tarixidagi o'rnini aniqroq tasavvur qilish uchun turkiyshunoslikda ko'pdan buyon davom etib kelayotgan yana bir ilmiy bahsga to'xtab o'tishga to'g'ri keladi. Bu — Navoiy tili, Navoiy davri turkiy adabiy tilining etnik-lisoniy zamini haqidagi ilmiy bahs. Qator olimlar —

³⁰ Iristoy Qo'chqortoyev. So'z ummonidagi gavharlar. Maqola. 13.05.2018.

bular orasida V. V. Radlov, F. YE. Korsh kabi taniqli turkiyshunoslar bor — chig'atoy tilini qoraxoniylar davri kitobiy-adabiy tilining davomi sifatida talqin etdilar. Bu talqinda jon bor, albatta. Lekin Navoiy tilini qoraxoniylar davri tilining davomidangina iborat deyish, haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Bu muammoni adolatli hal qilish uchun Navoiy zamonida Movarounnahr va Xurosonda yashagan turkiy aholining mavqei, ma'rifiy darajasi va tarkibi haqidagi manbalarga murojaat qilish lozim. Navoiy davrida Movarounnahr va Xurosonda turkiy aholining mavqei juda yuqori bo'lganini ko'rsatuvchi dalillar ko'p. Siyosiy hokimiyat turkiylar (temuriylar) qo'lida bo'lganligi ham shundan dalolat beradi. Ikkinchi tomondan, turkiylar yaylov, qishloq va shaharlarda yetakchi, ko'p hollarda asosiy yoki butun aholini tashkil etardi. Bobur o'zining «Boburnoma» asarida Andijon to'g'risida gapirib, uning aholisi turkiylar bo'lganligini aytadi. Andijon «Eli turkdir, — deb yozadi Bobur. — Shahar va bozorisida turki bilmas kishi yo'qtur».³¹

Navoiy davri turkiy adabiy tilining etnik-lisoniy zamini haqidagi masalaning yana bir tomoni bor. Turkiy tilning ifoda qudratini namoyish qilish uchun «Muhokamat-ul-lug'atayn» asarida keltirilgan 100 ta fe'ning bir qanchasi Navoiy asarlari tilida ham, boshqa manbalar-da ham uchramadi. Bu dalil Navoiy xalqning jonli tiliga jiddiy qiziqish va hurmat bilan qaraganidan, xalq tili boyliklarini tinimsiz o'rgangani, to'plagani va ulardan foydalanganidan dalolat beradi. Navoiy tilining etnik-lisoniy zamini haqida gapirganda, adabiy-kitobiy an'ana, turkiy ziyolilar nutqi, shularga o'xshash boshqa omillar bilan bir qatorda shoirni qurshagan turkiy xalq va qabilalar, qavmlar tilini, Navoiy asrida Movarounnahr va Xurosondagi irqiy hamda shevaga xos manzarani e'tibordan soqit qilish mumkin emas.

Bu masala dastlab Navoiy asarlarida tilga olingan. «Muhokamat-ul-lug'atayn»da yetti iqlimning har birida necha mamlakat va viloyat borligi, har qaysi mamlakatda qancha shahar, qasaba (qishloq), kent mavjudligi, bu joylarda,

³¹ «Boburnoma»

dashtlarda, orollarda, daryo sohillarida turli ulus va qabilalar yashashi aytilib, «har jamoat alfozi (nutqi, so'zlari) o'zgaridini va har guruh iborati (iboralari, matni) yonalaridin mutag'ayyir (farqli) va bir necha xususiyat bila mutammayizdurki (ayricha) o'zgalarda yo'qtur»³² deyiladi. Bu o'rinda Alisher Navoiy turli oila tillaridan ko'ra turkiy tillar, turkiy lahja va shevalar to'g'risida gapirayotganini payqash qiyin emas. Navoiyning boshqa asarlarida, xususan «Majolis-ul-nafois»da xorazmiycha turkiy til ifodasi ishlatilgani ham shundan dalolat beradi.

«Muhokamat-ul-lug'atayn» asarida umumiy tarzda zikr etilgan ulus, qabila, jamoat va guruhlarining qaysi qabila, urug', xalqqa mansubligi ochiq ko'rsatilmagan. Lekin Navoiy asarlari tilining etnik-lisoniy tahlili bu masalaga oydinlik kiritishga yordam beradi. Tadqiqotlar ko'rsatdiki, Navoiy asarlarida qorluq unsurlari bilan bir qatorda o'g'iz va qipchoq unsurlari ham sezilarli miqdorda uchraydi. Bu fikr Navoiy siyosiy vaziyatiga ham to'g'ri keladi. Temuriylar davlatlarida qorluqlar bilan bir qatorda o'g'izlarning yetakchi o'rin tutganini, vaqt o'tishi bilan qipchoqlar ta'sirining oshib borganini ko'rsatuvchi dalillar ko'p. Alisher Navoiy dahosining qudrati shunda namoyon bo'ldiki, u mana shu turli til, lahja va shevalarda gapiruvchi turkiy aholi uchun birdan-bir to'g'ri lisoniy yechim topa oldi. Lahjalardan birini tanlab, o'zini boshqa lahja va shevalardan cheklash yo'lidan bormadi. Shoirning o'z ta'biri bilan aytganda, turk nazmida alam tortib (bayroq ko'tarib, yurish qilib) mamlakatni (turk olamini) butunligicha, to'laligicha zabt etishga, yakqalam qilishga (bir xil gapiradigan, bir adabiy tilda so'zlaydigan qilishga) jazm etdi va bunga muvaffaq bo'ldi, shuning uchun ham qator sharqshunos va turkiyshunos olimlar bu adabiy tilni O'rta Osiyo turkiy adabiy tili sifatida talqin etdilar.

Navoiy tilining hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabatini hal qilishda adabiy-lisoniy an'analar, ya'ni yozma manbalar bilan bir qatorda ikki davrning etnik-dialektologik vaziyatlarini bir-biriga qiyoslash katta ahamiyatga ega. Agar

³² Alisher Navoiy. Muhokamatul-lug'atayn. Asarlar. O'n besh tomlik. T.14. — T.:1967

biz Navoiy asarlari tilida kuchli adabiy-kitobiy an'ana, arab va fors tillarining ta'siri bilan bir qatorda qorluq, o'g'iz va qipchoq lahjalarining izlari ochiq-oydin mavjud ekanini, bu lahjalar hozirgi o'zbek tilining tarkibiy qismlari ekanini hisobga olsak, bu xususda ikki xil fikr yuritishga o'rin qolmaydi. Alisher Navoiyning bevosita ishtiroki va homiyligida klassik adabiy til darajasiga ko'tarilgan turkiy adabiy til bilan hozirgi adabiy til ayni bir tilning turli bosqichlaridir. Eski o'zbek adabiy tili, xususan Navoiy tili xalqimiz ijodiy qudratining bebaho mahsulidir. U hozirgi adabiy tilimiz shakllanishida zamin va tayanch manba bo'ldi. Shu bilan bir qator-da, eski o'zbek adabiy tili, jumladan Navoiy tili, bu tilda yozilgan va saqlanib kelayotgan adabiy, tarixiy, ilmiy va boshqa manbalar xalqimiz uchun bitmas-tuganmas ma'naviy xazinadirki, bu xazinadan oladigan ruhiy ozuqamiz bugungi va kelgusi aqliy-ma'naviy hayotimizning to'laqonli va sog'lom kechishiga yordam beradi.

Navoiy 'Muhokamatul-lug'atayn' asarini o'z zamonidagi turkiy lahjalar, ziyolilar nutqi, badiiy va ilmiy asarlarning leksik-grammatik xususiyatlarini forsiy til xususitlari bilan qiyoslashga bag'ishladi. Jonli xalq tilida qo'llanilgan ko'plab so'zlarni asarga kiritib, adabiy tilda qo'llanilishiga sababchi bo'ldi. O'zigacha ishlatilgan so'zlarni yangi ma'no qatlamlarini ochdi. O'zbek tili grammatikasini Mahmud Koshg'ariydan so'ng ilmiy asosga soldi. O'zbek tilining badiiy va estetik imkoniyatlari kengayishiga sababchi bo'ldi. Fors va turk tillarida yaratilgan eng yirik va e'tiborli asarlarga murojaat qildi, shoir va olimlarni til istiqloli uchun kurashga chorladi. Aruz nazariyasiga bag'ishlangan 'Mezonul-avzon'(1492) asarida arab va fors aruzi qoidalarini turkiy tilda aniq va ravon tushuntirdi. Turk yozma va og'zaki she'riyati namunalarining vazn xususiyatlarini o'rgandi.³³ Turkiy aruz tabiatini yoritish bilan birga turk she'riyati murakkab aruz tizimini boyitganini anglatdi.

³³ <https://aim.uz/.../21589-alisher-navoiy-hayoti-va-ijodi.raw>

Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining barcha taraqqiyot bosqichlarida ustoz shoir va xalqning benihoya katta hurmatiga va muhabbatiga sazovor bo'lgan so'z san'atkori hisoblanadi. Keyingi asrlarda qalam tebratgan ahli shuaro uchun Navoiy ijodi eng katta MAHORAT MAKTABI bo'ldi. Ko'plab shoirlar undan ilhom olib, uning ishini davom ettirdilar, rivojlantirdilar. Jumladan shoir Munis bir o'rinda:

So'z ichra Navoiyki jahongir turur,

Munisga maoniy yo'lida pir turur,

deb, uni o'ziga ustoz sifatida tan oladi. O'zbek mumtoz adabiyotida Navoiydan keyin turadigan Ogahiy esa:

Ogahiy, kim topg'ay erdi sozi nazmingdin navo,

Bahra gar yo'qtur Navoiyning navosidin sango,—

deydi. Baytlardan ham ko'rinib turibdiki, Navoiy barcha ijodkorlar uchun eng ulug' siymo, "ustoz avval" hisoblanadi.

1.3. Navoiy ijodini horijda o'rganish

O'zbek xalqining buyuk mutafakkiri va shoiri, davlat arbobi hazrat Alisher Navoiy ijodi o'zigacha bo'lgan asarlardagi so'z san'ati obidalarining hamma yaxshi xususiyatlarini rivojlantirgan, o'zbek adabiyotini yuksaklikka ko'targan bebaxo siymodir. Sharq she'riyatida mavjud deyarli barcha janrlarda o'zbek tilida badiiy yuksak asarlar yaratib, o'zbek tili va adabiyotining boy imkoniyatlarini namoyish etdi, uning jahon so'z san'atidagi maqomini tayin qildi.

Navoiy yaratgan buyuk adabiy meros qadimiy Rim shoiri Horastiy aytganidek, "Qo'l bilan yasab bo'lmas haykal"dir. Agar Dante "Ilohiy Komediya", Petrarka Lauraga bag'ishlangan she'rlar to'plami, Bokachcho "Dekameron", Rable "Gargantuya va Pantagryuel" va Servantes "Don Kixot" romanlari, Shekspir o'lmas pe'salari bilan dunyo adabiyoti xazinasini boyitgan bo'lsalar, Navoiy yaratgan "Chor Devon", "Devoni Foni", "Lison ut-tayr", "Xamsa" besh dostonining har biri shoir nomiga olamshumul shuhrat keltirishga arzigulikdir.³⁴

Alisher Navoiyga qiziqish, uni o'rganish Yevropa va Rossiyada ham xiyla katta tarixga ega. 1832 yili ingliz sharqshunosi Devit "Turkiya tili grammatikasi" asarida Navoiy haqida qisqacha maqola beradi. Fransuz sharqshunosi Katrmer 1841 yilda bosilgan adibning "Muhokamatul lug'atayn" va "Tarixi mulki Ajam"ini e'lon qilgan, I.N Berezin "Turk xrestomatiyasi"da Navoiyning bir necha asarlaridan parchalar bergan. Shu yo'sinda buyuk shoir nomi yevropa mamlakatlarida tanila boradi. 1861-yili Istanbuldagi Fransiya elchixonsida sekretar, tarjimon, keyinchalik bosh konsul bo'lib xizmat qilgan fransuz sharqshunosi M. Belen "Osiyo jurnali"da, "Mir Alisher hayoti" maqolasida shoir hayoti va ijodini yorituvchi keng ma'lumot beradi. Mazkur jurnalning

³⁴ Navoiy ijodini horijda o'rganilishi. A. Xo'jayev

1866 yilgi sonida “Sharq moralistlari” maqolasida Belen Navoiy dunyoqarashi haqida fikr yuritib, “Mahbubul qulub”dan parchalar tarjimasini ham beradi.³⁵

Navoiy tavalludining 507 yilligi munosabati bilan nemis adibi A.Kurella 1948 yili “Farhod va Shirin”dan parchalarni nemis tilida chop ettirdi. 525-yillik yubileyi munosabati bilan doston tarjimasini yakunlab, nemis adabiyoti ixlosmandlari e’tiboriga havola qildi. 1952 yilda Argentinada Lui Orsettining “A.Navoiy” deb nomlangan asari ispan tilida bosilib chiqdi. Unda Movarounnahr tarixi qadim davrdan XV asrgacha bo’lgan davri haqida hikoya qilinib, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Sabb’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” dostonlarining mazmuni beriladi. Bu kitobcha Lotin Amerikasi xalqlarini o’zbek adibi ijodi bilan tanishtiruvchi asosiy manbadir. 1956 yilda Ruminiya poytaxti Buxarestda A.Navoiyning “Tanlangan asarlari” chop etildi. Bolgar shoiri Iordan Milev 1974 yilda “Layli va Majnun” ni qisqartirib tarjima qildi va “O’rta asr she’riyati” to’plamida ulug’ adib she’rlarini chop ettirdi.

Guvohi bo’lganingizdek Navoiyni jiddiy o’rganish jarayoni Yevropada XIX asrdan boshlangan. Bugungi kunda bu jarayon sur’ati yanada tezlashgan. Masalan, 2003 yili Germaniyada “Alisher Navoiy” nomli to’plamdan Navoiy ijodi, uning shaxsiyati va Temuriylar muhiti bo’yicha nemis va ingliz tillarida yozilgan maqolalar, Barbara Kellner Xenkel`, Yurgen Paul, Klaus Shonig, Erika Tauvbe, Klaudya Romer, Mark Kirshner, Zigrid Klaynmixel va Yoaxim Girlishs kabi germaniyalik olimlarning tadqiqotlari o’rin olgan. Mazkur tadqiqotlarda Navoiyning o’z davri madaniy muhitidagi muhim o’rni ko’rsatilgan.³⁶ Xorijlik mutaxassislar Navoiy ijodini u yashagan muhit, xususan, Husayn Boyqaro davri muhiti bilan bog’lab o’rganishadi. Bu davrga ular Sharq Uyg’onishi davri sifatida qarab, adabiyot, tarix, san’at, me’morchilik sohalarining rivojlanishini Navoiy faoliyati bilan bog’liqlikda ko’rishadi. Shoirning hunarmandchilik, arxitektura yodgorliklari, o’sha davrda amalga oshirilgan turli obodonchiliklarga qo’shgan hissasini, ayniqsa, yuqori baholashadi. Ular Navoiyni taraqqiyparvar,

³⁵ Navoiy ijodini horijda o’rganish A. Xo’jayev

³⁶ Navoiy va bugungi avlod. “Jahon adabiyoti” jurnali 2013, №2

ma'rifatparvar, saxovatpesha inson sifatida yaxshi bilishadi. Ularga qiyoslaganimizda, bizdagi navoiyshunoslik shoir asarlari matni tahliliga ko'proq ahamiyat berishi bilan ulardan ajralib turadi.

Yevropada ulug' shoir asarlari haqida ko'pgina ilmiy kitoblar yuzaga kelgan. Bunga Pave de Kurteylning Navoiy asarlaridan foydalanib tuzgan lug'ati, ingliz olimlari Charlz Rio, E. Braun, rus sharqshunoslari I. N. Berezin, M. Nikitskiy, venger H. Vamberi, fransuz Belen, Bloshe, Ahmad Otash, arab Ahmad ibn Ali Damashqiy boshqalarning asarlari misol bo'la oladi.

Navoiy ijodi bo'yicha tadqiqot olib borayotgan olimlardan biri kanadalik olim Mariya Sabtelnidir. U 1979 yilda Garvard universitetida "Husayn Boyqaro saroyidagi adabiy muhit va uning siyosiy xususiyati" degan mavzuda doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan.³⁷ Keyinchalik olim Navoiy ijodi bo'yicha bir qancha maqolalar yozgan. Mana shu maqolalar va Temuriylar davridagi adabiyot va san'atga doir barcha materiallarini to'plab, 2007 yili Niderlandiyada "Temuriylar o'tish davrida" degan kitob chiqargan.

Mariya Sabtelni o'tgan asrning 70-yillaridan Hirot madaniy muhiti va undagi Navoiy o'rni masalalari bilan shug'ullanishni boshlagan. Masalan, olimaning maqolalaridan birida o'n beshinchi asr so'ngida Xirotda urf bo'lgan chiroyli, murakkab va jimjimador qilib she'r yozish san'ati va uning ortidagi jarayonlar haqida gap ketadi. Murakkab uslubda asar yozish shoirlik mahoratini belgilovchi omillardan biri bo'lganligi ko'rsatiladi. Mariya Sabtelni maqolasini o'qigach, Navoiy fors she'riyati bilan bo'ylashish uchun o'sha muhitdagi atrofidagi forsigo'y shoirlardan qolishmasligini isbotlashga, o'zbek she'riyatining imkoniyatlarini isbotlash uchun murakkablikdan mukammalikka intilgan

³⁷ Alimurod TOJIYEV. "Farzandlarga Navoiyni qanday o'rgatish kerak." *"Sog'lom avlod" gazetasi*, 2018-6

bo'lishi tabiiy. Masalan, nemis olimasi Zigrid Klaynmixel Navoiyning turk adabiyotiga ta'siri haqida qisqa, ammo chuqur maqola yozgan.

Navoiy ijodiyotining aynan qaysi nuqtalari usmonli turk she'riyatiga ta'sir etganligini asosli yoritgan. Shu tipdagi tadqiqotlar orqali Navoiyni dunyoga tanitish o'rinli bo'ladi. Turkiyalik adabiyotshunos Yusuf Chetintog'ning "Alisher Navoiyning usmonli turk she'riyatiga ta'siri" nomli 2006 yilda chop etilgan turkcha kitobi o'zbek tiliga ham tarjima qilindi.³⁸ Mazkur kitobda Navoiy g'azallariga turk shoirlari ergashib yozgan g'azallar haqida so'z ketadi.

Afsuski, olimlarimiz xorijdagi Navoiy ijodi bo'yicha qilingan boshqa ko'plab ishlardan bexabar. Bu esa o'z o'rnida olimlikka da'vogarlarini ba'zida dunyo ilmiy jamoatchiligi oldida noqulay ahvolga solyapti. "Jahon adabiyoti" ning o'tgan yil 3-sonida mazkur satrlar muallifining "Amir Umarxon tuhfasini" nomli maqolasi chop etilgandi. Unda Qo'qon xoni tomonidan tuzdirilgan "Muhabbatnoma" she'riy to'plami haqida gap ketgan. Bizda 2011 yili nashr etilgan "Adabiyot ko'zgusi" ilmiy to'plamida O. Jo'raboevning shu "Muhabbatnoma" va uning matniy xususiyatlariga bag'ishlangan "Xazoyin-ul-maoniy"ning bir shohona qo'lyozmasi va uning matniy xususiyatlari" nomli maqolasi chop etildi. Unda muallif "Muhabbatnoma"ning tarkibiga kirgan Navoiy va boshqa shoirlarning devonlari haqida yozib, ungacha hech kim bu ishga qo'l urmaganini ta'kidlagan. Vaholanki, turk Olimi Ogah Sirri Levend bu to'plam tarkibi haqida o'zining "Turkiyadagi Navoiy qo'lyozmalari" maqolasida 1958 yiliyoq yozib bo'lgandi. Dunyo ilmida yozilmagan bir qoida bor: sen mavzuing bo'yicha o'zingdan oldin yozilgan va chop etilgan barcha ishlardan, ular qaysi tilda bo'lishidan qat'i nazar, xabardor bo'lishing kerak. O. Jo'raboev maqolasida "Muhabbatnoma" tarkibi haqida Ogah Sirri Levend aytgan gaplardan kamroq ma'lumot keltirib, Amerikani yangidan "kashf" qilgan. Mana

³⁸ Alimurod TOJIEV. Navoiy va bugungi avlod. Manba: «Jahon adabiyoti» jurnali, 2013 yil, № 2

shunday noqulay holatga tushib qolmaslik uchun dunyodagi Navoiy ijodi bo'yicha qilingan tadqiqotlardan bizlar va aksincha, bizdagi ishlardan xorijlik olimlar ham xabardor bo'lishlari kerak.³⁹ Navoiyni butun olam o'rganishni hoxlaydi. "Milliy adabiyotimiz dahosi Alisher Navoiy ijodini jahon badiiy va ilmiy kontekstida o'rganish payti keldi"(Suvon Meli). Bu ishni esa xorijiy tillarni mukammal biluvchi tarjimon hamda navoiyshunos olimlar ishtirokidagina amalga oshirish mumkin. Hozirgi kundagi muammolardan biri shundaki, Navoiyni yaxshi biluvchi navoiyshunoslar chet tillarini yaxshi bilishmaydi va aksincha chet tillarini yaxshi biladiganlar esa Navoiyni ko'p ham tushunmaydi. Bu muammoni yangi yosh avlod yordamida hal qilishimiz ularga nafaqat chet tillarini o'rgatishimiz, balki navoiy bo'yicha ham chuqur bilim berishimiz kerak. Chunki navoiyni tarjima qilish uchun uning tilini his qiladigan tarjimonlar kerak. Agar hazrat Navoiy "Xamsa"si ham o'tgan asrlarda Homer, Firdavsiy, Rustaveli, Dante, Servantes, Rable, Shekspir, Gyote va Pushkin asarlari singari jahon tillariga xo'b va ko'p tarjima qilinganda edi, bobokalonimiz asarlari ham dunyoga keng yoyilgan bo'larmidi. Yuqorida aytib o'tganimizdek buning uchun tilshunos va navoiyshunoslarning hamkorliklari zarur.

Nemis tili bo'yicha mutaxassis Yo'ldosh Parida bundan ancha yillar oldin Navoiy asarlarini yig'ib, frantsuz va nemis tillariga tarjima qildi. U 2000 yilda "Sharq" nashriyotida kitob holida nashr etildi. O'tgan yillar ichida Murodjon Ergashev degan bir yosh tarjimon ham shoirning o'ttizga yaqin g'azalini frantsuz tiliga tarjima qilib, uni Frantsiyada nashr ettirdi. Qolaversa, yosh shoir A'zam Obid ham Navoiy ruboiylarini ingliz, nemis, frantsuz, polyak tillariga tarjima qilish borasida xayrli ishlar olib boryapti. Frantsiyada nashr qilingan "O'zbek she'riyati antologiyasi"ga ham Navoiy she'rlari kiritilgan. Bu masalada har holda uncha-muncha ishlar qilinyapti. 1990-yillar oxirida frantsuz olimi P'er Shuven Navoiy "Xamsa"sini frantsuz tiliga tarjima qilish masalasini ko'tarib

³⁹ Navoiy va bugungi avlod. "Jahon adabiyoti" jurnali 2013, №2

chiqqandi. Mazkur yo'nalishda ba'zi ishlar ham boshlangandi. Ammo keyinchalik bu tarjima noma'lum sabablarga ko'ra qolib ketdi.

Nemis olimasi Zigrid Kleymihel esa "Navoiy benavo", "Navoiy va Ahmad Posho", "Alisher Navoiy va usmonli shoirlar", shuningdek, "Navoiy ijodida Xizr" va boshqa jiddiy maqolalar yozgan.

Navoiy o'z asarlarida tinchlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, muhabbat, sadoqat g'oyalarini tarannum etgani tufayli uning asarlari boshqa tilda so'zlashuvchi xalqlar adabiyotiga ham kirib bordi va o'sha xalqlar qalbidan ham chuqur joy oldi.

Qardosh MDH mamlakatlarida Navoiy asarlari 17 tilda, 87 marta jami 979 ming nusxada nashr etilishi bunga misol bo'la oladi.

Navoiy asarlari qaysi tilda o'qilmasin u o'z asarlari bilan Angliyada ingliz, Olmoniyada nemis, Farangistonda fransuz, Italiyada italyan, xalqi farzandi bo'lib, o'sha xalq o'sha millat yarasiga malham, dardiga davo bo'ldi va bo'lmoqda.

Chunki u kuylagan, orzu qilgan g'oyalar faqat sharq xalqlarinigina emas, balki butun dunyo xalqlari millatlarining ahvoli, kechmishi, orzusi edi.

Navoiy o'zining asarlaridan barcha xalqlar bahramand bo'lishini orzu qilib shunday munajat qilgan edi:

Xalqqa zebi torak ayla ani,

O'quganga muborak ayla ani,

Yetti aflokni anga yor et,

Yetti iqlimni anga hairdo et.

Uning munajatini ijobat bo'lganiga esa siz-u biz shohidi bo'lib turibmiz.

Demak, birinchi bobda Hazratning hayoti, ularning boy ijodiy meroslari bilan tanishdik. Shuningdek u kishi turkiy adabiyot asoschisi ekanligi, turkiy tilni adabiyot maydoniga kelishiga sababchi bo'lganliklarining guvohi bo'ldik. Bundan tashqari horij adabiyot vakillarining ham ul zotning ijodlariga qiziqishlaribizga faxr tuyg'usini berdi. Darhaqiqat , agar biz Navoiyni butun dunyo tanishini , uni ezozlashini hoxlasak, birinchi galda o'zimiz u kishining ijodlaridan yaxshi xabardor bo'lishimiz, har bir yosh avlodimizga u kishini tanitishimiz kerak. Navoiyxonliklar uyushtirganda ko'r ko'rona nimanidir yodlab rol ijro etayotgan yoshlarni Navoiyni chuqurroq anglashga undashimiz kerak. Agar har bir yosh Navoiydan yodlagan misralarini sharxlab beraolsa, u nazarda tutgan fikrlarni tushuna olsa bu katta yutuq bo'lar edi. Buning uchun esa avvalo adabiyot o'qituvchilari bunga qodir bo'lishlari, o'zaro sharxlash mashqlarini bajarishlari kerak meningcha. O'quvchilarni rag'batlantirish uchun esa ular o'rtasida sinf, maktab, shahar, viloyat miqyoslarida "Navoiy g'azallarining mohir sharxlovchisi" nomli bellashuv uyushtirib ularni olg'a intilishga undashimiz kerak. Natijada beshinchi sinfdan to maktabni bitirguncha Navoiyni yaqindan o'qib uni o'rganib borishlari tabiiy. Albatta bu shunchaki yodlagandan ko'ra samaraliroq. Bundan tashqari bu kechalarda ishtirok etayotgan bolalarning nutqi yana ham ravon va omma oldida nutq so'zlay oladigan bo'lishlari hech gap emas. Bu esa kelajakda yaxshi kasb egallashlari, yaxshi inson bo'lishlari uchun bir turtki bo'lishi turgan gap. Zero, Navoiyni anglash bu o'zlikni anglashdir. O'zligini anglagan insonning esa kelajagi albatta porloqdir. Shuni ham aytib o'tish kerakki, biz haligacha Navoiy shaxsini to'liq o'rgana olganimiz yo'q. Uning hali o'rganilmagan qo'lyozma asarlari bor. Nashr qilingan mukammal asarlar to'plami esa kam miqdorda, u hali bizning chekka viloyatlarimizdagi keng kitobxonlar jamoasiga to'liq yetib kelmagan. Borlari ham sanog'ik.kam bo'lgani uchunmi, kitobxonlarni qo'iga beriganini kuzatmaysiz. Yoki sizning navbatingiz kelguncha kutishingiz kerak. Menimcha har bir o'zbek xonadonida Navoyning barcha asarlari bo'ishi kerak.

II-BOB. NAVOIY G‘AZALLARI VA ULARNI TARJIMA QILISH VA SHARXLASH MUAMMOLARI.

2.1. Navoiy g‘azallarini sharxlash tarixidan

Alisher Navoiyni o‘rganib uning g‘azallarini o‘zbek tilidagi sharx va izohlarini yaratib, ularni soddalashtirib o‘quvchilar uchun osonlashtirib butun ommaga yetkazishga harakat qilayotgan bir qancha Navoiyshunoslar borki, ularni nomma nom sanasak uzundan uzoq ro‘yhat tuzish mumkindir. Darhaqiqat, har qanday adabiyotshunosni Navoiyga qiziqishi kattadir. U hoh yosh bo‘lsin, hoh katta Navoiyni o‘rgangisi, uni yaqindan tanib asarlarini tushunishni xohlaydi. Bilamizki Navoiy tili oson emas.. Shuning uchun ham 4 tomlik Navoiy asarlarining izohli lug‘ati keng foydalaniladi. Ushbu kitoblar Navoiy g‘azallarini sharxlashda keng qo‘llanib kelinmoqda. Uning g‘azallarini o‘zbek tilida izohlamas ekansiz hamma ham tushunavemaydi. Buning ustiga g‘azallarni hamma ham mukammal darajada sharxlayvermaydi. Chunki Navoiyning g‘azallarida ham zohiriy, ham botiniy ma‘no mujassam. Yozuvchilardan biri aytganidek, Navoiyni sharxlaydigan yozuvchi birinchi o‘rinda islom dinidan habardor bo‘lishi kerak. Boisi g‘azallarning botiniy ma‘nosini tushunish uchun, ularni o‘quvchiga yetkazib berish uchun ham bu zarur.

Navoiy lirik merosining asosini g‘azallar tashkil etadi. Yuqorida tilga olganimiz “Xazoyin ul-maoniy”da yigirma ming baytdan ortiq g‘azal bor. Navoiy g‘azallarining g‘oyaviy badiiy jihati haqida gapirishdan oldin g‘azalga xos bir-ikki xususiyat haqida aytib o‘tish lozimday, nazarimizda. G‘azal asli arabcha so‘z bo‘lib, “ayollarga yoqimli munosabat ko‘rsatish, muhabbat izhor etish” kabi ma‘nolarni anglatadi. A. Hayitmetov ta’kidlaganidek, “Garchi Sharq poeziyasida biz satirik, falsafiy, avtobiografik g‘azallarni, tabiat, may haqidagi

gʻazallarni uchratsak ham, lekin gʻazallarning asosiy spesifik mavzusi ishqdir”⁴⁰. Vaqtlar oʻtishi bilan har bir ijodkor oʻz mahorati darajasida uning (yaʼni gʻazalning) mavzu doirasini kengaytirgan. Navoiy kabi daholarning novatorligi hisobiga turkiy tilda yaratilgan gʻazallar rang-baranglashdi.

Atoqli olim Natan Mallayev shunday deydi: “Navoiy haroratli ishqiy gʻazallar bilan birga ijtimoiy-siyosiy temalarda ham gʻazallar bitdi, shayx-zohidlarni, voizlarni fosh qiluvchi hajviy gʻazallar yaratdi, oshiq, raqib va rind obrazlari bilan chegaralanib qolmadi, obrazlar turkumiga mutafakkir va murabbiy obrazlarini kiritdi hamda shohlarni, shayx-zohid va voizlarni kiritdi”⁴¹. Haqiqatan, Navoiy oʻzbek gʻazaliyotini eng yuqori bosqichga olib chiqdi. Navoiyning gʻazaliyoti bilan birga oʻzbek lirikasiga birinchi marta ishqiy tematikadan tashqari, falsafiy didaktik va ijtimoiy muammolar ham muhim mavqeni egalladi. Lirik qahramon esa faqat oshiq sifatida emas, balki falsafiy, ijtimoiy qiyofaga ega boʻlgan mukammal obraz sifatida namoyon boʻladi.

M. Shayxzoda, N. Mallayev, A. Qayumov, A. Hayitmetov, Y. Isʼhoqov kabi olimlar Navoiy gʻazallarini tematik jihatdan toʻliqroq tavsiflashga urinishgan. Oʻz tadqiqotlarini Navoiy ijodiga bagʻishlagan olim Maqsud Shayxzoda qayd etishicha, Eronlik olim Ehsonyor Shotir oʻzining “Sheʼri forsiy dar ahdi Shohruh” (1334 hijriy) nomli kitobida XV asrda yaratilgan forsiy gʻazallarni oʻrganib chiqib, ularni gʻoyaviy-tematik jihatdan oshiqona, orifona va rindona (qalandarona) gʻazallarga boʻladi.⁴² XV asr oʻzbek sheʼriyatini ham koʻzdan kechirsak, bunday tasnif oʻsha davrda yaratilgan gʻazallar uchun ham taalluqlidir. Professor A. Hayitmetov oʻzining “Navoiy lirikasi” kitobida (1960 yil) birinchi marta shoir gʻazallarining toʻliq tematik tavsifini koʻrsatadi. Olimning taʼkidlashicha, Navoiy gʻazallari mavzu jihatdan ishqiy, tasavvufiy, may, satirik, falsafiy, vatanparvarlik va peyzaj kabi turlarga boʻlinadi. Navoiyning lirikasi poetikasini tadqiq qilgan Y. Isʼhoqov “Navoiy poetikasi”

⁴⁰ Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent, 1960

⁴¹ Mallaev N. Oʻzbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 1976

⁴² M. Shayxzoda. Asarlar. IV tom. – Toshkent, 1972

nomli risolasida shunday yozadi: "... tematik jihatdan, shartli ravishda, shunday tavsif etish mumkin: ishqiy, falsafiy, didaktik va ijtimoiy-siyosiy". Aziz Qayumov esa Navoiy gʻazallarini mazmuniga koʻra oshiqona va orifona gʻazallarga ajratadi. Koʻrinib turibdiki, uchala olim ham shoir sheʼrlarining umumiy mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, xulosalar chiqarganlar. Faqat istilohlar nomi oʻzgargan, xolos.

Bundan tashqari, shoir gʻazaliyotidagi gʻoyaviy pafos bilan bogʻliq tasvir prinsiplarining asosiy turlarini kuzatish asosida ularning gʻoyaviy-badiiy xususiyati uchun xos boʻlgan ayrim belgi va koʻrinishlarini aniqlash mumkin. Bu masalada eng avval Navoiyning oʻzi qayd etgan fikrlari xarakterlidir. U "Gʻaroyib us-sigʻar" debochasida shunday deydi: "Andin soʻngra xud xotirga kelmas erdikim, bir gʻazal husn bahri gʻazolalari taʼrifida yo ishq otashkadasi sharoralari tavsifida tugatgaymen, balki bir bayt shoʻxning jamoli dilduroʻzi bobida yo oʻz koʻnglumning dard-u soʻzi sharhida qalam silkiga kivura olgʻaymen yo xayolimgʻa kechura olgʻaymen"⁴³. Y. Isʼhoqov "Navoiy poetikasi" nomli monografiyasida keltirishicha, Navoiy oʻzining "Vaqfiya"ʼsida aytadi: "... Zubdai avqotim va xulosai xayotimni ul hazratning madhi zoti va taʼrifi sifatida sarf qilsam erdi".⁴⁴ Demak, yuqoridagi izohlarda, toʻliq boʻlmasda, shoir gʻazallarining asosiy tiplari haqida ishoralar mavjud. Bular – taʼrif, tavsif, madh, va sharhi holdan iborat.

Navoiy gʻazallarida uning ishq borasidagi qarashlari oʻzining umumiy dunyoqarashi va ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasidan kelib chiqqan holda oʻz aksini topgan. Shuning uchun shoir:

Ishq aro shoh-u gado tengdur, gado balki fuzun,

Gar gadoligʻ aylar oʻlsa ishqning yagʻmosidin, –

deganida aslo adashmagan edi.

⁴³ "Xazoyin ul maoniy" III jild. 2-bet.

⁴⁴ Y. Isʼhoqov "Navoiy poetikasi" 1960

Navoiyning gʻazallari pur maʼnoga ega deb bermalol aytishimiz mumkin. Va bugungi kunda Navoiy gʻazallarining sharxlovchilarining soni ham salmoqli. Bunga misol qilib birgina “Qaro koʻzim” nomli gʻazaliga yuzga yaqin sharxlar yozilganligini keltirishimiz mumkin.

“Qaro koʻzum...” Alisher Navoiyning olimlar, shoirlar tomonidan eng koʻp va xoʻb oʻrganilgan gʻazallaridan biridir. Ushbu gʻazal tahliliga oid Erkin Vohidov, Matyoqub Qoʻshjonov, Alibek Rustamov, Ismatulla Abdullayev, Najmiddin Komilov, Abdulla Aʼzamov, Boyboʻta Doʻstqorayev, Ismoil Bekjonov larning maqolalari eʼlon qilingan.⁴⁵ Gʻazalning oʻquv adabiyotlaridagi tahlillari ham mavjud boʻlib, unda asarning toʻliq matni qamrab olingan. Gʻazalning ayrim baytlari yoki baʼzi xususiyatlarini tahlilga tortgan maqolalar ham bor. Masalan, Ibrohim Haqqulovning “Qaro koʻzum, kelu...” (Bir bayt tahlili) maqolasi shular jumlasidandir. Tahlillar xronologiyasiga nazar salsak, birinchi maqola Ismatulla Abdullayev tomonidan 1975 yil 22 oktyabrda “Toshkent oqshomi” gazetasida “Mashhur gʻazallar tahlili” ruknida chop etilgan. Shu hisobdan kelib chiqsak, “Qaro koʻzum...” gʻazalining badiiy jihatlari oʻrganish 40 yillik tarixga ega.⁴⁶

Gʻazal haqidagi fikrlar rang-barang boʻlib, keyingi davrlardagi tahlillar tasavvufiy talqinlar bilan bogʻliq ravishda bahs-munozara tarzida yuzaga chiqqan. Bu bir gʻazalning mavzusi, mazmuni, obrazlari, lirik qahramoni, muallif dunyoqarashiga oʻnlab olimlarning turlicha nuqtai nazardan yondashuvlari, baʼzan obʼyektiv, baʼzan esa subʼyektiv baho berishlari mahsulidir. Bugun ana shu tahlillarni qiyosiy analiz qilish, umumlashtirish, sintezini yaratish mavridi keldi. Ammo, bu gʻazal tahlili shu bilan yakunlanadi, oxirgi va qatʼiy hukm chiqariladi, degan gap emas. Tahlil natijalarini umumlashtirish fikrlarni oydinlashtiradi, yangicha qarashlarga yoʻl ochadi va tadqiqot keyingi bosqichda davom etaveradi, degan umiddamiz.

⁴⁵ Nusratulla Jumaxoʻja “Sharq yulduzi” jurnali, 2016-3

⁴⁶ Yuqoridagi manbaadan.

“Qaro ko‘zum...” g‘azalining birinchi tahlili 1975 yilda yaratilgan bo‘lsa, o‘n yillik tanaffusdan keyin, 1986 yildan avj nuqtaga ko‘tarilgan. Birin-ketin bir necha jiddiy ilmiy tadqiqotlar maydonga kelgan. Nima sababdan Navoiyning 2700 dan ortiq g‘azali orasidan aynan mazkur g‘azaliga ilmiy-ijodiy jamoatchilik bu qadar alohida va katta e‘tibor qaratgan? Bu juda qiziqarli jumboq. G‘azal yuksak badiiy san‘at darajasida yozilgani, ayni paytda maqom ohanglaridan “Ushshoq” kuyiga solinib, eng mahoratli hofizlar tomonidan o‘ta dardli ijro etilgani uchun keng xalq ommasining mehrini qozongan va shoiru olimlarning diqqat-e‘tiboriga sazovor bo‘lgan. G‘azal tahlillarining qizg‘in tus olishi va yuqori sifat darajasiga ko‘tarilishi erkin ilmiy-ijodiy fikrga keng yo‘l ochilgan, mafkuraviy g‘ovlar olinib, tasavvuf ta‘limotini o‘rganish imkoniyati tug‘ilgan Istiqlol arafasi va Mustaqillik yillariga to‘g‘ri keladi.

Dunyoqarashi, nuqtai nazari, sifat va saviyasi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, “Qaro ko‘zum...” g‘azali tadqiqi yo‘lida yuzaga kelgan har bir tahlil ilm uchun qadrli. O‘ndan ortiq tahlil mualliflari g‘azal mazmuni va badiiyatini yuzaga chiqarishda fikriy jihatdan hamjihat. Biz ushbu tadqiqotda mavjud imkoniyat doirasida g‘azal tahlillari sintezining ayrim qirralari haqida xulosalarni bayon etamiz, xolos.

Avvalo, g‘azalning barcha tahlillarida “Xazoyin ul-maoniy”dagi mukammal 8 baytli matn asos qilib olingan. “Ilk devon”dagi 7 baytli shaklga e‘tibor berilmagan. Hatto, Abdulla A‘zamov bunday fikr bayon etgan: “Xazoyin ul-maoniy” devonlaridagi barcha g‘azallar toq sondagi baytlardan tashkil topgan... Yanglishmasak, birgina “Qaro ko‘zum...” sakkiz bayt. Bu taajjubli holat, albatta. Uni faqat shunday izohlash mumkin: g‘azal ilhomning bir epkini bilan tug‘ilgan va shu holatda qog‘ozga bitilgan; unga turtki bergan hodisa Navoiy uchun aziz xotirota bo‘lgan bo‘lsa kerak, to‘qqiz baytga to‘ldirishni lozim topmagan”⁴⁷. Holbuki, “Satrlar silsilasidagi sehr” nomli kitobda g‘azalning

⁴⁷ A.A‘amov. Nazmning yettinchi osmoni. “Jahon adabiyoti”, 2004 yil, fevral soni. 162-bet.

to'liq matni "Ilk devon"dagi 7 baytli holati bilan qiyosiy tahlil etilgan va asarning ijodiy evolyusiyasi yoritilgan. "Ilk devon"da bo'lmagan, maqtadan oldingi "Firoq tog'ida topilsa tufrog'im, ey charx, Xamir etib yana ul tog'da ko'hkan qilg'il" bayti shoir shuurida kechgan ijodiy ishlov jarayoni mahsuli sifatida "Badoye' ul-bidoya" devonini tartib berish chog'ida Navoiyning o'zi tomonidan kiritilgani aniqlangan edi.⁴⁸

Ikkinchi muammo, g'azaldagi tasvir va ifoda tasavvufiymi yoki dunyoviymi ekanligi bo'lib, bunda deyarli barcha mualliflar majoziy ishq bilan haqiqiy ishq uyg'un tasvirlangan degan nuqtai nazarda yakdil turadilar. Ammo, ayrim olimlar tahlillarida Navoiy faqat ishq ilohiyni kuylagan, Navoiyda dunyoviy muhabbat umuman bo'lmagan, degan nuqtai nazar ham mavjud. Nazarimizda, ushbu masalada Najmiddin Komilovning quyidagi fikrlari mezon bo'lishi lozim: "Navoiy mansub bo'lgan naqshbandiya ta'limoti qanoat va tiyilishni talab etsa-da, biroq dunyo go'zalligidan huzurlanishni ham nazardan soqit etmaydi. Negaki, modomiki real dunyo Mutlaq ruh in'ikosi ekan, demak, uni sevish va undan bahra olish mumkin. Shu asosda insonning insonga muhabbati ham tabiiy va zaruriy deb topilgan, ya'ni majoziy ishq orqali ilohiy ishqqa qarab borish. Navoiy o'zini ana shu "ishqi majoziy" kuychilari sirasiga kiritadi. Darhaqiqat, sof tasavvufiy ma'noda va "ishqi haqiqiy"ni vasf etuvchi asarlar Navoiy ijodida asosiy o'rinni egallamaydi".⁴⁹

Ushbu muammo, "Qaro ko'zum..." g'azalida, Navoiy nazarda tutgan lirik qahramon va boshqa badiiy obrazlar talqinida ham namoyon bo'ladi. Alibek Rustamov "Adiblar odobidan adablar" nomli kitobida chop etilgan "Qora ko'z kim?" sarlavhali sharhida "Navoiyning manzurini yigit emas, qiz deb tushuntirish, inson emas, Xudo deb talqin etish noma'qul", deb hisoblaydi. Uningcha, "Hech kim, jumladan, Navoiy shaklsiz oliy vujudga "qorako'zum"

⁴⁸ N. Jumaxo'ja. Satrlar silsilasidagi sehr. "O'qituvchi", 1996, 17-18 betlar.

⁴⁹ N.Komilov. Ma'nolar olamiga safar. "Tamaddun", T.,2012, 171-bet.

deb murojaat qilmaydi, undan inson qiyofasiga kirishni talab qilmaydi va uning “yuzidagi ter”ni ko‘rib o‘lmaydi”. Navoiyning tasvir ob‘yekti Xudo emas, balki inson degan fikrga qo‘shilish mumkin. Lekin mana bu fikr munozarali: “Endi Navoiyning bu g‘azalidagi manzuri yigitmi, qizmi degan savolga yigit deb javob berishimiz kerak bo‘ladi. Chunki it bilan o‘qdan uning ovchiligi ma‘lum. Uning yigitligini tan olmaslikka harakat qilish Navoiyning ishq ma‘naviy ishq ekanligini hisobga olmaslik natijasidir”⁵⁰. Navoiyning ma‘shuqi obrazi ovchi yigit bo‘lsa, “Sochingni boshdin-oyoq chin ila shikan qilg‘il” misrasini qanday tushunish kerak? Abdulla A‘zamov ham bu talqinga tanqidiy yondashib, Navoiyning manzuri yigit bo‘lsa, nima uchun buni “yigit” radifli g‘azallaridagidek aniq ifodalamagan, deya savol qo‘yadi va quyidagi xulosani bayon etadi: “G‘azalning maqsadi – konkret jinsli va yoshli ma‘shuq emas, umumlashtiruvchi (abstrakt) manzur siymosiga murojaatdan iborat”⁵¹. Alibek Rustamov talqinida “ma‘naviy ishq” tushunchasi “do‘stlik” tushunchasi bilan chalkashtirib yuborilgan. Do‘stlik, piru muridlik, ustoz shogirdlik munosabatlari ishq emas, balki batamom boshqacha tushuncha. Ularni insoniy mehr, ixlos, havas, sadoqat bog‘lab turadi, zinhor ishq-muhabbat emas. Har bir tuyg‘uni o‘z nomi bilan ifodalagan ma‘qul, toki Navoiyning pok va porloq shaxsiyatiga ham, tasavvufiy ishq namoyandalariga ham ma‘naviy zarar yetmasin.

Boybo‘ta Do‘stqorayev “Hurriyat” gazetasining 2009 yil, 22 iyul sonida e‘lon qilgan “Alisher Navoiyning “Qaro ko‘zum”i kim bo‘lgan?” sarlavhali maqolasida “qaro ko‘z”ni “o‘lim farishtasi – Azroil obrazi” deya talqin etadi. Uning sharhida: Navoiy “Azroilni manzura, mahbuba tarzida ifoda etadi... G‘azalning mehvari bo‘lgan fikr ham “o‘lim falsafasi”dir”, degan xulosani bayon etadi. Olim har qancha samimiy, maroqli tahlil yaratmasin, bu fikr ham ishonarli emas.

⁵⁰ A.Rustamov. Adiblar odobidan adablar. “Ma‘naviyat”, 2003, 108-109-betlar.

⁵¹ A.A‘zamov. ko‘rsatilgan manba. 161-bet.

Ayrim tahlillarda Navoiyning g‘azaldagi manzuri komil inson, piri murshid ekanligi g‘oyasi ilgari surilsa ham, shoirning o‘zi kimga ishora qilinayotganini aniq ifodalamaganligi sababli, bu fikr ham mavhum va taxminligicha qoladi. Zotan, bunday tahlil mualliflari ham “komil inson”, “piri murshid” deganda erkak kishini nazarda tutganlar.

Tahlillarda boshqa badiiy obrazlar – ko‘z, it, ot, soch, gulob, boshog‘liq o‘q – atrofida ham qizg‘in munozara kechgan. “Itingga g‘amzada jon rishtasin rasan qilg‘il” misrasidagi “it”ni – “ovchi yigitning iti” deya talqin etishga asos yo‘q. It faqat ovchida bo‘lmaydi. Bu nuqtai nazardan kelib chiqsak, boshqa shoirlarning g‘azallaridagi “it” obrazini ham “ovchi iti” deb tushunishimiz kerakmi? Masalan, Munisning:

Itting ko‘rsam, manga uns aylasun deb,

Berurman gah ko‘ngulni, gah bag‘irni

baytini olaylik. Qaysi asosda uni “ovchi iti” deyish mumkin?

Badiiy adabiyotda to‘qima tushunchasi bor. Biroq, ilm-fanda “ilmiy to‘qima” tushunchasi bo‘lmasa-da, yosh tadqiqotchilardan katta olimlargacha g‘azal tahlillarida “ilmiy to‘qima”ga zo‘r berish holatlarini kuzatish mumkin. Ular g‘azal matnida bo‘lmagan, shoir hatto ishora ham qilmagan obrazlarni o‘ylab topib, to‘qib chiqaradilar va tahlilga bemaolol tatbiq etadilar. Shunday “ilmiy to‘qima”lardan biri “ovchi” bo‘lsa, ikkinchisi “kiprik” obrazidir.⁵² Go‘yoki Navoiy “boshog‘liq o‘q” iborasida yor kiprigini nazarda tutgan. Holbuki,

Navoiy, anjumane shavqi jon aro tuzsang,

⁵² <https://saviya.uz> > Ижод > Адабиётшунослик

baytida “kiprik” obrazi yo‘q. G‘azaldagi so‘z, obraz, iboralarga uzoq-uzoqdan o‘xshash qidirib topadilar va uzundan-uzoq behuda muhokama yuritadilar. Oqibatda, Navoiy asarlarida qayta-qayta tilga oladigan “So‘z uzaldi-yu, maqsad yiroqda qoldi” qabilidagi tahlil paydo bo‘ladi. Jumladan, Ismoil Bekjonovning “O‘z. AS”ning 2012 yil 3 avgust sonida chop etilgan “Boshog – kamon o‘qi” sarlavhali sharhi “Qaro ko‘zum...” g‘azali tahlili bunga misoldir. Olimning so‘zshunos sifatida monand obrazlarni sinchkovlik bilan qidirib topishi va qilni qirq yorgandek tahlil etishi tahsinga sazovor. Biroq u “Qaro ko‘zum...” g‘azali matnidagi obrazlarga tabiiy ravishda tatbiq etilmagan. Chunki Navoiy “jon aro” “boshog‘liq o‘q” deganda yorning kiprigini ham, allaqanday ovchining kamonidagi boshqlik o‘qni ham nazarda tutmagan. Balki oddiygina “jon” so‘zi o‘rtasidagi “boshog‘liq o‘q”ga o‘xshaydigan “alif” harfini nazarda tutgan, xolos. Bu bilan: “bordiyu shavq anjumanini tuzsang, mening jonim-ruhim ana shu anjumaningni yorituvchi, nurafshon etuvchi, anjumanning shavqiga shavq bag‘ishlovchi sham‘i shabiston bo‘lsin”, demoqchi bo‘lgan.

Garchi “Qaro ko‘zum...” g‘azali tahlili 40 yil mobaynida izchil davom etgan bo‘lsa-da, barcha tahlillarni ham g‘azal tadqiqini takomillashtirishga hissa qo‘shdi, deb bo‘lmaydi. Tahlillarda saviya jihatdan faqat yuksalish emas, balki pasayish, orqaga qaytish, mavjud tahlillarni mantiqan takrorlash holatlari ham kuzatiladi. Masalan, Ismatulla Abdullayev g‘azalga 1975 yilda yozgan ilk sharhida “g‘amzada” so‘zini “g‘amza – noz-karashma” ma’nosida talqin etgan. Mazkur satrlar muallifining 1987 yil, 27 fevralda “O‘z. AS”da chop etilgan “G‘azal va tahlil” maqolasida uning sharhi tanqid qilinganidan keyin shu maqolaga yozgan raddiyasida: “Bizning tahlilimizda “g‘amzada – g‘am chekkan, jabrlangan” so‘zi noto‘g‘ri talqin qilingan, buning uchun gazetxonlardan uzr so‘raymiz”, deya xatosini mardlarcha tan olgan. Oradan 20 yil o‘tgandan keyin 2006,2010 yillarda chop etilgan Respublika umumta’lim maktablarining 8-sinf “Adabiyot” darsligida Sultonmurod Olimov mazkur

xatoni yana takrorlagan. Ya'ni, "Qaro ko'zim..." g'azali sharhini bayon etish jarayonida: "Oshiq... itiga g'amza payti jon rishtasidan ip qilishni aytadi"⁵³, deb yozgan. Nahotki, olim "g'amzada" so'zining ma'nosini bilmagan? Nahotki, g'azal tahlilining tarixiy takomilini kuzatmagan va tuzatilgan xatoni ko'rmagan? Axir, bir g'azalga sharh yozayotgan olim o'zidan oldingi shorihlar tajribasini ko'rishi kerak emasmi? Respublika Ta'lim markaziga va matbuotdagi rasmiy-tanqidiy murojaatlardan keyin Sultonmurod Olimov ushbu xatoni darslikning 3-nashrida tuzatdi, lekin "Qaro ko'zim..." va boshqa g'azallar talqinidagi talay kamchiliklar bartaraf etilmay qolgan.

Umuman, g'azal tahlillari asarning mazmun-mundariyasi, badiiy obrazlar tizimi, shoirning san'atkorlik mahorati haqida yaxlit, qamrovli tasavvur hosil qiladi. "Qaro ko'zum..." g'azali to'g'risidagi barcha tahlillarni umumlashtirilganda, 150-bet atrofidagi bir manba vujudga keldi. Biz mazkur g'azal tahlillarini uzoq yillardan beri o'rganib kelarkanmiz, bir g'azal haqida tadqiqot kitobi yaratish mumkinligi haqida o'yladik. "Qaro ko'zum..." g'azali tahlillari tadqiqi timsolida mana shu loyihaning birinchi namunasi amalga oshdi. Ushbu tajriba shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy va boshqa shoirlarning ko'p tahlil va tadqiq etilgan g'azallari to'g'risida ham ana shunday tadqiqot yaratish mumkin va zarur. Chunki bu sohalarda hali yechimi topilmagan muammolar ko'p va tadqiqotlar, albatta, davomiy bo'lishi lozim.

⁵³Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo'chqorov. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T., 2006, 124-bet. Ikkinchi nashri "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bilan hamkorlikda. T., 2010, 90-bet.

2.2. Navoiy g'azallarining ingliz tiliga tarjima qilish muammolari

Hazrat Alisher Navoiyning “Qaro ko’zim” nomli mashhur g’azali L. Kmetyuk tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. Har bir tarjima til imkoniyatlari va mezonlari darajasida amalga oshiriladi. Ma’noni saqlab qolishga urinish ohang, badiiyat, qofiyaning buzilishiga sabab bo’lishi mumkin. Albatta, tarjimonning mumtoz adabiyotimiz durlari sanalmish Navoiy g’azallari tarjimasiga qo’l urishi, ya’ni”Navoiy panjasiga panja urishi” ga intilishi ibratli. Tarjimalarga nazar solsangiz, mutarjim L. Kmetyuk g’azalning umumiy g’oyasini berish maqsadida o’z tilida turli ekvivalentlar qidirganligi va tinimsiz izlanganligini sezasiz. Ammo tarjimon asliyatni o’zi tushunib olishi bilan birga, bu tushunchalarni o’quvchilar ongiga singdirishning yo’lini ham izlashi kerak. Bu jarayon uchun neki talab qilinsa, chorasini ko’rish uning chekiga tushadi. Endi yana bir bor g’azalga nazar tashlasak:

Baytlarning mazmunini teran tushunish badiiy san’atlarni qayta yaratishning asosiy omilidir. Yuqoridagi baytda zohiriy, dunyoviy mohiyatga ko’ra, lirik qahramon visol ilinjida mahbubaga iltijo qilayotir: “Qora ko’zli go’zalim, kelsang-chi, muruvvat va vafo yo’lini, odamiylik rasmini tutsang-chi”. Odamning ko’z qorachig’ida ko’z gavhari joylashgan bo’ladi, ko’z mana shu gavhar vositasidagina borliqni ko’ra oladi. Ana shu tabiat qonunini nazarda tutib, shoir ikkinchi misrada yana iltijo qiladi: “Ko’zimning qorachig’ida gavhar kabi vatan tutsang-chi, toki men ko’zim yorishib, olam go’zalliklaridan bahramand bo’lsam”.

L. Kmetyuk she’riy parchani inglizchaga quyidagicha tarjima qilgan:

Come my dark eyed one come and show your kindness,

Weave a nest for yourself, in the depth of my pupils.

Ko‘rib turganimizdek, ikkinchi misra tarjimasini asliyatni to‘laqonli ochib bera oladi. Ya’ni g‘azaldagi oshyon, istiqomat ma’nolarini anglatuvchi vatan so‘ziga ma’no jihatdan mos ekvivalent nest (“in”) so‘zi qo‘llangan, ya’ni “ko‘zlarimning tubida o‘zingga vatan, in qilib olgin” ma’nosining anglashilishi asliyatga muvofiq tushgan.⁵⁴ Tarjimadagi bu misrani botiniy va zohiriy jihatdan tahlil qilsak, xar ikkala ma’no saqlanib qolganligini ko‘ramiz.

Asliyatda, oshiq go‘zaldan muruvvat va vafo yo‘lini tutishini, odamiylikni odat qilishini so‘raydi (fan qilmoq – odat (kasb) qilmoq).

Har ikkala so‘zning qo‘shiluvidan yuqoridagi ma’no hosil bo‘lgan va bunda dunyoviy jihatdan oshiq o‘z ma’shuqasiga endi uzoq ayriliqdan so‘ng odamgarchilik qilib, vafo qilishni so‘raydi. So‘fiyona talqin etilganda esa – iltijo, jamol orzusi, ya’ni Ollohning lutfu ehsoni tajallisidan umidvorlik. So‘fiy uchun o‘z nigohida, qorachig‘ida ilohiy nur jilvalanishi, olamni shu muborak nur orqali ko‘rish oliy baxt. Ammo tarjimada *fan qilg‘il* undalmasi o‘rniga *show your kindness* (olijanobligini ko‘rsat) buyruq gapi berilgan. Vaholanki, oshiq yor vasliga yeta olmay ginalab, ma’shuqadan insoniy olijanoblik, so‘fiy esa Allohdan vaslidan benasib qilmaslikni so‘raydi. Tarjimada qo‘llangan ekvivalent bunga qarama-qarshi ma’no kasb etgan. Ma’shuqaning olijanob emasligidan iztirob chekayotgan oshiq va Allohning nazaridan chetda qolayotgan so‘fiy tarjimada uchramaydi.

Navoiy baytda Sharq badiiy san’atlaridan tardi aks (qaro ko‘zum va ko‘zum qarosida), tajnis san’atidan (*mardum* va *mardumlig‘*) unumli foydalanadi. Tarjimada shoir foydalangan she’riy san’atlar Sharq she’riyati uchun xarakterli ekanligini hisobga olib, ularning tarjimada uchramasligini tabiiy hol deb baholash mumkin. Ammo baytlar orasidagi qofiyadoshlikning yo‘qligi g‘azal ohangining uslubiy jihatdan buzilishiga olib kelgan. Ushbu

⁵⁴ Shuxrat Sirojiddinov, Gulnoza Odilova. “*Jahon adabiyoti*” jurnali, 2013–4

baytni quyidagicha tarjima qilganda tarjimada adekvatlik yuzaga kelgan bo‘lar edi:

Come my dark eyed one come and learn then kindness

In the depth of my pupils, weave for yourself a nest

2-bayt:

Yuzung guliga ko‘ngil ravzasin yasa gulshan,

Qading niholig‘a jon gulshanin chaman qilg‘il.

Bu baytni navoiyshunos olim Nusratilla Jumaxo‘ja shunday sharhlaydi:

Mazkur baytda tasvir ancha sodda va muayyan, biroq bu bayt ham bir qancha ramziy iboralardan tarkib topgan bo‘lib, ularni sharhlamasdan mazmun-mohiyatini anglab yetish qiyin: 1. *Yuzung guli* – zohiriy ma’nosi – “yor chehrasi”. Botiniy ma’nosi – “Haq jamoli”. 2. *Ko‘ngul ravzasi* – ko‘ngil bog‘i, inson ruhiyat olami. 3. *Qading niholi yorning niholdek* qaddi-qomati, jon so‘zi tarkibidagi (arab yozuvida) *alif* harfi, ilohiy ma’shuq qomati. 4. *Jon gulshani* oshiqning vujudi, bag‘ri, *alif* harfining maskani bo‘lmish *jon* so‘zi – manzurning javlongohi.

Birinchi misra “sening yuzing mening ko‘nglim bog‘ida gul ochsin” ma’nosidagi visol ilinjini ta’kidlab keladi. Shuningdek, bu misrada birinchi baytning mantiqiy davomi ham anglashilib turibdi. Ma’lumki, ko‘z – ko‘ngilning oynasi. Yor jamoliga muyassar bo‘lgan ko‘ngil yorishadi. Ko‘z qorachig‘ida makon qurgan yor jamoli chuqur tomir yozadi, ko‘ngilda aks sado beradi, ko‘ngil bog‘ida ishq chechaklari gullaydi, bo‘stonga aylanadi. Shuning uchun lirik qahramon “Sening alifdek qomating niholi mening joni dilim

bog‘ida yashnasin va yuzing guli bu bog‘ni gulshanga evirsin,” – deya ilinj-iltijo izhor etmoqda⁵⁵.

2-baytdagi 1-misraning inglizcha tarjimasi:

Turn the garden of my heart into a flowerbed, for the blossom that is your face,

Ta’kidlash lozimki, mazkur misra so‘zma-so‘z tarjimada aniq ifoda etilgan. Tarjimon asliyatdagi mazmunni mahorat bilan saqlab qolgan, shu baytdagi ikkinchi misrada arab yozuvigagina xos bo‘lgan harfiy san’at, tashbehi izmor, ya’ni yashirin⁵⁶ tashbeh qo‘llangan. Jon so‘zi uch arabiy harfdan, ya’ni “jim”, “alif”, “nun” dan iborat. Alif harfi jonning ichida (markazida) joylashgan. Bu yerda chamanning ichida ekilgan niholga o‘xshatish mavjud:

Qading niholig‘a jon gulshanin chaman qilg‘il.

Ko‘rinib turibdiki, bunday so‘z o‘yinini inglizchada berish qiyin. Ingliz tili hind-yevropa oilasining german guruhiga mansubligi va yozuvning turkiy imlo qoidalariga mos tushmasligini hisobga olib, ingliz tilida bu san’atning qo‘llanmasligi tarjima xatosi hisoblanmaydi. Shuning uchun bunday hollarda misraning sharhi havolada berilishi maqbul yechimdir. 2-baytning 2-misrasi:

And the rest your slender form so like the sapling in the garden that is my heart

⁵⁵ N. Jumaxo‘ja. Satrlar silsilasidagi sehr. “O‘qituvchi”, 1996, 23-bet

⁵⁶ Tashbihi izmor (yashirin o‘xshatish). Bu xil tashbihda shoirning diqqati boshqa narsaga qaratilgandek tuyuladi-yu, ammo uning asl maqsadi o‘xshatish bo‘ladi. Qarang: Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998, 20-bet.

(So‘zma-so‘z tarjimasi: “Qolgan chiroyingni xuddi ko‘nglim bog‘ida nihol kabi rostlagin”).

Bu misra grammatik jihatdan ham asliyatga muvofiq, baytdagi ikki misra and (va) bog‘lovchisi bilan bog‘langan. Gapning ma’no jihatdan turi – buyruq ohangidagi gap va bu gap tarjimada ham o‘z grammatik shaklini saqlagan. Biz yuqoridagi asliyatda shu misrada tashbih san’ati qo‘llanganligini kuzatdik. Alifning nihol – qadga ishora qilinishi, yorning jon gulshanida qaddini tik tutishi, ya’ni alifdek tik qaddi-qomati bilan turishi ko‘zda tutilgan. Ingliz tilidagi form so‘zining ishlatilishi bu yerda ayni muddaodir.

Tarjimonning form so‘zini qo‘llashi Navoiy ko‘zda tutayotgan “Qaddi qomatni tik tutib, ko‘ngil bog‘ida qo‘nim topish”iga mos tushadi.

3-baytning, 1-misrasi:

Takovaringg‘a bag‘ir qonidin hino bog‘la,

Itingga g‘amzada jon rishtasin rasan qilg‘il.

Takovar, ya’ni tez yurar yo‘rg‘a ot mumtoz she’riyatdagi an’anaviy timsollardan. G‘azallarda ma’shuqa otliq qiyofada chiroyli nazmiy misralarda tasvirlanadi. Seviklining otiga iltifot ko‘rsatish orqali o‘z muhabbati va sadoqatini izhor qilishi barcha mumtoz shoirlarimiz uchun umumiy xususiyat. Masalan, Navoiy lirik qahramoni ma’shuqa ot yeldirib, uning yonidan o‘tib ketishini, hijron balosiga yana muhtalo bo‘lishini istamaydi.⁵⁷ (N. Jumayev sharhi – G.O.). Oshiq o‘zining bag‘ir qoni ot oyog‘iga xino bo‘lishini, g‘amzada joni mahvash yonida yelib yurgan iti bo‘ynida arqon bo‘lishini orzu qiladi. Xino bog‘lash udumi Yevropa uchun mutlaqo yot. Tabiiyki, ingliz o‘quvchisiga

⁵⁷ <https://saviya.uz> > Ижод > Адабиётшунослик

shoirning yorga, otiga “xino bog‘lashi”ni so‘raganda, nimaga ishora qilayotgani tushunarsiz tuyulishi mumkin. Oyog‘iga hino bog‘langan kishining tez yura olmasligi ingliz o‘quvchisiga ma’lum emas. Ammo yor otiga insonga xos udumni bajartirish, oshiqning yurak bag‘ridan olingan qonni yorning otiga xinolikka sadqa qilishdek buyuk hurmat, Sharqona sevgi va ilohiy ishqni o‘zga millat o‘quvchisiga shundayligicha ko‘rsata olish Navoiy g‘azallaridagi beqiyos jiloni yorqinroq anglash imkoniyatini berardi. Milliy koloritga xos xino so‘zi matn ichida transliteratsiya qilinib, ekvivalentsiz leksikani uzatish usullaridan biri hisoblangan izohli tarjimadan foydalanilgan holda, bu so‘zga matn so‘ngida izoh berilishi mumkin edi. Ammo bu bayt quyidagicha tarjima qilingan:

3-bayt 1-misrasining inglizcha tarjimasi:

Splash the hooves your brave steed in me heart’s blood.

Bu tarjimada xino qo‘yish bilan bog‘liq tasvir yo‘q. Unda “yurak qoni”ni yor otiga sachratish so‘ralmoqda. Tarjimon navoiyona mulohazani anglamasa-da, undagi tasvirni berishga ishtiyoqi kuchliligidan otni jayron otga aylantiradi. Darhaqiqat, jayron otning badani qon sachragandek tuyuladi. Xino esa otning oyoq qismini bo‘yash uchun ishlatiladi. Adekvatlikni ta’minlash uchun bunday yo‘ldan bormasdan xino so‘ziga va uning nima sababdan baytda qo‘llanayotganligiga quyidagicha alohida izoh berib o‘tilsa, go‘zal milliy kolorit an‘anasi tarjimada aks etardi va bunda Navoiyning o‘ziga xos uslubi yorqinroq namoyon bo‘lardi:

Bandage a henna under your steeds feet,

And weave a leash for your dog from the tendons of my sad soul, indeed.

She’riy tarjimaning murakkabligi shundaki, ba’zi realiyalarni tarjimon izohda tushuntirishga majbur. Ammo to‘rt qator she’rda beshta izoh keltirilsa, bunday tarjima o‘quvchiga estetik zavq bermasligi mumkin. Garchi she’r

tarjimasida satr osti izohlarning birmuncha kamroq bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘lsa-da, Navoiy g‘azallarini chet tillariga o‘girishda baytlardagi falsafiy ma’no, milliy koloritdagi so‘zlarni o‘quvchiga aniq yetkazish uchun izohli tarjima usuli ma’qul yechim hisoblanadi.⁵⁸

3-baytning 2-misrasi:

Itingga g‘amzada jon rishtasin rasan qilg‘il.

Ma’lumki, it – insonning hamrohi, uning qo‘riqchisidir. Shoir, shu ma’noda, yorning qo‘riqchisi bo‘lishga havas qiladi. Navoiy o‘zini o‘sha it o‘rnida, hech bo‘lmasa bo‘ynidagi arqoni bo‘lishni xohlaydi.

Inglizcha tarjimasi:

And weave a leash for your dog from the tendons of my sad soul.

Bu misralar semantik jihatdan aniq tarjima qilingan. Itga iltifot qilish nafaqat Sharq, balki G‘arbda ham mavjud. *Love me love my dog* ingliz xalq maqoli (“Meni sevsang, itimni ham sev”) da *it* so‘zi ramziy ma’noda qo‘llangan bo‘lib: 1) “yomon odatlarimni ham sev”; 2) “menga tegishli bo‘lgan hamma narsani sev” ma’nosini anglatadi. Ushbu ibora orqali Navoiy g‘azalidagi obraz (ya’ni yorning itiga iltifot) G‘arbda ham sevgan insoniga bo‘lgan hurmat ifodasidir. Bu orqali Sharq va G‘arb lirikasining uyg‘un semantik jihatlari namoyon bo‘ladi.⁵⁹

4-bayt:

Firoq tog‘ida topilsa tuprog‘im, ey charx,

⁵⁸ Shuxrat Sirojiddinov, Gulnoza Odilova. “*Jahon adabiyoti*” jurnali, 2013–4

⁵⁹ <https://saviya.uz> › Ижод › Адабиётшунослик

Xamir etib, yana ul tog‘da ko‘hkan qilg‘il

Ko‘hkan “tog‘ qazuvchi” degan ma’noni anglatadi. Farhod Shirinning yurtiga borib, tog‘ni qazib suv chiqargani uchun ham ko‘hkan laqabini olgan. Shuningdek, “firoq, rashk, hajr, oh ila dard” Farhod nomini anglatadi. Ushbu bayt inglizchaga mohirona o‘girilgan:

Tarjimasi:

O Heaven, if at the foot of the mountain of separation my dust is discovered,

Knead it into the dough and sculpt from it powerful stone mason.

Tarjimada barcha mezonlarga mos adekvatlik mavjud.

5-bayt:

Yuzung visolig‘a yetsun desang ko‘ngillarni,

Sochingni boshtin-ayog‘ chin ila shikan qilg‘il.

“Bir qarashda bu baytda murakkab ibora va timsollar yo‘q”, – deydi ushbu bayt talqinida N. Jumaxo‘ja, – “masalan, yuz dunyoviy ma’shuqa chehrasini, ayni paytda Alloh husn-jamolini anglatadi... Keyin *ko‘ngillar deganda* oshiqlar obrazi tushuniladi... Mutolaada muxlisni chin ila *shikan* so‘zlari ko‘proq o‘ylantiradi. O‘zaro ma’nodosh bu forsiy so‘zlar o‘ram-o‘ram, halqa-halqa, zanjirsimon-silsilaviy, qat-qat, pechu tobli, qarmoqsimon, ilgaksimon sifatlarini ma’shuqa sochlariga nisbatan ifodalayotir... G‘azaldagi ma’shuqa obrazi – benihoya yuksak, ulug‘vor, yetishib bo‘lmas siymo. Oshiq ko‘ngillar esa xokisor va notavon. Oshiq ko‘ngillar bilan ma’shuqa jamoli oralig‘ida soch – poyonsiz

hijron timsoli yotibdi. Shuning uchun lirik qahramon ma'shuqadan madad so'raydi: "Agar oshiqlaringga rahming kelsa, ular visolingdan bahramand bo'lishini istasang, sochingni boshdin-oyoq qarmoq, ilgak va o'ramlar kabi jingalak qil, toki aftoda oshiqlaring shu "chin" ila "shikan"lar vositasida oyog'ingdan boshingga ko'tarilsin, "yuzing visoliga yetsun". "Chin ila shikan" obrazlari orqali Haqning diydorini izlab so'fiylar bosib o'tadigan so'fiylik suluki silsilalari nazarda tutilgan bo'lsa ham ajab emas"⁶⁰. Tarjimada chin ila shikan qilg'il birikmasi orqali "sochni jingalak qilish" ma'nosi berilgan bo'lib, o'quvchida faqat "ma'shuqa sochlarining uzunligi va oshiq ko'ngullarga yaxshi ko'rinish uchun sochni boshdin oyoq jingalak qilish" haqida tasavvur paydo bo'ladi.

Baytning inglizcha tarjimasi:

If you wish to encapture hearts in loving with you,

Curl your long hair into ringlets.

Bu o'rinda ringlet ("jingalak", "gajak") "chin ila shikan qilmoq" birikmasining ma'nosini to'liq ochib bera olmaydi. Asliyatdagi "boshdin-oyoq" so'zlari ham tarjimada uchramaydi. Bu so'zlarning tushib qolishi ma'shuqa sochlariga berilgan sifatning yo'qolishiga olib kelgan. Sochni boshdan-oyoq jingalak qilishdan maqsad ham yorqin ifoda etilmagan. Baytning birinchi misrasi esa asliyatga zid. G'azalda, yuqorida ta'kidlanganidek, yor vasliga yetishishga zor oshiqlar (ya'ni yorning ishqida allaqachon ado bo'lganlar) ning nolasi bayon etilsa, tarjimada yorga uni sevib qolishlarini istasa, sochlarini jingalak qilish maslahat berilmoqda. Bu o'rinda *If you wish to encapture hearts*

⁶⁰ N.Jumaxo'ja. Shu manba.– 28-bet..

in loving with you ni If you wish for your lovers getting meet with your face ga almashtirsa, ma'no adekvatligi yuzaga kelgan bo'lar edi. Shunda bayt inglizchada quyidagi ko'rinish kasb etgan bo'lardi:

If you wish for your lovers to meet with your face,

Curl your hair up to down into rod like chains.

6-bayt:

Xazon sipohig'a, ey bog'bon, emas moni',

Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il.

Oltinchi baytda shoir bog'bon va bog' so'zlarini ramziy – yaratuvchi va borliq ma'nosida qo'llaydi. Mehirsiz ma'shuqa jamoliga yetishish orzusida umri xazonga sovrilishiga ishora qiladi.⁶¹ Bog'bon o'z bog'ini har qanday xavf-xatardan muhofaza qilishi mumkin, ammo yovga qarshi bog' tomiga igna qadab chiqsa ham, tabiat qonuni bo'lmish “xazon lashkari”, ya'ni fano vaqti yaqinlashgach, tashrif buyuruvchi o'limdan asray olmasligini ta'kidlaydi. Bu lirik chekinish orqali shoir, hayotning o'tkinchiligi haqida falsafiy mushohada yuritadi va bayt yettinchi bayt bilan uzviy bog'lanadi. Tarjimada bu bayt ma'nosining butunlay aksini ko'rish mumkin.

Tarjima:

There is little the gardener can do stop the advance of the fall,

Should he even spike the roof of his garden with pine needles.

⁶¹ Shuxrat Sirojiddinov, Gulnoza Odilova. “*Jahon adabiyoti*” jurnali, 2013–4

Ko‘rib turganimizdek, bu asliyatga mutlaqo ters tarjima bo‘lib, ingliz o‘quvchisida g‘alati taassurot qoldirishi aniq. Chunki tarjima keyingi bayt tarjimasi bilan asliyat semantikasi nuqtai nazaridan umuman bog‘lanmaydi. Shoirning nimaga ishora qilayotgani mavhumligicha qolmoqda. Shoirning “yor vasliga yeta olmay umri xazon bo‘lishi mumkinligi” va keyingi 7-baytda aytilganidek, “agar shu yo‘lda vafot etib ketsa, ma’shuqaning yuzidagi ter “gulob” bilan yuvilsa, xazon bo‘lgan umriga afsus chekmasligi, sababi, o‘limdan so‘ng, kech bo‘lsa-da, yor vasliga yetgandek o‘zni his qilishi” haqidagi go‘zal to‘qimalar o‘quvchi uchun tushunarsiz holatga kelib qolgan. Shu bayt quyidagicha tarjima qilinsa, tarjimada badiiy adekvatlikni saqlab qolish mumkin, ya’ni quyidagicha:

No gardener can stop the advance of the fall,

Even he spikes the roof of his garden with pine needles all.

Keyingi bayt yuqoridagi lirik chekinishni davom ettirmoqda.

7-bayt:

Yuzida terni ko‘rib o‘lsam, ey rafiq, meni

Gulob ila yuvu gul bargidin kafan qilg‘il.

Yana N. Jumaxo‘ja talqiniga murojaat etamiz. Baytda shoir tiriklikning omonat va g‘animatligi, o‘limning muqarrarligi haqida o‘y surgan edi. Shunday mahzun kayfiyatdagi lirik qahramonning armoni bitta – ma’shuqa visoli. Birinchi misra mazmuni “yuz” va “ter” obrazlari orqali ifodalangan edi. Ikkinchi misrada bu obrazlarga muvoziy ravishda “gulob” va “gul bargi” obrazlari qo‘llanadi. Gulob ma’shuqa yuzidagi ter timsoli bo‘lsa, gul bargi yuzning ramzi. Oshiq ma’shuqa teridan tayyorlangan gulobda cho‘miltirilish va uning gul

yuziga burkanish uchun o‘limdan so‘nggi visolni orzu qiladi.⁶² Bu murakkab ramziy ifodalarga tarjima jarayonida qisqacha izoh berib o‘tish joiz. Inglizcha tarjimada “ey rafiq”, ya’ni do‘stga murojaat O my friend (“O do‘stim”) undalmasi bilan berilgan. Muallif gapi do‘stga qaratilib tarjima qilingan:

O my friend, should I suddenly die at the sight seeing of perspiration

on *your* face...

Ko‘rib turganimizdek, *your* (sening) egalik olmoshining qo‘llanilishi orqali go‘yo oshiq do‘stining yuzidagi terni ko‘rib, bandalikni bajo keltirishini aytayotgandek ma’no vujudga kelgan. Asliyatda esa shoir yuzida deganda ma’shuqa yuzini nazarda tutgan. Agar tarjimadagi *your* egalik olmoshining o‘rniga *her* – uning (ayol kishi uchun) egalik olmoshi ishlatilsa, tarjima asliyatdagi ayni ma’noni ochib berardi:

O my friend, should I suddenly die seeing perspiration on her face...

7-baytning 2-misrasi inglizcha tarjimasi quyidagicha:

Bath me in rose water and lay me to rest in a shroud made of rose petals.⁶³

Ikkinchi misra semantik jihatdan asliyatga mos, ammo *rose water* va *rose petals* so‘zlariga izoh berilsa, g‘azal ma’nosini aniqroq anglashga xizmat qiladi.

G‘azalning maqta’si quyidagicha:

Navoiy, anjumane shavq jon aro tuzsang,

⁶² N.Jumaxo‘ja. Shu manba.– 28-bet..

⁶³ Suleyman the Magnificent, J.M.Rogers & R.M.Ward page 93-99

Aning boshog'lig' o'qin sham'i anjuman qilg'il.

Bayt mazmun-ma'nosini shunday tushunish va sharhlash mumkin: “Jon” markazida “alif” tursagina, jon bo'ladi. Alif esa Allohning yakkayu yagonaligini bildiruvchi timsoldir. Agar Olloh vasli (Uni anglash) dan zavq olmoqchi bo'lsang, jon (inson va koinot ruhi) markazi va manbasi bo'lgan Ollohni qalbing markaziga qo'y. Baytning zohiriy ma'nosi shunday tasavvurga asoslanadi: Anjumanda sham yoqiladi. Agar sen shavq anjumani tashkil etmoqchi bo'lsang, jonning boshog'li o'qini markazga qo'yib uni sham' sifatida ishlat. Demak jonning o'qi shamdek yonib atrofni yoritish xususiyatiga ega ekan.

Inglizcha tarjimasi:

Navoi, if you can put your heart all into a bouquet of joy,

Pick a sheaf of water of wheat and touching a flame to it let this candle be the revelation of the nosegay.

Ko'rinib turibdiki, ushbu misra ingliz tiliga aniq, semantik jihatdan to'liq tarjima qilingan.

Ko'plab tarjimalarda ko'rinib qoladigan qusurlardan biri – istilohlar, tarixiy nomlar va original matn mansub bo'lgan xalq mentaliteti, qadriyatlariga xos bo'lgan elementlarning tarjima qilmasdan qoldirilishidir. Masalan, *I desire, O Hizr, to make a pilgrimage of the soul to Kaaba*⁶⁴ deb tarjima qilingan misrani o'qigan ingliz kitobxoni o'zining g'arbona dunyoqarashidan kelib chiqib lirik qahramonning qandaydir “Hizr” ga murojaati mohiyatini tushunmaydi. Shuningdek, ba'zi g'azallarda uchraydigan mashhur tarixiy shaxslar, adabiy

⁶⁴ A. “Pearls from Ocean”. Ummondan durlar. G'azallar, hikmatlar va ruboiylardan namunalar. Tarjimalar to'plami / Tuzuvchi Y.Parda. – Toshkent: Sharq, 2000. – 113-bet.

qahramonlarning nomlari notanish bo'lgani bois G'arb kitobxoni ushbu tarjimadan to'liq qoniqmaydi.

Alisher Navoiyning zakovati, iste'dodi favqulodda boy va rang-barang. Shoir tasviriy vositalardan foydalanishda ajoyib namunalar yaratadiki, badiiy mahoratning bu o'ziga xos tomoni Navoiy dahosiga sidqidildan xizmat qilgan va xizmat qilayotgan tarjimonlar oldiga til, uslub va milliy an'analar bilan bog'liq ko'pdan-ko'p muammolarni dadil, mustaqil hal qilish vazifasini ko'ndalang qo'yadi. Alisher Navoiy asarlarining klassik uslubi va ohangini boshqa tilda qayta yaratish uchun o'sha tilning Navoiy zamonasiga parallel davridagi arxaik so'zlar lug'atidan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, Navoiy g'azaliyotini ingliz tiliga o'girishda, unga davriy jihatdan muvofiq keluvchi inglizzabon shoirlar asarlari leksikasidan foydalanilsa yuksak uslub, davr ruhiyati tarjimada yorqinroq ifoda etilishi mumkin. Bunday tajriba "Farhod va Shirin" dostonini rus tiliga tarjima qilishda amaliyotda qo'llangan bo'lib, rus poeziyasi tarixi bisotidan sey, uzret, ochi, vlastelin, vladika, vsevi'shniy, tvorets, nebo (xudo ma'nosida), arxangel, chelo kabi so'zlarning tanlab olinishi va bu ishning natijasi o'laroq asar tarjimasidagi uslub, qadimiylik, shartli arxaika jilosining berilishi va Navoiy davri koloritining tarjimada qayta yaratilishi tajribaning muvaffaqiyatli ekanligidan darak beradi.⁶⁵

Navoiy dahosini xorijiy o'lkalarda targ'ib etish, uning badiiyat olamidagi o'ziga xos dunyosini ko'rsatib berish – davr talabi. Biroq lirik tarjimaning o'zi kifoya qiladimi? Alisher Navoiy badiiyati shu qadar barkamolki, uni anglab yetish yuksak komillikni talab etadi. Ba'zida o'zbek tilida tushunish mushkul bo'lgan Navoiy g'azaliyoti sirlarini chet tilida aniq ifoda etib bo'ladimi? Bu

⁶⁵ Salomov G., Jo'rayev K., Olimov S. Tarjima san'ati. 4-kitob. To'plovchi T.Jo'rayev. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1978. – 134-bet.

savol Navoiy ijodi tadqiqi bilan bog‘liq ko‘pgina sohalar uchun yangi yo‘nalish va vazifalar tizimini belgilab beradi. G‘arbning Alisher Navoiyga mehr qo‘yishi nafaqat tarjimonning kasbiy mahoratiga, balki uning Navoiyni kashf etishga bo‘lgan ulkan fidoiyligiga ham bog‘liqdir. Alisher Navoiy badiiyatini chet tilida aniq aks ettirishning ikki yo‘li mavjud: 1. Ingliz tarjimonida Navoiyni his etish intuitsiyasini shakllantirish lozim. Buning uchun keng tarmoqli ishlarni amalga oshirish (Navoiy asarlarining inglizcha izohli lug‘atlari, Navoiy asarlari obrazlarining genezisi, sharqona she‘riy san‘atlar, ohang va qofiya haqidagi ilmiy adabiyotlarning inglizcha tarjimalarini yaratish, atoqli Navoiyshunoslarning Navoiy g‘azallariga bergan sharhlarini to‘plab tarjima qilish) lozim. 2. Ingliz tarjimonlari navoiyshunoslar bilan hamkorlikda ish yuritishlari zarur. Shundagina Navoiy badiiyatini to‘lig‘icha chet tilida targ‘ib etish mumkin.⁶⁶

Yuqorida ko‘rib o‘tilganlar asosida aytish mumkinki, g‘azalning falsafiy yuki, botiniy va zohiriy ma‘nolari tarjimada aks etmas ekan, tarjimon G‘arb kitobxonini yuksak Sharq falsafasidan bahramand eta olmaydi. G‘azaldagi san‘atlar mohiyati to‘la anglanib, tarjimada qayta yaratishga harakat qilinsa, Navoiy dahosini tushuntirishda samarali qadam bo‘lardi.

⁶⁶ Shuhrat SIROJIDDINOV, Gulnoza ODILOVA, *“Jahon adabiyoti” jurnali, 2013–4*

2.3. Denis Deli Navoiy g'azallari tarjimoni

Navoiydek daho nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyo miqyosida ma'lum va mashxurdir. Ul zotning g'azallari shaydolarini butun dunyodan topish mumkinligi bizni quvontiradi. Yuqorida guvohi bo'lganimizdek birgina g'azallari ustida qanchadan qancha fikrlar bildirilyapti. Yana bir quvonchli xabar shuki, ul zotning g'azallarini bugun butun dunyo miqyosida o'rganib kelinmoqda. Bunga yorqin misol qilib "Lison ut-tayr" asarini ingliz tiliga qilingan tarjimasini keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari bugungi kunda Navoiy g'azallaridan ingliz, rus, nemis va fransuz va boshqa tillarga turli tarjimonlar tomonidan tarjima qilinib kelinishi ham ul zotning asarlari hali ham o'z o'quvchilariga ega ekanligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy ijodiga G'arb dunyosining qiziqishi hamon davom etib kelmoqda. Navoiy ijodining bir qatrasini kashf etgan xorijlik borki, o'z hayratlarini yashira olmaydi. Tezroq Navoiy haqida zamondoshlariga xabar bergisi, uni o'z ona tiliga o'g'irgisi kelaveradi. Navoiy g'azaliyoti bilan yuzlashgan G'arb madaniyati vakillari borki, uni - ijodi yuksak, takrorlanmas shoir ekanini e'tirof etadi. Amerikalik islomshunos olim Barri Xoberman "Saudi Aramco World" jurnalida chop etilgan "Chaucer of Turks"⁶⁷ nomli maqolasida Navoiyni Sharq uyg'onish davri asoschilaridan biri sifatida e'tirof etadi. Germaniyaning Frayye universiteti simpoziumida o'qilgan ma'ruzalar asosida tashkil etilgan "Mir Alisir Nawai" nomli to'plamga kiritilgan Z.Klaynmihelning "Navoiy-benavo" nomli 300 sahifali maqolasida Navoiy ijodidan olgan hayratlarini bir maqola ichiga joylash ilojsiz ishligini etirof etgan. Navoiyning Sabba'i-Sayyor asari asosida italiyalik Maykl Tramezzino tomonidan 1557 yilda

⁶⁷ Chaucer of Turks // Barry Hoberman. www.archive.aramworld.com

yaratilgan va dunyoning bir necha tillariga qayta-qayta tarjima qilingan “Sarandipning uch shahzodasi” asarini tadqiq qilgan amerikalik sharqshunos Richard Boyle bu asarni Yevropa Uygʻonish davrining shoh asari deb ataydi⁶⁸.

Oʻzbekistonga kelib, Alisher Navoiy ijodini oʻrgangan va uning “Lison-ut-tayr” asarini ingliz tiliga tarjima qilgan kanadalik Harri Dik Navoiyga “Dunyoni ma’naviy tanazzuldan qutqara oladigan koʻngil bogʻining bogʻboni”⁶⁹ deya ta’rif beradi.

Soʻnggi yillarda xorijliklar tomonidan Navoiy asarlari birin-ketin tarjima qilinib chop etilmoqda. Bular qatoriga Navoiy gʻazaliyotining polyak tiliga tarjimoni Yanush Kijjovski, ukrain tiliga tarjimoni, shoir Nikolay Bajanning “Farhod va Shirin” dostonining tarjimalarini kiritish mumkin. Biroq, bu buyuk shoir ijodining bir debochasi xolos. Navoiy gʻazallarini ingliz tiliga tarjima qilayotgan jur’atli oʻzbek tarjimonlari safi kengaymoqda, xususan, A’zam Obidov, Qosimboy Ma’murov, Dinara Sultonova, Aida Bumatova shular jumlasidan. Biroq, endilikda qilingan tarjimalar xorijlik muharrir tahriridan oʻtib, toʻplam holida nashr etilishi, eng asosiysi, ular xorijiy davlatlarga targʻib etilishi kerak. Zero, oʻzbek tarjimashunoslari gʻazal asliyatidagi ma’no va badiiyatning tarjimada qayta yaratilgan yoki yoʻqligiga baho berishi mumkin, ammo, tarjima tilining silliq va xorijlik retseptor uchun oʻqishligiga eng odil bahoni xorijiy til egasigina bera oladi. Oʻtgan yili Amerikaning Massachusets shtati, Salem shahrida istiqomat qiluvchi adabiyotshunos, yozuvchi va shoir Denis Deli tomonidan tarjima qilinib, 2016 yilning dekabr oyida AQSh Cervena Barva Press nashriyotida chop etilgan “Twenty one Ghazals by Alisher Navoiy” deb nomlangan kitob sotuvga chiqarildi. Mazkur moʻljazgina toʻplam muallifning beshinchi kitobi boʻlib, koʻplab nufuzli roʻznoma va nashriyotlarda muharrirlik qilib kelgan Denis Deli endilikda ijodkor va tarjimon sifatida badiiy asar va tarjimalar ham nashr ettirmoqda. Toʻplam xorijliklar tomonidan katta

⁶⁸ Richard Boyle. Three princes of Serendip. USA.2000.

⁶⁹ Gary Dick. *Why our world needs poets like Navoiy/ The language of birds/ toʻplovchi va terjimon Aʼzam Obidov.* — Toshkent: Tafakkur, 2012. — 6.B.

qiziqish bilan qarshi olindi. Kitob bugungi kunda amazon va boshqa saytlar orqali xorijliklar hukmiga havola etilgan. Ma'lumki, Alisher Navoiy g'azallarida badiiy tasvir rango-rangligi kuzatiladi. Deli tarjimalarida tag ma'no va ko'p sonli tasvirning ayrimlarini uchratsangiz-da, tarjimalar nihoyatda o'qishli chiqqan, eng muhimi xorijliklar Navoiyni kashf etishmoqda, bu tarjimalar orqali shoir she'riyati ularga ma'qul kelmoqda.

Lolazor ermashki, ohimdin jahong'a tushti o't,

Yo'q shafaqkim, bir qiroqdin osmong'a tushti o't.

Tarjima:

Tulip fields blaze the face of my soul's fire.

Sunsets sear across the sky, touch the earth with fire.

Asliyatda shoir – “Ko'rib turganingiz bu lolazor emas, mening ohimdan jahonga tushgan o'tdir” deydi va g'uluvning yuqori darajasini ishlatadi. Tarjimada “lolazor mening ohimdan yorqinroq bo'lib ketdi” deb g'uluvning ishonish mumkin bo'lgan quyiroq darajasi qo'llangan. Biroq, kitob nashr etilishi bilan internet nashrlarida xorijlik mutaxassislarining taqrizlari birin-ketin bosila boshladi. Ulardan biri, 2017 yil 15 fevralda AQShdagi Somerville times nashrida masachusettslik siyosatshunos Denays Provost xonim tomonidan mazkur kitobga berilgan taqrizdir. Pravost xonim o'z maqolasida yangi nashr etilgan kitobning dizayni undagi illyustratsiyalardan tortib g'azallar jozibasini ham tasvirlashga harakat qiladi. Maqoladan iqtibos keltiraman: “Bu siz uchun bir ochilish bo'ladi. Yangi bir olamni kashf etasiz. Bu kitob javohirlar to'ldirilgan bir qutiga o'xshaydi. Menda bir katta savol tug'ildi bu shoir kim? Nega u haqida oldinroq eshitmadim? Mening yoshimdagi boshqa kishilar singari asosan G'arb dunyosini ko'proq o'qib o'rganganman. Lekin dunyoning boshqa chekkasida yozilgan nodirliklar tarjima orqali bizgacha yetib kelishi mumkin.

Soleman Barksning xizmati o'lararoq 13-asrda Sharqda yashab ijod qilgan Rumiylar she'riyati bizda ham yaxshi o'qildi. Biroq, Navoiy haqida kim eshitgan?" U o'z so'zini davom etar ekan, Navoiyning nafaqat shoir, balki davlat arbobi bo'lgani, o'z tili uchun Choser kabi kurashgani haqida to'liqlanib gapiradi. Turkiyda yozgani uchun G'arbda unchalik tanilmagan Navoiy ijodining nihoyatda go'zalligi, g'azal strukturasidagi musiqiylik va so'fiyona mazmun Petrarka sonetlari misol o'quvchini o'ziga maftun etishini ta'kidlaydi.⁷⁰

Bir so'z bilan aytganda, Alisher Navoiy ijodini tushunganicha tarjima qilib, o'z zamondoshlariga havola etayotgan xorijlik tarjimonlar g'azallar ortiga yashiringan so'z o'yinlarining o'ndan birini kashf etolmagan bo'lsalar-da, bu tarjimalar o'qiganlarni hayratga solmoqda. Navoiy she'riyati tarjimasi sohasida chinakam muvaffaqiyat navoiyshunos olim va xorijlik tarjimon hamkorligi yo'lga qo'yilgan loyihalarda ko'rinadi. Alisher Navoiy g'azaliyotidan bir guldastaning xorijda sevib o'qilayotgani, shoir asarlarini tarjima qilishi xalqimiz uchun ham bir tuhfa bo'ldi.⁷¹

Albatta, Navoiy asarlarini ingliz tiliga yanada ko'proq tarjima qilish uchun menga ingliz va o'zbek tilini puxta biladigan hamkorlar kerak. O'zbek olimlari va adabiyotshunoslari bilan hamkorlik qilish niyatidaman. Chunki Garvardda ilmiy tadqiqot olib borgan kezarimda universitet kutubxonasida Navoiyning turk tilidagi tarjimasini ko'rganman. Hali o'rganilgani yo'q. Navoiydek ulug' ijodkorni g'arbliklarga ko'proq tanishtirish uchun esa mening kichik tarjima kitobim dengizdan bir tomchi, xolos. Odamlar uni ko'proq o'qishsa deymen. Navoiy haqida ko'proq bilishlarini istayman. Buning eng asosiy sababi, G'arb dunyosining umuminsoniy g'oyalar, falsafa va ishq,

⁷⁰ Dennis provost/ Twenty one Ghazals(of) Alisher Navoiy translated from Uzbek by Dennis Daly/www.thesommervilletimes.com

⁷¹ <https://kun.uz/uz/71340468>

asliyatga intilish, so'fizm, naqshbandiya g'oyalarini o'z she'riyatida aks ettira olgan Alisher Navoiydek shoirlar ijodini o'qishga ehtiyoji katta.⁷²

Fortune's wheel halts heavily before your dark eyes:

My soul suspended in the absence of those eyes.
Life-promising potions concocted into poison
Bringing me nearer to death, unveil your dark eyes.
A world of suitors entranced as you at your loom weave
A dream of self. They love you, your ravishing eyes
That once held me close in their wondrous draw
Now alien beyond my borderland. Your eyes
Burn into mine until brimmed with salt-spiked tears
Which flow, unburdened, into the channels of your eyes.
My very soul solidifies what once was vapor
And vapor becomes friend—your body, your dark eyes.
When Navoiy wrote his poems of yearning love,
Lovers heard him, his songs of dark, infinite eyes.⁷³

Lost in my love's absence, I feel her in my heart:
Her teasing words touch the pulse of my lonely heart.
My eyes redden and blur forever the outside world.
The pain of loss does not recede from a helpless heart.
A nightingale, I swooped from flower to flower;
Now your tresses have snared me, held me to your heart.

In the center of this garden, a lovely cypress,
Long-limbed haven, found in flight by trembling bird-heart.
Breathless, I search in vain for love's lost tokens,
Remember Farhad and Majnun, death's secrets in one heart.
Those who suffer, lovers all, are no different,
Unseen her melody touches those of a same heart.

Navoiy, why do you complain of meetings and partings?
Give thanks for those long moments that still fill your heart.⁷⁴

⁷² Xalq so'zi gazetasidan.

⁷³ 21 ghazels of Alisher Navoiy translated from the Uzbek by Denis Daly. Carvena Barva press, Somerville, MA, (2016).

⁷⁴ 21 ghazels of Alisher Navoiy translated from the Uzbek by Denis Daly. Carvena Barva press, Somerville, MA, (2016).

Bobga yakun yasari ekanman, xulosa o'rnida bir narsani takidlamochiman. E'tibor bergan bo'lsangiz yuqorida L. Kmetyuk tarjimasiga guvoh bo'ldik. Garchi uning bu tarjimasi muvaffaqiyatli chiqqan bo'lsada, janob Delining tarjimalari o'zgacha yangraydi. Buning sababi janob Deli g'azal mazmunini tushunib o'zining qobiliyatidan foydalanib uni ingliz tilida sodda tarzda shoirona talqin qilgan. Shuning uchun ham uning tili tushunarli, o'qigan oddiy kitobxonga ham qiziqarli. Boshqa tarjimonlarning ham ihlari taqsiqa sazovor albatta. Ulardagi bir kamchilik meningcha, ko'proq so'zma so'z tarjima qilishga urinishlari. Natijada zohiriy ma'no ko'rinadiyu, lekin botiniy ma'no g'oyib bo'ladi. Albatta har ikkisini ifoda etish oson emas, chunki shakl degan narsa ham bor. Meningcha asosiy narsa ma'no.-mazmun. Shoirning fikri muhim. Negadir janob Delida hammasi joyidadek tuyulmoqda. Odil hukmni albatta siz-u, biz singari kitobxonlardan kutib qolamiz.

III-BOB. ALISHER NAVOIY G'AZALLARINING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI SHARX VA IZOHLARINI YARATISH MASALALARI.

3.1. “G’aroyib us-sig’ar” devoni talqini

Alisher Navoiyning adabiy va ilmiy merosini 4 faslga bo'lish mumkin: 1. Devonlari. 2. Dostonlari. 3. Forsiy tildagi she'riy merosi. 4. Ilmiy-filologik, nasriy va tarixiy asarlari.

Alisher Navoiyning o'zbek tilida yaratgan she'riy merosi asosan «Xazoyin ul-maoniy» devoniga jamlangan. Asar 4 qismdan iborat. Devonning birinchi qismiga «G’aroyib us-sig’ar» («Bolalik g’aroyibotlari»), ikkinchi qismiga «Navodir ush-shabob» («Yigitlik nodirotlari»), uchinchi qismiga «Badoe’ ul-vasat» («O’rta yosh badialari») va nihoyat, to’rtinchi qismiga «Favoyid ul-kibor» («Keksalik foydalari») degan nomlar berildi⁷⁵. «Xazoyin ul-maoniy» inson bolasining murakkab va yuksak tafakkuri hamda behisob his-tuyg’ulari bilan bog’liq minglarcha she’r va o’nlarcha she’r turlarini o’z ichiga olgan majmua bo’lib, Sharq adabiyoti tarixida noyob hodisadir. Bu xil majmua Alisher Navoiyga qadar Amir Xisrav Dehlaviy tomonidangina tuzilgan. Ushbu devonga kirgan minglarcha she’rlarni Alisher Navoiy butun umri davomida turli sharoitlarda, har xil sabablar bilan yozgan bo’lib, ular shoir hayoti va u yashagan davr bilan sonsiz-sanoqsiz iplar orqali bog’langan. Alisher Navoiy «Xazoyin ul-maoniy» ga qadar «Ilk devon», «Badoe’ ul-bidoya», «Navodir un-nihoya» devonlarini tuzgan. «Xazoyin ul-maoniy» ana shu 3 devonga kirgan hamda

⁷⁵ O'zbek adabiyoti. 8-sinf.(1997. A. Kattabekov, V. Rahmonov) 35-bet.

«Navodir ul-nihoya» tuzilgandan keyin yozilgan she'rlar asosida yuzaga kelgan.⁷⁶

Alisher Navoiyda keksalik chog'larida barcha she'rlarini yig'ib, xronologik tartibda 4 devon tuzish g'oyasi bo'lgan. Biroq «Xazoyin ul-maoniy»ni tuzishda muharrirlik vazifasini bajargan Husayn Boyqaro bu g'oyani qo'llab-quvvatlamagan ko'rinadi. Uning «G'aroyib us-sig'ar» devoni bolalik mashqlaridan, «Navodir ush-shabob» yigitlik she'rlaridangina iborat bo'lmay, bu boshlang'ich devonlarda shoirning keyingi davr she'riy mo'jizalaridan ham namunalar borki, Husayn Boyqaro shuni ma'qul ko'rgan. Shu sababdan «Xazoyin ul-maoniy» tarkibidagi 4 devon nomining mazmunini shartli ma'noda tushunish, bunda she'rlar ko'p holda aralash holda joylashtirilganini nazardan qochirmaslik zarur.

Xamid Sulaymon “Xazoyin ul-maoniy”dagi she'rlarning nisbiy xronologiyasini tuzib quyidagi jadvalni havola qiladi.⁷⁷

“Xazoyin ul-maoniy” devonlari	O'smirlik she'rlari	Yigitlik she'rlari	O'rta yoshlik she'rlari	Keksalik she'rlari	To'rt devonda
I. G'aroyib us-sig'ar	156	499	27	158	840
II. “Navodir ush-shabob”	-	166	237	356	759
III. “Badoyi ul-vasat”	132	75	106	427	740
IV. “Favoyid ul-kibar”	146	115	87	445	793
Jami....	434	855	457	1386	3132

1-jadval.

«Xazoyin ul-maoniy»dagi 4 devonning har birida 650 tadan 2600 g'azal, umuman 4 devonda 210 qit'a, 133 ruboiy, 86 fard, 52 muammo, 13 tuyuq, 10 muxammas, 10 chiston, 5 musaddas, 4 tarje'band, 4 mustazod, 1 musamman, 1

⁷⁶ .www.ziyounet.uz

⁷⁷ Natan Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. I-kitob.385-bet.

tarkibband, 1 qasida, 1 masnaviy, 1 soqiynoma mavjud bo'lib, Sharq she'riyatining 16 turi namoyondir.

Alisher Navoiy lirik merosining mukammal nashri ilk bor 1959-1960 yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasining A. S. Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti tomonidan tayyorlangan va O'zbekiston FA nashriyoti tomonidan amalga oshirilgan edi. "Xazoyin ul-maoniy" devonlari nashrini O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Beruniy mukofoti laureati, filologiya fanlari doktori, professor Hamid Sulaymon tayyorlagan edi. 1956-1960 yillarda tayyorlangan ilmiy-tanqidiy tekst va transliteratsiya asosan sobiq Ittifoqdagi fondlarda saqlanayotgan qo'lyozmalar (Leningraddagi Saltikov-Shchedrin nomli Davlat xalq kutubxonasi, inv. Xanikov-55, 904-1498-1499 y., Toshkent, O'zbekiston FA ShI, inv, № 677, XVI asr va Leningrad, DXK, inv. Dorn-558, 1001-1004-1592-1596 y.) va boshqa nusxalar asosida tuzilgan edi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat adabiyot muzeyi, O'zbekiston FA Qo'lyozmalar institutining direktori, professor Hamid Sulaymonning faoliyati bilan keyinchalik Alisher Navoiyning mo'tabar ikki kulliyotining fotonusxasi qo'lga kiritildi. Bular Alisher Navoiy kulliyotining Istanbulda, To'pqopi saroyi fondida (inv. № 808) saqlanayotgan nusxasi, 901-902-1495-1497 yillari xattot Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan Hirotda ko'chirilgan hamda Parij Milliy kutubxonasida (inv. № 316—317) saqlanayotgan, 930—933-1525—1527 yillarda kotib Ali Hijroniy tomonidan Hirotda ko'chirilgan ikki jildlik kulliyot fotonusxalaridir. Har ikkala kulliyot kompozitsiya va mundarija jihatidan birbiriga yaqin.

Shundan so'ng "Xazoyin ul-maoniy" ilmiy-tanqidiy tekstini professor Hamid Sulaymon Leningrad, Dushanba, Istanbul, Parij qo'lyozma nusxalari asosida qayta tuzib chiqdi. Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoniy"sining ushbu to'liq nashrini o'sha ilmiy-tanqidiy tekst hamda avvalgi nashr va yuqorida zikr etilgan to'rt qo'lyozmaga muqoyasa qilib chiqildi va bosmaga tayyorlandi.

Birinchi nashrda turli sabablarga binoan yo‘l qo‘yilgan ayrim nuqsonlar shu ish jarayonida imkon boricha bartaraf etildi.

Mazkur nashrning I va II tomlaridagi asarlar keyinchalik shoir tomonidan “Xazoyin ul-maoniy”ga kiritilgan. Shuning uchun ayrim she’rlarda shoir tomonidan qilingan tuzatish va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” asari O‘zbekiston “Fan” nashriyoti tomonidan chop etilmoqda bo‘lgan 20 jildlik shoir asarlarining to‘liq nashrida III (“G‘aroyib us-sig‘ar”), IV (“Navodir ush-shabob”), V (“Badoyi’ ul-vasat”), VI (“Favoyid ul-kibar”) jildlarni tashkil etadi.

“Xazoyin ul-maoniy”ga kirgan devonlarning qayta ko‘rilgan va to‘ldirilgan mazkur nashrini filologiya fanlari kandidati F. Q. Sulaymonova rahbarligi ostida filologiya fanlari kandidatlar M. Sh. Hamidova, Sh. U. Sharipov, L. N. Serikova va ilmiy xodimlar M. Inog‘omxo‘jayeva, M. Bahodirova, M. Xayrullayevalar amalga oshirdilar.

Ingliz zabon o‘quvchilarga “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi dostonlarning falsafiy ma’nosini tushuntirib berish uchun izoh va sharxlarni tarjima qilish ularni so‘zma so‘z taglama tarjimasidan farqli tomonlari bor albatta. Chunki so‘zma so‘z tarjima g‘azalni mukammal tushunishga yordam beradi. Sharx va izohlarining tarjimasi esa uning falsafiy ma’nosini anglashga yordam beradi. Bir fransuz shoiri Navoiyni bilish uchun, tushunish uchun Navoiy zamonida yashash kerak deb aytgan edi. Darhaqiqat anashu izoh va sharxlar orqaligina oddiy o‘quvchi Navoiyni tushuna olishi mumkin. Bugungi kunda bu yangi g‘oya keng ommaning qiziqishiga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, shu yilning 4 iyun kuni Yozuvchilar uyushmasida Navoiy va Bobur asarlarining taglama tarjimasiga bag‘ishlangan konfrensiya bo‘lib o‘tdi. Bundan tashqari Navoiy g‘azallarining inglizcha tarjima qilish hamda bu tarjima qilingan asarlarni keng ommaga yetkazish bo‘yicha Namangan Davlat Universiteti Ingliz tili va Adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Botir Jafarov va

Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti Mumtoz Filologiya kafedrası professori Boqijon To'xliyevlar tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan 2019 yil 8 iyun kuni "Mahalla" radiosidan efirga uzatilgan Navoiy g'azallarining tarjiması hususida nomli eshittirishda bevosita bugungi kungacha tarjima qilingan 150 ta g'azal va ulardan "Bayoz" nashriyoti tomonidan nashr qilingan 30 g'azal haqida radio eshittirish efirga uzatildi.

3.2. Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" asarini o'zbek tilida sharx va tarjimalarini yaratish muammolari.

Navoiyni tushunish uchun Navoiy zamonida yashash kerak deb bejiz aytishmagan. U foydalangan til eski turkiy til bo'lib, u bugungi kungacha sayqallanib zamonaviy ko'rinishga kelgan. Bu hodisa barcha tillarga xos aslida. Inglizlar ham Shekspirning asarlarida qadimiy ingliz tilidagi so'zlarni topishlari shubxasizdir. Chunki vaqt o'tgani sari, avlodlar almashgani sari til ham yangilanib sayqallanib borishi turgan gap. Shuning uchun ham Navoiy asarlaridagi bazi so'zlar biz uchun unchalik tushunarli emas. Bundan tashqari o'zbek tili shunchalar boy tilki, Hazrat Navoiy uning bu boyligidan juda mohirona va oqilona foydalangan. Bir so'zning bir necha ma'nolari bo'lib, uning qaysi ma'noda qo'llaganini oddiy o'quvchi tushuna olmasligi turgan gap. Mana shu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida ko'plab Navoiyshunoslarimiz Navoiy asarlariga izoh va sharxlar yozishgan. Bitta g'azal bir necha martalab sharxlanganini yuqoridagi "Qaro ko'zim..." nomli g'azali misolida ko'rdik. Qiziqarli tomoni g'azalni har safar yangi ma'nolari ochib berilgan. To'g'ri ba'zi sharxlovchilarimiz yodingizda bo'lsa g'amzada so'zining g'azalga mos kel maydigan ma'nosidan ham foydalanishdi. Buning sababi esa Navoiyning o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan keng foydalanganidir. Agar Navoiy shaxsi haqida

yaxshi ma'lumotga ega bo'lmasangiz u nimani nazarda tutganini bilmasdan mana shunday xatolarga ham qo'l urish mumkin. Shuning uchun ham dissertatsiyamiz Navoiy g'azallarining nafaqat ingliz balki, o'zbek tilidagi sharx va izoxlarini yaratish masalalariga ham bag'ishlangan. Chunki agar sharxda noto'g'ri g'oya ketib qolsa, u tarjimada ham o'z aksini topadi. Endi esa ana shunday ko'p ma'noli so'zlarni qay tarzda izohlanganini "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi g'azallarga bitilgan sharxlar orqali tahlil qilsak. Ushbu devondagi g'azallar ko'plab Navoiyshunoslar tomonidan sharxlangan. Jumladan, Boqijon To'xliyev 401, 598 g'azallarni, Dilorom Salohiy 4, 5, 6, 7, 10, 146, 183, 242 g'azallarni, Olimjon Davlatov 131, 132, 135, 137 g'azalarni, Dilnavoz Yusupova 23, 114, 115, 118, 121, 126, 221, 315, 317, 441 raqamli g'azallarni, Zuhra Mamadaliyeva 11, 12, 13, 110, 111, 112, 116, 117, 228, 393, 400, 401, 402, 404, 405, 406, 407, 408, 409, 410, 411 va boshqa g'azallarning nasriy bayoni bilan birgalikda izoh va sharxlar bitishgan. Ushbu kitob Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti professori Boqijon To'xliyev, Difuza To'xliyevalar tomonidan nashrga tayyorlanib 2018 yilda "Bayoz" nashriyoti tomonidan nashr qilindi. Ilmiy tadqiqot ishimizda aynan shu kitobdagi izoh va sharhlardan foydalaniladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, ko'pchilik eski o'zbek tilidagi so'zlar bizga notanish bo'lishi bilan birgalikda, juda ko'p ma'nolarga ham ega. Yuqorida nomini tilga olgan kitobimizda bu so'zlarning ma'nolari nechog'lik to'g'ri izohlanganligi va Navoiy Hazratlarining muddaolarini qay darajada yoritilganini, hamda oddiy o'zbek o'quvchisi uchun tushunarliklik holatlarini tahlil qilamiz. Dastlab Dilnavoz Yusupova sharhlagan 23 raqamli g'azaldan boshlaymiz. Ushbu g'azalda bizga notanish bo'lgan mug' so'zi ishlatilgan. Bu so'z turgan gapki ko'pchilikka noma'lum. Ushbu so'zga "Navoiy asarlarining izohli lug'ati"da *majusiy, otashparast, o'tga sig'inuvchi*⁷⁸ va *mayfurush, may sotuvchi*⁷⁹ deya ta'rif berilgan. Dilnavoz Yusupova tomonidan amalga oshirilgan

⁷⁸ Navoiy asarlarining izohli lug'ati. 2-jild. Toshkent. 1983. 406 bet.

⁷⁹ Yuqoridagi asardan. 407-bet.

ushbu sharhda Alisher Navoiy mana shu soʻzning otashparast maʼnosida ishlatgani ochib berilmoqda.

Yaʼni:

Ofiyat jonimgʻa yeti, ey hush ul *mugʻ*kim, meni

Bir qadah birla harobot ichra rasvo aylasa.⁸⁰

Agar u *otashparast ruxoniy* bir qadah bilan meni vayrona ichra rasvo qilsa, jonim orom topgan boʻlar edi.⁸¹

Alisher Navoiy otashparast soʻzi orqali aslida orif insonni nazarda tutmoqda. Chunki otashparast soʻzi mumtoz adabiyotda orif insonni nazarda tutadi. Demakki bu yerda uning mayfurush maʼnosi toʻgʻri kelmaydi. Dilnavoz Yusupova buni toʻgʻri anglagan.

Keyingi soʻzimiz ham yuqoridagi 23-gʻazaldan **navmid** soʻzidir. Bu soʻz “Navoiy asarlarining izohli lugʻati” da quyidagi maʼnolarda izohlangan. **Masalan: Navmid-1)noumid, umidsiz; 2)maʼyus;**⁸²

Bu ikki soʻz bir- biridan tamomila boshqacha tushunchaga ega. Yaʼni noumid bu biror narsadan umid qilmaydigan, hech narsaga ishonchi yoʻq degani. Maʼyus esa biror narsadan hafa, gʻamgin deganidir. Bu soʻzning feʼl shakli ham bor boʻlib, u quyidagicha.

Navmid boʻlmoq, oʻlmoq -umidsizlanmoq, noumid boʻlmoq;⁸³

Keling gʻazal va uning sharxini oʻqib bu soʻz qaysi maʼnoda kelishini bilib olaylik.

Har kishi vaslin tamanno aylasam **navmid** oʻlay,

Har kishi hamkim sening vasling tamanno aylasa

*Agar boshqa yorlarning vaslini orzu qilsam, **noumid** qolib ketay, agar*

⁸⁰ “Xazoyin ul-maoniy” III-jild. 25-bet.

⁸¹ “Gʻaroyib us-sigʻar” dostoni gʻazallariga izoh va sharxlar. Boqijon Toʻxliyev. 3-bet.

⁸² Navoiy asarlarining izohli lugʻati. 2-jild. Toshkent. 1983. 417 bet.

⁸³ Yuqoridagi asardan. 417 bet.

boshqa kishi ham sening vaslingni istasa, u ham noumid bo'lsin.

Guvohi bo'lganimizdek Alisher Navoiy bu yerda noumid qolib ketish haqida so'zlamogda.

Navbatdagi so'z ham aynan shu g'azaldan. Bu so'zimiz nukta so'zidir.

Nukta-1) nozik va teran ma'noli so'z va ibora; 2) xazil, mutoyiba; 3) sir, hikmat.⁸⁴

Yo'q og'izdin **nukta** aytur mahvashimdek bo'lmag'ay,

Gar quyosh har zarrasidin bir Masiho aylasa.⁸⁵

*Agar quyosh o'zining har bir zarrasidan tiriltirguvchi bir Masih paydo qilsa ham, yo'q og'izdan **chiroyli so'zlovchi** mahvashimdek bo'lolmaydi.*⁸⁶

Aslida nukta so'zi chiroyli, teran ma'noli so'z, lekin baytning sharxida u endi **so'z** emas **so'z aytuvchiga** o'zgarmoqda, bunga sabab g'azalda **aytmoq** fe'li bilan birgalikda kelgan va uning sharhida **so'z aytuvchining** o'rniga **so'zlovchi** shaklidan foydalangan. Bu ma'noning silliq chiqishiga ko'maklashgan. Nukta so'zining qolgan ikkita ma'nolariga kelsak, na hazil, mutoyiba, yoki sir, hikmat ma'nolari nukta so'zining bu o'rindagi ma'nosiga mos kelmaydi.

Navbatdagi so'zimiz **zabun**. Bu so'z Zuhra Mamadaliyeva sharxlagan 101-g'azaldan olingan. Unga Navoiy asarlarining izohli lug'atida quyidagicha izoh berilgan. Ya'ni 1) *yengilgan, asir bo'lgan*; 2) *zaif, kuchsiz, bechora*. 3) *arzimas; zabun aylamoq-yengmoq; zabun bo'lmoq-yengilmoq*;⁸⁷

Taqdirdan ne kelsa, Navoiy, itoat et

Kim, sen kebi zabun erur amri qazog'a charx.⁸⁸

⁸⁴ Yuqoridagi asardan.. 488-bet.

⁸⁵ "Xazoyin ul-maoniy" III-jild. 25-bet.

⁸⁶ "G'aroyib us-sig'ar" dostoni g'azallariga izoh va sharxlar. Boqijon To'xliyev. 4-bet.

⁸⁷ Navoiy asarlarining izohli lug'ati. I jild. Toshkent 1985. 606-bet.

⁸⁸ Xazoyin ul-maoniy" III-jild. 135-bet.

*Taqdirdan nima kelsa, ey Navoiy sarkashlik qilmay, unga itoat etki, hatto charxi falak ham sen kabi taqdirning – qazoning hukmi oldida ojiz va zaif hamda yengilgan, asir bo'lgandir.*⁸⁹

Aslida Navoiy zabun so'zini yengilgan, asir bo'lgan ma'nolarida qo'llagan. Uning qolgan ma'nolari bu yerda mos kelmasligi aniq. Lekin Zuhra Mamadaliyeva boshqa bir narsani ochib bermoqda. Ya'ni lirik qahramon aqdir hukmi oldida ojiz va yengilgan. Lekin zaif tarzda yengilgan deb emas balki, taqdiridan rozi bo'lib, boshiga kelganini mardonavorlik bilan qarshi olgan deya Navoiyning fikrini ochib berdi. Chunki Navoiy islom dinidan yaxshi habardor inson edi. Bilamizki, islom dinida qazo qadar juda muhim tushuncha va Navoiy qazo qadar haq ekaniga shak shubxa qilmasligi aniq. Shuning uchun ham u taqdir ishlariga bo'y bermay kurashgan, lekin oxiri yengilgan qahramonni ifodalamoqda. Yengilishining sababi bu uning taqdiri. Va lirik qahramon buni mardonavor qarshi olmoqda.

Keying so'zlar bu Dilorom Salohiy tomonidan sharhlangan 4-g'azal dan olingan **ajz** va **kasofat** so'zlari. Ajz so'ziga "Navoiy asarlarining izohli lug'ati" da quyidagicha izoh berilgan.

Ajz – 1. Ojizlik, zaiflik, kuchsizlik, notavonlik; iqtidorsizlik; 2. Xastalik; 3. Ojizlikni, xoksorlikni tan olish.⁹⁰

Kasofat so'ziga ham aynan shu kitobda quyidagicha izoh berilgan.

Kasofat – 1. Dag'allik, qo'pollik; g'alizlik; 2. Ifloslik, yomonlik; 3. Xiralik, tutilish (quyosh).⁹¹

Guvohi bo'lganimizdek ikkala so'z ham ko'p ma'noli so'zlar doirasiga kiradi.

Izhor **ajz** *bizdin adab tarkidur, base,*

⁸⁹ G'aroyib us-sig'ar" dostoni g'azallariga izoh va sharxlar. Boqijon To'xliyev. 19-bet.

⁹⁰ "Navoiy asarlarining izohli lug'ati" I-jild.75-bet

⁹¹ Yuqoridagi asardan- II-jild. 168-bet.

*Yuz ming qusur-u nuqs-u **kasofat** bilan sanga.*⁹²

*Biz odobni tark etgan – odobsizlar Sening qoshingda o‘z **ojizligimizni** izhor etamiz;*

*Bizning yuz ming qusurimiz, nuqsonlarimiz va **yomonliklarimiz** bor.*⁹³

Darhaqiqat ushbu bayti haq taolo madhiga bag‘ishlangan g‘azaldan olingan. Guvohi bo‘lganimizdek ikkala so‘zning ham bir necha ma‘nolari bo‘lib, Dilorom Salohiy Navoiy qaysi ma‘nolarni nazarda tutganini to‘g‘ri ochib bergan. **Ajz** so‘zi o‘zining birinchi ma‘nosida qo‘llangan va **kasofat** so‘zi esa ikkinchi manosida ishlatilgan. E‘tiboringizni kasofat so‘ziga qaratsak. Aslida bu so‘z oddiy so‘zlashuv tilida ko‘p uchraydigan so‘z. Lekin hamma ham uning yuqoridagi ma‘nolarini bilmasligi aniq. Bu so‘z xalq orasida ofat, balo ma‘nolarida ishlatiladi. Ammo baytda bu ma‘no to‘g‘ri kelmaydi. Bu yerda aslida yomonlik deganda yomon ish va amallarni nazarda tutilgan. **Ajz** so‘zi o‘zining birinchi ma‘nosi yani ojizlik degan ma‘noda ishlatilganini aytib o‘tdik, ya‘ni haq taoloning oldida, u yaratgan yaqdir oldida ojizlikni nazarda tutmoqda. So‘zlarning mos ma‘nosi tanlangani esa baytning chiroyli tarzda izohlanishi, bu esa o‘z o‘rnida butun boshli g‘azalning tushunarli tarzda sharhlanishiga xizmat qilgan.

Navbatdagi so‘z bu **dayr** so‘zi bo‘lib, u Navoiy g‘azallarida eng ko‘p uchraydigan so‘zlardan biridir. Bu so‘zga “Navoiy asarlarining izohli lug‘ati” da quyidagicha ta‘rif berilgan.

- 1) Rohiblar turadigan joy, butxona; monastr
- 2) Mayxona;
- 3) Dunyo, jahon; bu dunyo.
- 4) Dayr ahli-mayxonaga doim keluvchilar
- 5) Dayr piri-mayxonachi, mayxona boshlig‘i.

⁹² “Xazoyin ul-maoniy” III-jild. 30-bet

⁹³ “Navoiy g‘azallari (nasriy bayon, izoh va sharhlar)” B. To‘xliyev. D. To‘xliyeva. Toshkent 2018.

- 6) Dayri fano- dunyo lazzatidan kechib foniy bo'lganlar dunyosi.
- 7) Dayri xarob- buzilgan ibodatxona.
- 8) Dayri kaliso- xristianlar butxonasi.⁹⁴

Dastlab bu so'zning Dilnavoz Yusupova sharhlagan 115-g'azaldagi ma'nosiga e'tibor beramiz.

Bu foniy **dayr** aro gar shohlig' istar esang, bo'lg'il

Gadolig' nonig'a xursandu bo'lma shahg'a hojatmand.⁹⁵

Bu o'tkinchi dunyooda shohikni astasang, gadolikni noniga rozi bo'l-qanoatli bo'l, shohlarga ehtiyojmand bo'lma!⁹⁶

Bu yerda dayr so'zining uchinchi ya'ni Dunyo degan ma'nosi qo'llanmoqda. Bu dunyoga o'tkinchi deya nisbat beriladi. Ya'ni bu dunyoning oxiri bor. Hech kim hech narsa unda abadiy emas. Lekin mana shu foniy dunyoda haqiqiy shoxdek yashashni istasang unda darvesh kabi yashashing kerak deyilmoqda. Chunki darveshning hech kim bilan ishi bo'lmaydi, unga boylik, mansab kabi tushunchalarning ahamiyati yo'q va natijada u hotirjam, ya'ni shox. Hatto podsholar ham u kabi hotirjam yashay olmaydilar. Demakki, Navoiy nazarda tutgan g'oyani to'g'ri va aniq ifodalangan.

Bu so'z Hazratning boshqa g'azallarida ham uchraydi, masalan:

May tutki, foniy o'ldi falakdin base bino,

Hargiz xalal yeturmadi **dayri fanog'a** charx.⁹⁷

Falakdan bino bo'lgan har qanday narsa foniylikka (Yo'qlikka) yuz tutdi, biroq fano dayri- yo'qlik mayxonasi (*tasavvuf istilohi bo'yicha oriflar suhbat*i,

⁹⁴ "Navoiy asarlarining izohli lug'ati" I-jild Toshkent. 1985. 483-484 betlar.

⁹⁵ "Xazoyin ul-maoniy" III-jild. 140-bet

⁹⁶ "Navoiy g'azallari (nasriy bayon, izoh va sharhlar)" B. To'xliyev. D. To'xliyeva. Toshkent 2018.54--bet

⁹⁷ "Xazoyin ul-maoniy" III-jild. 134-bet

piri komil dargohi va tasavvufning eng oliy martabasi)ga hatto taqdiri azalning ham hukmi yetmaydi.⁹⁸

111- g'azaldan olingan ushbu baytda dayr so'zi endi fano so'zi bilan birgalikda kelmoqda. Yuqorida unga izohli lug'atda berilgan ma'no bilan tanishganmiz. Zuhra Mamadaliyeva tomonidan sharhlangan ushbu g'azalda fano dayri-yo'qlik mayxonasi deya ta'riflangan. Aslida esa Navoiy dayri fano birikmasi bilan bu yerda piri komil dargohini nazarda tutganini shorihimiz to'ldirib bergan. Bilamizki, Navoiyning ko'p g'azallarida tasavvuf ruhi sezilib turadi. Bu g'azal ham ana shunday ruhdagi g'azal ekani sezilib turibdi.

Zuhra Mamadaliyeva tomonidan sharhlangan navbatdagi 112- g'azalda ham bu so'z ikki marotaba foydalanilgan.

Dayr piring muridimenki fayzi om erur,
Xonaqahda fayzi om eldin tamanno qildi shayx.⁹⁹

*Menku **dayr piri**-keksa mayxonachi, majoziy ma'noda komil piri)ning muridiman, uning ishi ommaga fayz berish, biroq soxta shayx esa mana shu fayz olgan eldan fayz istamoqda.*¹⁰⁰

Dayr piri – aslida zardushtiylik dini peshvosini nazarda tutadi. Bu bir paytning o'zida izohli lug'atga ko'ra mayxona egasi degan ma'noni ham beradi. Alisher Navoiy bu yerda majoziy ma'noda piri komilni nazarda tutgan. Buni to'g'ri tushunib yetgan sharhlovchimiz baytning ma'nosini to'g'ri yoritgan. Aks holda Navoiyning g'oyasiga teskari fikr bildirilishi mumkin edi. Chunki zardushtiylik dini bu Islom dini aqidasi mos bo'lmagan umuman boshqa din.

Keying bayt:

Dayr aro tindi qulog'im, rohibo, zikring baxayr
Kim, sahar zikr ayturida ko'p alolo qildi shayx.

Dayr (mayxona, majozan Allohdan oshiq va oriflarga fayz yetuvchi maskan)ga kelib, qulog'im tindi, (ko'nglim joyiga tushdi, endi eslasam) sahar payti zikrga tushganda shayx ko'p va behuda shovqin- suron qilar ekanda.

Bu yerda dayr so'zini Zuhra Mamadaliyeva **mayxona** deya ta'riflagan. Lekin bu so'z aslida butxona ma'nosida kelgan. Chunki rohib mayxonada emas, balki

⁹⁸ “Navoiy g'azallari (nasriy bayon, izoh va sharhlar)” B. To'xliyev. D. To'xliyeva. Toshkent 2018. 45-bet

⁹⁹ “Xazoyin ul-maoniy” III-jild. 115--bet

¹⁰⁰ “Navoiy g'azallari (nasriy bayon, izoh va sharhlar)” B. To'xliyev. D. To'xliyeva. Toshkent 2018.54--bet

butxonada bo'ladi. Ammo bu yerda Navoiy majozan Allohdan oshiq va oriflarga fayz yetuvchi maskanni nazarda tutgan. Bu narsa esa to'g'ri yoritilgan.

Keying bayt Olimjon Davlatov tomonidan izohlangan 131-g'azaldan olingan.

Dayr piri qulidurmenkim, aning dargohi

Yaxshilarg'a panoh o'ldiyu yomonlarg'a maloz.

Men dayr pirining ya'ni mayxona egasining quliman, negaki uning dargohi yaxshilarga ham, yomonlarga ham boshpanadir.

Bu yerda aslida dayr piri dargohi – oshiqlar ko'ngli taskin topadigan joy ya'ni ishq ostonasidir. Oshiq o'zining piri komil quliligini uning dargohida esa yaxshiyu, yomon panoh topishini nazarda tutmoqda. Bundan tashqari ham bir necha g'azallarda dayr so'zi bir necha ko'rinishlarda ishlatilmoqda. Lekin ularning barida Alisher Navoiy majoziy ma'nolarni nazarda tutgan.

Navbatdagi tahlil qilmoqchi bo'lgan so'zimiz, demak, bu junun so'zi. Uning izohli lug'atdagi ma'nolariga e'tibor bering.

Junun- 1) telbalik, devonalik, savdoyilik;

2) oshiqlik, beqarorlik;¹⁰¹

G'azalning nasriy bayonida Navoiy **junun** so'zining birinchi m'anosidan foydalanilgani Dilnavoz Yusupova tomonidan ochib berilgan.

*Jununimni daf etgali tabib emas, a'zayimxon keltiring, chunki kimni pari o'ziga shaydo qilsa, uni davolatgani albatta parixon kerak.*¹⁰²

Ya'nikim bu yerda muhabbatdan telbaga aylangan yigit haqida bo'lib, u go'zallikda tengi yo'q hurliqoga oshiqu beqaror. Unga pari deb nisbat

¹⁰¹ Navoiy asarlarining izohli lug'ati. !-jild. 599-bet.

¹⁰² "G'aroyib us-sig'ar" dostoni g'azallariga izoh va sharxlar. Boqijon To'xliyev. 3-bet.

bermoqda. Va guvohi bo'lganimizdek bu oshiqlik haddan ziyod bo'lib, endi u savdoyilikka yetgan. Chunki oshiqlik ijobiy tushuncha va uni davolash kerak emas. Lekin, har narsaning me'yori bo'lganidek, uning ham me'yordan oshib ketgani va jinnilikka borib yetgani, endi uni davolash zarur ekanligi va bunga tabib emas, balki parixon ya'ni a'zayimxon kerakligi aytilmoqda. Chunki u pari tomonidan sehrlangan. Demakki g'azalni sharxlashda junun so'zining birinchi ma'nosi to'g'ri va mos tanlangan.

Xarobot- 1 xarob joy, vayrona. 2. mayxona.¹⁰³

Xarobot so'zi ham ikki ma'noli so'z bo'lib, uning birinchi ma'nosi bayt ma'nosini ochib beradi. Aslida she'rda bu so'z majoziy ma'noda ishlatilgan. U piri komil makonini nazarda tutadi.

Sipehr – osmon, osmon gumbazi, falak

Sipehr ishqda Majnunga a yozdi ko'p ta'rif,
Muqobilida zamona meni raqam qildi.

Falak (ya'ni taqdir) ishq borasida Majnunga ko'plab maqto'vlar yog'dirdi, unga qarama-arshi holda zamona (bu borada) meni bunyod etdi.

Boqijon to'xliyev sharhlagan navbatdagi 598- g'azalda ishlatilgan Spehr so'zi bir ko'rishda jozibali, e'tiborni tortadigan kam qo'lanadigan, lekin chiroyli so'zdir. Ko'rib turganimizdek, unga Izohli lug'at kitobida osmon, osmon gumbazi, falak, zamon kabi ma'nolari bor. Bu esa u osmon emas taqdir ma'nosida ishlatilgan. Chunki, Osmon emas Majnunga turli sinoat va ko'rguliklarni yozgan, bu taqdirdir. Osmon bilan taqdir o'rtasida qandaydir yaqinlik bor, ya'ni osmon cheksiz, poyonsiz, und anima borligini, chegarasi qayerdaligini hech kim bilmaganidek, inson ertangi kuni yoki kelajagida nima sodir bo'lishini bilmaydi.

¹⁰³ Navoiy asarlarining izohli lug'ati. 3 jild. Toshkent. 1983

3.3. Navoiyning “G’aroyib us-sig’ar” asarini ingliz tilida sharx va tarjimalarini yaratish muammolari

Dunyo Alisher Navoiydek daholarga muhtoj degan edi, bir ingliz shoiri. Darhaqiqat, globallashuv shiddat bilan borayotgan bir paytda, adabiyot san’at ham bu jarayondan ortda qolmayapti. Va aksincha bu sohalarida ancha avvalroq boshlangan desak ham mubolag’a bo’lmaydi. Navoiyni o’rganish bugun boshlangani yo’q. Allaqachonlar uning asarlari ingliz, fransuz, nemis va boshqa tillarga tarjima qilinib, o’z o’quvchilari e’tiboriga havola qilingan. Demoqchimizki, bu sohada biz birinchi emasmiz, lekin Navoiy asarlariga berilgan izohlarni tarjima qilib, aynan shu usulda ingliz o’quvchilariga yetkazish kerak degan g’oya va buning dastlabki mevalari bizniki. Uning g’azallarining ingliz tilidagi ilmiy izohini yaratish yuzasidan bizdan avval yozilgan biror dissertatsiya ishi yo’q. Qo’lingizdagi ish eng birinchisi. Alisher Navoiyning “G’aroyib us-sig’ar” devonidagi g’azallarga bitilgan izohlarni ingliz tiliga tarjima qilishda albatta bir necha muammolar yuzaga keldi. Masalan, Navoiy ko’plab she’riy san’atlardan foydalangan, bularga misol qilib tashbehi izmor, tashbeh, tanosub, talmeh, tajnis va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Tarjima jarayonida g’azal sharhlovchilari tomonidan bitilgan izohlarda uning qaysi baytda qaysi san’atdan foydalangani birma bir izohlab ochib berilgan jumlar tarjimasi ozgina qiyinchilik tug’dirdi. Ya’ni bu san’atlarning hammasi ham ingliz adabiyotida mavjud bo’lmagani uchun ularni o’quvchilarga tarjima qilib tushuntirib berish muammosi paydo bo’ldi. Bu o’rinda quyidagicha usuldan foydalanildi. Masalan:

*Bu yerda istixroj san’atidan foydalanilgan. Bu san’atning mohiyati arab alifbosidagi harflarning ko’rinishi, shakily tuzilishlari va ularning boshqa harf yoki so’zlar bilan qo’shilgan holda yangi bir ma’noni anglatishiga asoslanadi.*¹⁰⁴

¹⁰⁴ “Navoiy g’azallari (nasriy bayon, izoh va sharhlar)” B. To’xliyev. D. To’xliyeva. Toshkent 2018.260--bet

Here the art of *istixroj* is used. This art refers to the form and appearance of the words in the arabic language and also their new word formation by joining with each other.¹⁰⁵

Yoki boshqa o'rinda:

Baytda mashuqaning og'zi pistaga o'xshatilib, uning sho'rligiga, ko'zi esa bodomga mengzlanib, uning achchigligiga ishora qilmoqda. Shoir mumtoz adabiyotimizda eng ko'p ishlatiladigan tashbeh san'atiga murojaat qilmoqda. Bundan tashqari pista va bodom; og'iz va chashm; sho'r va talx so'zlari orqali tanosub san'atidan ham foydalanmoqda.¹⁰⁶

The mouth of beloved is compared to pistachio and refers to that it is salty, the eyes are compared to almond and meant that it is bitter. The poet is addressing the most used expressive means of language called (*tashbeh*) comparison. In addition to this, he is also using "*tanosub*" (it is also a poetic way in which the poet uses synonym words) : pistachio-almond (*pista va bodom*); *mouth-look* (*og'iz va chashm*); *salty-bitter* (*sho'r va talx*)¹⁰⁷

Shunga o'xshash so'zlar izohlarda juda ko'p. Buning boisi Navoiy juda ko'p shunday san'atlardan foydalangan. Aslida hatto taglama tarjimalarda ham bu san'atlar vositasida bitilgan baytlarni tarjima qilish osonmas. Ularni tarjimalarda ifodalab bo'lmaydi. Lekin agar ingliz o'quvchisi Navoiyni shunday san'atlardan foydalanishini bilmasa, to'g'rirog'i biz uni yetkazib bera olmasak Navoiy asarlarining mag'zini ham yetkazib bera olmaymiz. Shuning uchun ham izoh sharhlarini tarjima qilish taglama tarjimadan ko'ra qaysidir ma'noda ustunroq. Hatto o'zbek o'quvchisi ham Navoiyni tushunish uchun ana shu izoh sharhlarni o'qiydi. Navoiy –so'z mulking sultoni - so'zlardan shunday foydalanganki, ularning bir necha ma'nolari bor. Bu ma'nolarni to'g'ri tushunishimiz uchun esa albatta g'azallarning nasriy bayoni va izohlaridan

¹⁰⁵ Yuqoridagi asardan. 434-bet.

¹⁰⁶ "Navoiy g'azallari (nasriy bayon, izoh va sharhlar)" B. To'xliyev. D. To'xliyeva. Toshkent 2018.12--bet

¹⁰⁷ Yuqoridagi asardan 17-bet.

foydalanamiz. Shu bilan birgalikda “Navoiy asarlarining izohli lug’ati” ham kata yordam beradi. Ana shunday ko’p ma’noli so’zlarni, yoki faqatgina o’zbek tiliga, mentalitetiga to’g’ri keladigan so’zlar tajimasida ham bir talay muammolar yuzaga keladi. Ana shunday so’zlardan quyida bir nechtasini muhokama qilamiz.

Mug’-so’zining ma’nolari va uning sharhlanishi haqida yuqoridagi bobda bir qancha masalalarni ko’rib chiqdik. Endi uni ingliz tiliga tarjima qilishdagi muammolarni hal qilamiz. Demak, bu so’zning ma’nosi majusiy, otashparast, o’tga cho’qinuvchi, yoki mayfurush.¹⁰⁸ Birgina so’zga Navoiy asarlariga berilgan izohli lug’atda ikki xil ma’nodagi izoh berilyapti. Ya’ni birinchisi zardushtiylik diniga amal qiluvchi bo’lsa, ikkinchisi esa mayfurush yani may sotuvchi, quyuvchi ma’nolarida keladi. Navoiy musulmon bo’lganini hisobga olsak, bu ikki ma’no ham slbiy ma’nodagi so’zlar. Lekin “G’aroyib us-sig’ar” dostonidagi 23- g’azaldagi mana bu misrada esa uning ma’nosiga e’tibor beraylik.

Ofiyat jonimg’a yeti, ey xush ulmug’kim, meni

*Biq qadah birla xarobot ichra rasvo aylasa.*¹⁰⁹

Agar u otashparast ruhoniyl bir qadah bilan meni vayrona ichra rasvo qilsa, jonim orom topgan bo’lur erdi.¹¹⁰

*If that fire worshiper destroys me with a glass of wine, my heart would relax then.*¹¹¹

Demak bu misraga berilgan o’zbek tilidagi sharhning ingliz tilidagi tarjimasi bilan qiyoslaymiz. O’zbek tilidagi izohida mug’ so’zi otashparast deb izohlanayapti. Ingliz tilidagi tarjimasida uni fire worshiper deb to’g’ridan to’g’ri tarjima qilinyapti. Dilnoza Yusupova tomonidan berilgan izohda aslida

¹⁰⁸ Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati. II-tom. Toshkent 1983.

¹⁰⁹ “Navoiy asarlari mukammal to’plam” II-jild

¹¹⁰ .”G’aroyib us-sig’ar” dostoniga izoh va sharhlar. II-kitob. 3-4 betlar

¹¹¹ Yuqoridagi asardan. 5-bet.

bu so'z majozan orif insonni nazarda tutishi aytilgan. Orif inson kim?aslida?Orif- ma'rifatli , bilimli, dono.¹¹²

O'zbek tilining izohli lug'atida unga ana shunday tarif berilgan.

Ushbu g'azalga berilgan izohda ham baytda aslida lirik qahramon o'z muddaosi piri komil huzuri ekanini mug' so'zi bilan izohlaydi.¹¹³ Demak mug' so'zi otashparast yoki mayfurush deb tarjima qilinsa ham majozan umuman boshqa ma'noni anglatadi. Bu ma'nolar ko'chma ma'no bo'lib, ular yashirin tarzda ifodalanayapti. Baytning tag ma'nosiga e'tibor bersak buni sezishimiz mumkin. Lekin Mug' so'zining bu yerda orif insonni nazarda tutayotganini anglab yetmasak unda Navoiyni umuman boshqacha tushungan bo'lar edik. Ya'ni otashparast yoki mayfurush so'zlari islom dinida qoralanadigan so'z lardir. Yani ular ijobiy ma'nolarni bermaydi, shu bilan bir qatorda mumtoz adabiyotda bu so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilmoqda. Bundan kelib chiqadiki bayt ma'nolarini so'zma so'z tarjima qilishdan tashqari har bir bayt uchun alohida sharh yozib uni ham o'quvchilarga yetkazish zarur. Bu ularni tushunarli bo'lishiga yordam beradi.

Tarjima qilishda duch kelgan yana bir so'z bu **hijron** so'zi. Bu so'z deyarli Navoiyning har bir g'azalida uchraydi desak ham bo'ladi. Lekin uni ingliz tiliga **separation** deb tarjima qilsak bu to'g'ri bo'larmidi. **Separation-a period of time that two or more people spend apart from each other.**¹¹⁴ O'zbek tilida ajralish, ayriliq so'zlariga to'g'ri keladi. Quyidagi misraga e'tibor beraylik. Hijron guli birikmasini tarjimon so'zma so'z **the flower of separation** deb tarjima qilinyapti. So'zma –so'z olganda bu to'g'ri. Ammo

Vasl bargin uzki, men hijron gulin bo'y etmisham,

¹¹² O'zbek tilining izohli lug'ati. II-tomlik. I-tom.Moskva. 1981.

¹¹³ "G'aroyib us-sig'ar" dostoniga izoh va sharhlar. II-kitob. B. To'xliyev.15-bet.

¹¹⁴ Longman English Dictionary.

Mehr tarkin tutki, men mehnat bila xo'y etmisham.¹¹⁵

Vasl bargini uzki, (ey ko'ngil) men hijron gulini hidlayapman va mehru muhabbat tarkini tutki men mehnat (bu o'rinda ranju mashaqqat) bilan mashg'ulman.

*Hey soul tear off the date leaf, I am smelling the flower of separation and forget about mercy I am busy with toils.*¹¹⁶

Oshiq mashuqaga alamli nido qilib, vasl va mehr so'zlarini hayolimdan ham chiqar, chunki men amalda hijron va ranju mashaqqat bilan mashg'ulman, demoqda.

The lover is addressing the beloved with sorrow and saying that she should remove the words mercy and appointment, because in reality, he is suffering from **separation** and toils.¹¹⁷

Demak hijron gulini hidlashi bu oshiqning hijronda azoblanayotganini nazarda tutmoqda. G'azal misrasiga berilgan nasriy bayondan bu ma'noni unchalik ham tushunish oson emas. Uning inglizcha tarjimasida esa umuman yo'q bo'lib ketayapti. Faqatgina g'azalga berilgan izoh sharh orqali uning o'zbek va ingliz tilida to'g'ri talqin qilishga erishish mumkinligini ko'rishimiz mumkin.

Hazrat Navoiy shu qadar so'zdan mohirona foydalanib ipga tizganki har gal ularni o'qiganingizda yangi qirralarini topasiz.

Tasavvuf olami haqida tasavvurga ega bo'lmagan o'quvchi esa mana shu izohlarsiz uni tushuna olishi dargumon. Hattoki tasavvufiy so'z va iboralardan foydalanmay, so'zlarni majoziy ma'noda qo'llash orqali ham buni tasvirlay olayotgan shoirga tahsin aytmay ilojimiz yo'q.

¹¹⁵“G'aroyib us- sig'ar”devoni

¹¹⁶ “G'aroyib us-sig'ar” dostoniga izoh va sharhlar. II-kitob. B.To'xliyev 45-bet.

¹¹⁷ Yuqoridagi asardan.47-bet

Navbatdagi 405-g'azalda ishlatilgan hijron so'zining ishlatilishiga diqqatimizni qarataylik

Subhdek xurshid vaslidin agar kulsam ne tong

Menki, subhi vasl uchun ko'p shomi hijron yig'ladim.

Tong kabi quyoshning vaslidan kulsam, ajablanarli emaski, men vasl tongi uchun ko'p **hijron** shomida yig'ladim.

If I become happy like a sky when there is sun, I cried for this morning of appointment at the nights of **separation**.¹¹⁸

Bu baytda **shomi hijron tuni** birikmasini **the night of separation** deb tarjima qilinmoqda. Lekin aslida bu uzoq muddatli ayriliqni nazarda tutmoqda. Aynan kech bo'lgan mahalni emas, ya'ni seviklisini ko'rgan paytni tonga, u siz paytni esa tunga qiyoslayapti shoir. Bu ma'nolarni anglab yetish uchun esa albatta Navoiy uslubidan habardor bo'lish kerak.

Charxdin mehr tama tuttumu ofat ko'rdum,

Yordin vasl talab qildimu hijron topdim.

Taqdirimdan mehr kutdimu, ammo azob topdim, sevgilimning vaslini hoxladim, ammo hijron topdim.

I wanted kindness from my fate, but I found pains, I wanted a date with my beloved, but I found separation.¹¹⁹

Baytda ko'rinib turganidek bu yerda ham izoh so'zma so'z ya'ni **Hijron-separaton** bo'lib tarjima qilinmoqda. Inglizcha tarjimasida ham baytni ko'chma ma'noda tuhunilmasa uning asl mohiyati yetib bormasligi ko'rinib turibdi. Chunki **I found separation**- bu izlab yurib topgan degan ma'noni bildiradi. Bizning qahramon esa yorining vasliga yeta olmaganini aytmqchi.

¹¹⁸ G'aroyib us-sig'ar" dostoniga izoh va sharhlar. II-kitob. B.To'xliyev.. 456-bet

¹¹⁹ Yuqoridagi asardan.. 458-bet.

Tish qadabmen la'linga uzmasmen andin bu tama,

Anburi hijron bila bir-bir sug'ursalar tishim.¹²⁰

**La'ldek lablaringga tish qadabman (ko'ngil qo'yibman), undan
ayriliq omburi bilan tishimni bir bir sug'ursalar ham aslo umid
uzmayman!**

**I am in love with your purple lips, I will not regret for that and
forget it forever.¹²¹**

Oshiq boshimga qancha balo kelsa ham, sendan kechmayman, degan so'zni aytish mumkinki, qasamu iqorni obrazli ifodalamoqda.ya'ni mening maqsadim: sening lablaring(dan bo'sa olish). Unga tish qayrabman. Bu ibora turkiy xalqlar orasida bir ishga qat'iy kirishish ma'nosini ifodalaydi. Va bu maqsadimdan tishimni birma-bir sug'ursalar ham qaytmayman, deb maqsadida qat'iyligini ifodalaydi.¹²²

A lover may say that he will never vain his beloved whatever happens and Navoi is describing it in a symbolically. i.e. my purpose is to kiss your lips. I am determined. It means I decided to do it. And I will not give up my this purpose even they take my teeth one by one.¹²³

Ushbu baytdagi hijron so'zi uning inglizcha variantida hatto uchramaydi ham. Buni faqatgina unga berilgan izohdan tushunishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki Navoiy asarlarini boshqa tillarga tarjima qilish kecha yoki bugun boshlanmagan bo'lsada hali qilinishi kerak bo'lgan ishlar anchagina. Bu yo'lda esa siz o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlab ulakan zafarlarga erishishimizga ishonamiz.

¹²⁰ G'aroyib us-sig'ar" dostoni

¹²¹ G'aroyib us-sig'ar" dostoniga izoh va sharhlar. II-kitob. 364-bet

¹²² Yuqoridagi asardan. 384-bet.

¹²³ Yuqoridagi asardan. 400-bet

Zero, asosiy maqsadimiz Navoiy asarlari butun dunyo kitobxonlari qo'lida bo'lsin. Ular bobomizning asarlari mag'zini ta'tib ko'rishsin. Va ana undan keyin bizning tarjimalarimizga baho berib, O'zbekistondek yurtga bir kelib ketish umidi bilan yashashsin. Ana o'shanda biz pirovard maqsadimizga erishgan bo'lamiz. Chunki Hazrat asarlari orqali biz o'z madaniyatimiz, ma'rifatimizni butun dunyoga tanitamiz. Bu esa har bir yosh o'zbek tarjimonining asosiy maqsadi bo'lishi turgan gap. Demak, Navoiy asarlarini so'zma so'z tarjimadan ko'ra izoh va sharhlarini tarjima qilish ularni tushunarli bo'lishini taminlaydi. Ishonamizki bu izoh va sharhlar tarjimasi o'z o'quvchilarini albatta topadi.

XULOSA

Ma'lumki jahon adabiyotida Sharq she'riyatiga qiziqish asrlar davomida so'nmagan. Bu qiziqish XX asrda yanada kuchaydi. Shu bois bugungi kunga kelib, Sharq shoirlari asarlarining g'arb tillariga jumladan, inglizchaga tarjimalarini tahlil qilish, bu sohada to'plangan tarjimalarini umumlashtirish, ilmiy hulosalar chiqarish o'zbek tarjimashunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Adabiy asarlar mazmuni, vazifasi, tasviriy vositasi hajmi va ba'zi tashqi jihatlari bilan bir biridan farqlanadi.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'nu sharafigi dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Istiqloq yillarida shoirning boqiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yurtimiz viloyatlaridan biriga, mamlakatimizning asosiy kutubxonasiga, teatrlar, oliy o'quv yurti, ilmiy-tadqiqot maskaniga, qator ko'chalar va xiyobonlarga ulug' bobomizning nomi berilgan. Mamlakatimiz mustaqilligining 20 yilligi arafasida buyuk shoirning 10 jildlik to'la asarlar to'plami chop etildi. Ayni vaqtda shoir badiiy merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiyalar o'tkazilmoqda. Tokio, Moskva, Boku shaharlarida Navoiy bobomizning muazzam haykallari qad rostlab turibdi. Bu u kishiga bo'lgan cheksiz hurmat ehtiromni ko'rsatadi. Hozirgi kunga qadar u kishi haqida ko'plab asarlar yozilgan, ko'plab asarlari jahon tillariga tarjima qilingan. Yuqorida muhokama qilgan tadqiqot ishimizda ham bugungi kunda dolzarb bo'lgan Alisher Navoiyning g'azallarini ingliz tiliga tarjima qilish haqida bo'lib, uni boshqa dissertatsialardan farqi bu birinchi marta yozilayotgan mavzu bo'lib, u kishining asarlarini ingliz tiliga o'girish bo'yicha grant loyixasi doirasida yozilayotgan dissertatsiya ishidir. Buning ustiga endi gap she'riy tarjima ustida emas. G'azalning taglama tarjimasi va unga bitilgan sharxlarni tarjima qilishda bormoqda. Bu o'rinda aytib o'tish kerakki, bu dastlabki ish bo'lishiga qaramasdan ko'pchilikning qiziqishiga sabab bo'lishi va

albatta ko'plab magistrLAR tomonidan shu kabi mavzu doirasida ish olib borishlariga sabab bo'lishi turgan gap. Asarimiz o'z o'quvchilarini topishi va unga bildirilgan har qanday fikr bizni ham qiziqtirishi turgan gap. Dissertatsiya ishimizning yozilishiga sabab bo'lgan Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devoni va unga bitilgan nasriy bayon va sharxlarning inglizcha tarjimasi hali ko'plab muhokama va shov-shuvLarga sabab bo'lishi turgan gap. Demakki, ishimiz besamar emas. Dissertatsiya ishimiz uch bob bo'lib, har bir bobda bir birini to'ldirgan va o'zaro mutanosib ma'lumotlar bilan to'la. Izlanishlarimiz natijasi o'laroq quyidagi xulosalarga keldik.

Alisher Navoiyni tarjima qilish uchun birinchi galda uning hayoti ijodi, uning shaxsiyatidan habardor bo'lish kerak.

Uning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarni kengroq tarzda yoritish kerak. Bir narsa ma'lumki, ko'pchilik haligacha Navoiyni qanchalik ilm homiysi bo'lganidan behabar. Birinchi galda o'zimizning o'zbekLarga, yoshu qariga hamma bilgan va birdek yot aytib bera oladigan ma'lumotlardan ko'ra yangi ma'lumotlarni o'rganishga rag'batlantirishimiz zarur.

Navoiy avlodi bo'lish bilan bir qatorda unga munosib izdosh bo'lish ham kerakligini yoshlar ongiga singdirishimiz kerak. "Zulfiyaxonim" kabi mukofot tashkil qilib, uni "Navoiy izdoshi" deb nomlasak va bu mukoftning avvalgisidan farqi unda yoshu keksalar va albatta yigitlar birdek ishtirok etishi kerak bo'lsin.

Navoiyni jahonda o'rganilishi haqida gap ketganda, o'zimizda ham bunga o'rnak bo'la oladigan ishlar amalga oshirilishi zarur. Horijdagi adabiyotshunoslar bilan hamkorlikda uning asarlarining tarjimalarini yaratishimiz kerak. To'g'ri dastlabki qadamlar allaqachonlar tashlangan. "Lison ut-tayr" misolida buni ko'rishimiz mumkin. Lekin dastlabki qadam dastlabkiligicha qolmoqda menimcha.

Navoiy g'azallarini sharxlash bugun boshlangani yo'q. Bu Navoiy davridayoq boshlanganiga shubxa yo'q. Shoirning muhlislari o'sha vaqtlardayoq uning she'rlaridagi ma'nolarni tushunish uchun, shoirning nima demoqchiligini anglab yetish uchun turli kechalarda uning baytlaridan aytib muhokamalar

qilishganigan. Darhaqiqat ilgarilari uyushtirilgan bazmlarda albatta she'rxonlik bo'lgan, she'riyatning shaydosi bo'lmagan odam zamondan orqada qolgan hisoblangan. Hozir mabodo shoirlar o'zaro to'planib she'rxonlik qilishmasa, qaysi davrada o'yin kulgi va raqsdan boshqa narsalarga e'tibor beriladi. Ha internet deymiz, XXI asr axborot asri, globallashuv asri deymiz-u, aslida rivojlanib oldinga siljiyapmizmi, yoki bu regressiyami bazida hayron qoladi kishi.

Oxirgi bobimizda "G'aroyib us-sig'ar"dagi g'azallarga izoh va sharx bitishda so'zlarning ma'nosi qanchalik ochib berilgani va mumtoz adabiyotimizga taalluqli bo'lgan so'zlarni qanday tarjima qilingani to'g'risida. Ko'p so'zlarni ingliz tilida berish mushkul, chunki u tilda ko'p so'zlarning ekvivalentini ham topib bo'lmaydi. Bu yerda eng to'g'ri yo'l o'sha so'zga definition, ya'ni uni nima ekanligini tushuntirib berishdir. Bu esa ingliz zabon o'quvchiga so'zning ma'nosini to'g'ri tushunishga yordam beradi.

Summary

We need artists to help transform our nations. Art influences how societies think of themselves from the inside out and how other societies perceive them. True progress is not in applying external forces, but about His name Navo'i literally means 'the owner of singing'. He lived from 1441 to 1501 mostly in Herat, Afghanistan and is one of the greatest poets of the Great Silk Road. "World-class status was attained by the Tajik, Uzbek and Turkmen literatures, in the works of 'Abd ar-Rahman Jami, Alisher Navai, and Makhtumquli, respectively.¹²⁴" When his foster brother Husain Baykaro became the Emir, Navoi became the prime minister. He was also a good steward of his high position and helped establish many needed institutions. "Nawai is reputed to have founded, restored and endowed no fewer than 370 mosques, schools, libraries, hospitals and other pious and charitable institutions in Khurasan alone." (Devereux, Robert. *Muslim World* 54 1964, p 270 -287.)

As is known to all, the popularity of certain country has been enlarged by certain great people for many centuries. It has been done the same in Uzbekistan too. There is no doubt that one of them is Alisher Navoi. One of the greatest sources for all who seek the richness of human life and activity are those rare poets like Navoi who passionately live out what they so eloquently share with the rest of us in words. Navoi dedicated his whole life to finding and creatively revealing life's meaning and beauty not only with words but with his life. A garden is pronounced good or bad by the fruit it produces. We can trust what Navoi tells us because he shares from the experience and learning of his own difficult godly life. He does not just say what sounds good, but what has been true and helpful for his own life. And where he is unsure, he tells his reader that he is still searching and begs God's forgiveness for anything wrong he might have said. Such vulnerable humbleness in a great poet and leader is inspiring.

¹²⁴ Nazarov, Bakhtiyor and Denis Sinor. eds. *Essays of Uzbek: History, Culture and Language*. Bloomington, IN; Indiana University Press, 1993, p. 51.

The art of poets like Navoi has a powerful way of working, especially in developing nations.

His numerous writings, endowments, and his life example have had lasting influence in Central Asia. Today, in the modern country of Uzbekistan, he is revered above all other poets. The name of Alisher Navoi is visible throughout the country. Major streets, theatres, museums, parks and even a province and city are named after him. His proverbs are on the tongues of Uzbeks, Turkmen and Tajiks. He is considered the father of the Uzbek language and one of the greatest poets of Central Asia. In his six epic poems and 100 000 plus lines of poetry he wrote passionately for truth and love and vehemently against oppression. Navoi's literary output encompasses the broad fields of both prose and poetry. He composed in prose, among other works, a history of Muslim mystics and a comparison of Chagatay and Persian as literary languages. He produced three collections of lyric poetry in Chagatay and a fourth in Persian. Additionally he wrote a grouping of five long narrative poems that instruct all segments of Muslim society as to their obligations and responsibilities as believers and as human beings.

When not involved in artistic and literary pursuits, Mir Ali Shir served as an important government official at the court of Sultan Husayn Bayqara, the ruler of Herat, in today's Afghanistan. He also funded the construction of mosques, madrasahs (secondary schools), hospitals and soup kitchens for the poor.

During my research I have faced different issues which are related to the process of translation. Besides that, my research work is the newest topic which does not have any other. Because of that I had to translate prose form and definitions of ghazels defined by Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov, Bokijon Tuxliyev, Zuhra Mamadaliyeva and others.

This dissertation work is made up of a preface and three chapters subdivided into subtitles accordingly. Chapter one describes the life and work of Ali Shir Navoi and his role in creating Turkic literature and the spreading of the

works of Ali Shir Navoi in European countries. Chapter two includes information regarding the history of learning his ghazels and problems of translation. There is also information for the foreigner translator, Denis Deli.

Chapter three is about the main topic. i.e. it discusses the problems of translating ghazels into Uzbek and English. So here we discussed words from “Garoyib us-Sighar”. As Navoi was the master of words he used one word in different meanings and we discussed in which meaning he used. Besides that, there were some problems of translating the defined ghazels with opening the hidden meanings.

During my dissertation work I have to translate a book named ‘Navai’s ghazels(prose forms and definitions)’. It helped me to write and understand about Navai’s ideas. I broadened my horizons academically as well as personally. I should tell the fact in the end of my word that thanks to Navai, the popularity of Uzbekistan is increasing.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat, 2008
2. Alisher Navoiy. Xazoyinul-maoniy. -T.: 1959-60; III-jild
3. Alisher Navoiy. Muhokamatul-lug'atayn. Asarlar. O'n besh tomlik. T.14. — T.:1967
4. “Boburnoma”
5. 21 ghazels of Alisher Navoiy translated from the Uzbek by Denis Daly. Carvena Barva press, Somerville, MA,(2016).
6. .Dennis provost/ Twenty one Ghazals(of) Alisher Navoiy translated from Uzbek by Dennis Daly/www.thesommervilletimes.com
7. Salomov G'., Jo'rayev K., Olimov S. Tarjima san'ati. 4-kitob. To'plovchi T.Jo'rayev. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1978. – 134-bet.
8. *Chaucer of Turks* // Barry Hoberman.www.archive.aramworld.com
9. *Richard Boyle. Three princes of Serendip. USA.2000.*
10. Gary Dick. Why our world needs poets like Navoiy/ The language of birds/ to'plovchi va tarjimon A'zam Obidov. — Toshkent: Tafakkur, 2012. – 6.B.
11. “Pearls from Ocean”. Ummondan durlar. G'azallar, hikmatlar va ruboiylardan namunalar. Tarjimalar to'plami / Tuzuvchi Y.Parda. – Toshkent: Sharq, 2000. – 113-bet.
12. Suleyman the Magnificent, J.M.Rogers & R.M.Ward page 93-99
13. Tashbihi izmor (yashirin o'xshatish). Bu xil tashbihda shoirning diqqati boshqa narsaga qaratilgandek tuyuladi-yu, ammo uning asl maqsadi o'xshatish bo'ladi. Qarang: Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998, 20-bet.
14. N. Jumaxo'ja. Satrlar silsilasidagi sehr. “O'qituvchi”, 1996, 23-bet

- 15.A.Rustamov. Adiblar odobidan adablar. “Ma’naviyat”, 2003, 108-109-betlar.
- 16.A.A’zamov. ko’rsatilgan manba. 161-bet.
- 17.N.Komilov. Ma’nolar olamiga safar. “Tamaddun”, T.,2012, 171-bet.
- 18.Is’hoqov YO. Navoiy poetikasi. –Toshkent, 1983
- 19.Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent, 1960
- 20.M. Shayxzoda. Asarlar. IV tom. – Toshkent, 1972.
- 21.Mallaev N. O’zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 1976
- 22.Natan Mallayev. O’zbek adabiyoti tarixi. I-jild. 520-bet
- 23.Q.Yo’ldoshev. B.Qosimov.V.Qodirov. J.Yo’doshbekov. Toshkent. “Sharq”-2009.170-bet
- 24..Natan Mallayev. O’zbek adabiyoti tarixi. I-jild.381-bet.
- 25.O’zbek adabiyoti tarixi. 2-jild. 44-bet
- 26.Natan Mallayev. O’zbek adabiyoti tarixi. I-kitob.385-bet
- 27.Azizxo’jaev A.A. Davlatchilik va ma’naviyat. -T.: «Sharq», 1997.
- 28.Xurshid Davron. Navoiynoma.XIII.Chor devon. Nasoyim ul-muhabbat
- 29.Hayitmetov A. Navoiy dahosi. Toshkent. 1970, 62-bet
- 30.M. Shayxzoda. Asarlar. IV tom. – Toshkent, 1972. 119-bet.
- 31.Nazarov, Bakhtiyor and Denis Sinor. eds. Essays of Uzbek: History, Culture and Language. Bloomington, IN; Indiana University Press, 1993, p. 51.

Darsliklar.

- 32.Adabiyot. 9-sinf(2010, Q. Yo’ldoshev, V.Qodirov, J. Yo’ldoshbekov) 39-bet
- 33.O’zbek adabiyoti. 8-sinf (1997, A. katabekov, V. Rahmonov) 35-bet
- 34.Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo‘chqorov. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan. G‘afur

Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T., 2006, 124-bet. Ikkinchi nashri “Oʻzbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bilan hamkorlikda. T., 2010, 90-bet.

Ilmiy maqolalar

35. Alisher Navoiy tavalludining 573 yilligiga bagʻishlangan uslubiy qoʻllanmadan
36. 2012 yil 9 fevralda Alisher Navoiy tavalludiga 571 yilligida maruzasidan
37. “Muloqot”, 1991, 2- son.
38. Shuhrat SIROJIDDINOV, Gulnoza ODILOVA, “Jahon adabiyoti” jurnali, 2013–Xalq soʻzi gazetasidan.
39. Nusratulla Jumaxoʻja “Sharq yulduzi” jurnali, 2016-3
40. Navoiy va bugungi avlod. “Jahon adabiyoti” jurnali 2013, №2
41. Alimurod TOJIEV. Navoiy va bugungi avlod. Manba: «Jahon adabiyoti» jurnali, 2013 yil, № 2
42. Alimurod TOJIYEV. “Farzandlarga Navoiyni qanday oʻrgatish kerak.” *“Sogʻlom avlod” gazetasi, 2018-6*
43. Iristoy Qoʻchqortoyev. Soʻz ummonidagi gavharlar. Maqola. 13.05.2018.
44. Izzat Sulton. Ikki Maqola. *“Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” gazetasining 2009 yil 11-soni*
45. Navoiy ijodini horijda oʻrganilishi. A. Xoʻjayev

Internet saytlari.

46. <https://aim.uz/.../21589-alisher-navoiy-hayoti-va-ijodi.raw>
<https://saviya.uz> › Ижод › Адабиётшунослик
48. <https://kun.uz/uz/71340468>
49. <http://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/husan-maqsud-oshiq-sharhi-holi-ifodasida-badiiy-sanatlarning-orni>.
50. www.saviya.uz
51. www.ziyouz.com/index
52. www.fikr.uz
53. www.ziyouz.net
54. <http://tafakkur.net/alisher-navoiy.haqida>
55. <http://tafakkur.net/alisher-navoiy.haqida>
56. <http://tafakkur.net/alisher-navoiy.haqida>
<http://fikr.uz/blog/ziyo/navoiy-va-boburning-mangu-meroslari.html>
<http://tafakkur.net/alisher-navoiy.haqida>
57. www.wikipedia.org/wiki/Alisher_Navoiy
58. www.infoteka.uz/Alisher-navoiy-asarlari-elektron-kutubxonasi
59. www.e-adabiyot.uz/uzbek/mumoz/navoi.